

**TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**



# O'QUV USLUBIY MAJMUA



**TOSHKENT- 2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMUY-METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**«SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH» YO'NALISHI**

**«SOLIQQA TORTISHNING XALQARO ANDOZALARI»  
MODULI BO'YICHA**

**O' Q U V – U S L U B I Y  
M A J M U A**

**Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:** TDIU "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrasi professori, i.f.d. C.K.Xudoyqulov,  
TDIU "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrasi dotsenti, PhD Sh.B.Babayev

**Taqrizchi:** i.f.d., professor M.I Alimardanov

**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 23 dekabragi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## **MUNDARIJA**

I. Ishchi dastur .....	4
II. Modulni o'qitishda foydalilaniladigan interfaol ta'lif metodlari.....	12
III. Nazariy materiallar.....	18
IV. Amaliy mashg'ulot materiallar.....	67
V. Keyslar banki.....	115
VI. Mustaqil ta'lif mavzulari .....	122
VII. Glossariy .....	125
VIII. Adabiyotlar ro'yxati .....	137

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to’g’risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5544-sonli Farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 797-son, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4022-son hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019 – 2030 yillar davrida O’zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4477-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo’lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg’or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o’zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko’nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo’yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo’yladigan umumiy malaka talablari va o’quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo’lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o’quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo’naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o’quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo’yicha so’nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo’llash bo’yicha tegishli bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo’nalishining o’ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko’nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo’yladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Soliqqa tortishning xalqaro andozalari” **modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini o’quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg’or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg’or xorijiy tajribalar: modul-kredit tizimi, case study (keys stadi), masofali o’qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlarni o’zlashtirish, joriy etish, ta’lim amaliyotida qo’llash, ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

“Soliqqa tortishning xalqaro andozalari” **modulining vazifalari:**

- “Soliqlar va soliqqa tortish” yo’nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini uzlusiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo’lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o’zlashtirilishini ta’minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o’qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish;
- “Soliqlar va soliqqa tortish” yo’nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlash.

## **Modul bo’yicha tinglovchilarning bilimi, ko’nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar**

Maxsus fanlar bo’yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko’nikma, malaka hamda kompetentsiyalarga ega bo’lishlari talab etiladi:

### **Tinglovchi:**

- O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Davlat byudjeti to’g’risidagi qonuni, shuningdek ta’lim sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me’yoriy hujjatlarni;
- O’zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to’g’risida”gi qonun, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillatirish kontseptsiyasi”da belgilangan soliq siyosatining asosiy yo’nalishlarining mohiyati va ahamiyatini;
- O’zbekiston Respublikasida soliq siyosati, uning yaqin istiqboldagi vazifalari va strategik yo’nalishlarini retrospektiv va perspektiv baholashni;
- O’zbekistonda bevosita soliqlarni soliq tushumlaridagi salmog’i va qiyosiy tahlili, o’zgarish tendentsiyalarini ishlab chiqishni.
- Davlat soliq qo’miasi tomonidan soliq to’lovchilarga taqdim etilgan interaktiv xizmatlardan amalda foydalanishni;
- iqtisodiyot sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimida xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalarini qo’llashni;
- davlat soliq xizmati organlarida foydalanilayotgan dasturiy mahsullardan foydalanish hamda ularni keng jamoatchilikka tushuntirish;

- mamlakat soliq tizimiga oid yangiliklar, dolzarb masalalarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- Soliq to'lovchilarni segmentlash va nazorat qilishni ***bilishi kerak.***

### **Tinglovchi:**

- ta'lif-tarbiya jarayonlari maqsadiga erishishda davlat soliq xizmati organlari faoliyatini bilish;
- xalqaro soliqqa tortishning jahon xo'jaligini tartibga solishdagi ahamiyatini yoritib berish;
- davlat soliq xizmati organlari qabul qilingan qarorlarning natijasini baholash va prognoz qilish;
- xalqaro soliqqa tortishni muvofiqlashtirish jarayonlarini ko'rsatib berish;
- soliq xizmati organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- xalqaro soliqqa tortishda qo'llaniladigan tamoyillarni yoritish; - xonodon xo'jaligining iqtisodiyotdagi o'rnini baholash;
- xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish xususiyatlarini o'rghanish;
- O'zbekiston soliq tizimida ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llashni o'rgatishdan iborat;
  - mamlakatdagi alohida ahamiyatga ega hududlarni maxsus soliq rejimlarini joriy etish;
  - pedagogik faoliyatga innovatsiyalarni tadbiq etishning samarali usullaridan foydalanish;
  - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga tadbiq etish;
  - elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalarini bilishi hamda ulardan ta'lif jarayonida foydalanish;
  - xorijiy tildagi manbalardan pedagogik faoliyatda foydalana olish;
  - O'zbekiston Respublikasi byudjet va soliq tizimlaridagi xalqaro integratsiya va uni amaliyotga tadbiq qilish;
  - boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
  - byudjet daromadlarini prognozlashtirish va tushumlarni nazorat qilish ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***

### **Tinglovchi:**

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Davlat byudjeti to'g'risidagi qonuni, shuningdek ta'lif sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlaridan o'quv jarayonida samarali foydalana olish;
- mutaxassislik fanlaridan innovatsion o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- Byudjet soliq siyosatining dolzarb masaalari va soliqqa tortish amaliyoti mutaxassislik fanlarini o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish;

- soliq sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'lim jarayonini loyihalash;
- soliqlarni hisoblash va soliq hisobotlarini tuzishda axborot texnologiyalaridan foydalana olish hamda o'quv jarayoniga tadbiq etish;
- soliq solishning milliy va xalqaro tajribalarini qiyosiy tahlil qila olish hamda ta'lim jarayonida qo'llash;
- soliq organlarida soliqlar hisobini yuritishda maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanishga oid ***malakalariga ega bo'lishi zarur.***

### **Tinglovchi:**

- xalqaro soliqqa tortish jarayonlarini chuqur tahlil etish va olingen xulosalarini keng jamoatchilikga tushuntirib bera olishi hamda soliq sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarini o'qitish jarayoniga nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash;
- makroiqtisodiy va soliq ko'rsatkichlarni tizimli ravishda taxlil qilish va ulami keng jamoatchilikka tushuntira olish;
- soliqlarni hisoblash va soliq hisoboti ma'lumotlari asosida byudjet tushumlari istiqbolini belgilovchi optimal boshqaruv qarorlarini qabul qila olish;
- soliqqa tortishning xalqaro andozalari bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi tartib va qoidalarni amaliyotga joriy qila olish;
- soliqlarni hisoblash va undirish amaliyoti mexanizmlarini takomillashtirishda faol qatnashish ***kompetentsiyasiga ega bo'lishi zarur.***

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

"Soliqqa tortishning xalqaro andozalari" kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limming zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'uotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlari, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyiligi**

O'quv modul mazmuni o'quv rejadagi uchinchi va beshinchchi blok hamda mutaxassislik o'quv modullarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda professor-o'qituvchilarning umumiyligi tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning olyi ta'limdagisi o'rni**

Hozirgi globallashuv sharoitida byudjet va soliq siyosati va undagi islohotlarning ustuvor yo'naliishlari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan bo'lib, unda mamlakatimiz soliqqa tortish tizimidagi

islohotlarning kontseptual asoslari yoritib berilgan. Soliqqa tortish sohasida zamonaviy pedagog kadrlar uchun ushbu yo'nalishdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish talab qilinadi va bunda O'quv modulning roli yuqoridir.

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim	
			jam'i	Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.	Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va huquqiy-me'yoriy asoslari	4	4	2	2		
2.	O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayoniga xalqaro soliq andozalaridan foydalanish	4	4	2	2		-
3.	AQSH va Kanada davlati soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili	4	4	2	2		-
<b>Jami:</b>		12	12	6	6		

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu: Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va huquqiy-me'yoriy asoslari**

Soliqqa tortish tamoyillari. Xalqaro soliq munosabatlarda soliq tamoyillarining ahamiyati. Soliqqa tortish tamoyillarini ishlab chiqishda xalqaro tashkilotlar. Soliqqa tortish tamoyillarni joriy etish muammolari. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va zamonaviy tamoyillarining muvofiqligini ta'minlash masalalari. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va xususiy soliqqa tortish tamoyillarining muvofiqligini ta'minlash masalalari. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillariga asoslangan holda har bir davlatning soliqqa tortish tamoyillarini ishlab chiqish masalalari. Xalqaro soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishda huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ahamiyati. Jahon soliq kodeksini ishlab chiqilishga asosiy sabablar. Xalqaro soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni davlatlar o'rtasida qabul qilish tartiblari. Xalqaro soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishda huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilish. Xalqaro soliqqa tortishning huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilinmaganlik sharoitida javobgarlik masalalari.

## **2-mavzu. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayoniga xalqaro soliq andozalaridan foydalanish.**

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish borasida belgilangan me'yoriy huquqiy hujjatlarning ahamiyati. Chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi sub'ektlar tomonidan foydalaniladigan avtomatlashtirilgan dasturiy hisob yuritish komplekslarini soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, tovarlarni (xizmatlarni) etkazib berish bo'yicha shartnomalarni hamda tovar-moddiy tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni majburiy elektron ro'yxatdan o'tkazish. Transfert narx shakllanishi masalalari bo'yicha norezidentlarning soliq nazorati va ma'muriyatchiligi sohasida soliq qonunchiligini takomillashtirish.

## **3-mavzu. AQSH va Kanada davlati soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili.**

AQSH va Kanada davlatida soliq munosabatlari borasida integratsiyaning vujudga kelishi. AQSH va Kanada davlatida soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. AQSH va Kanada davlati soliq tizimidagi soliq ma'murchiligining tashkil etilishi. AQSH va Kanada davlatida soliq imtiyozlarini berish va uning samardorligini baholash tartibi. AQSH va Kanada davlati soliq tizimida soliq stavkalarining belgilanishi. AQSH va Kanada davlati soliq tizimida soliq nazoratini amalga oshirish tartibi. AQSH va Kanada davlati o'rtasida soliqqa oid munosabatlarni tartibga solish mexanizmi. AQSH va Kanada davlati va O'zbekiston soliq tizimining o'xshash va farqli xususiyatlari. AQSH va Kanada davlatida soliq tizimining ilg'or tajribalarini O'zbekiston soliq tizimida foydalanish masalalari.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot: Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va huquqiy-me'yoriy asoslari**

Soliqqa tortish tamoyillari. Xalqaro soliq munosabatlarida soliq tamoyillarining ahamiyati. Soliqqa tortish tamoyillarini ishlab chiqishda xalqaro tashkilotlar. Soliqqa tortish tamoyillarni joriy etish muammolari. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va zamonaviy tamoyillarining muvofiqligini ta'minlash masalalari. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va xususiy soliqqa tortish tamoyillarining muvofiqligini ta'minlash masalalari. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillariga asoslangan holda har bir davlatning soliqqa tortish tamoyillarini ishlab chiqish masalalari. Xalqaro soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishda huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ahamiyati. Jahon soliq kodeksini ishlab chiqilishga asosiy sabablar.

Xalqaro soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni davlatlar o'rtasida qabul qilish tartiblari. Xalqaro soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishda huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilish. Xalqaro soliqqa tortishning huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilinmaganlik sharoitida javobgarlik masalalari.

## **2- amaliy mashg'ulot:**

### **O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayoniga xalqaro soliq andozalaridan foydalanish.**

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini rivojlantirish Kontseptsiyasida xalqaro tajribalarga asoslanishi. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati strategiyasi va taktilalarini ishlab chiqishda xalqaro soliq andozalaridan foydalanishi. Soliq siyosatini tahlil qilishda, «soliq siyosatining sub'ektlari», hamda uning «maqsadlari», «usullari» va «shakllari» kabi tushunchalari. Davlat soliq siyosatining maqsadlari. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimidagi farqli jihatlari. Xalqaro amaliyotda soliq vakolatlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi. O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish modellari. Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish borasida belgilangan me'yoriy huquqiy hujjatlarning ahamiyati. Chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi sub'ektlar tomonidan foydalaniladigan avtomatlashtirilgan dasturiy hisob yuritish komplekslarini soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, tovarlarni (xizmatlarni) etkazib berish bo'yicha shartnomalarni hamda tovar-moddiy tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni majburiy elektron ro'yxatdan o'tkazish. Transfert narx shakllanishi masalalari bo'yicha norezidentlarning soliq nazorati va ma'muriyatichiligi sohasida soliq qonunchiligini takomillashtirish.

## **3- amaliy mashg'ulot:**

### **AQSH va Kanada davlati soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili.**

AQSH va Kanada davlatida soliq munosabatlari borasida integratsiyaning vujudga kelishi. AQSH va Kanada davlatida soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. AQSH va Kanada davlati soliq tizimidagi soliq ma'murchiligining tashkil etilishi. AQSH va Kanada davlatida soliq imtiyozlarini berish va uning samardorligini baholash tartibi. AQSH va Kanada davlati soliq tizimida soliq stavkalarining belgilanishi. AQSH va Kanada davlati soliq tizimida soliq nazoratini amalga oshirish tartibi. AQSH va Kanada davlati o'rtasida soliqqa oid munosabatlarni tartibga solish mexanizmi. AQSH va Kanada davlati va O'zbekiston soliq tizimining o'xshash va farqli xususiyatlari. AQSH va Kanada davlatida soliq tizimining ilg'or tajribalarini O'zbekiston soliq tizimida foydalanish masalalari. AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishining uziga xos xususiyati, tug'ri soliqqa tortishning barcha turlarining qullanilishi bilan aniqlanishi. AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishi. AQSHda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning tulovchilari. Kanada

davlati soliq tizimidagi soliq ma'murchiligining tashkil etilishi. Kanada hukumati tomonidan soliq tizimi oldiga quyiladigan vazifalar.. AQSH va Kanada davlati soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili kengroq tarzda yoritilishi.

## O'QITISH ShAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

**davra suhbatlari** (ko'rileyotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

**bahs va munozaralar** (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

**Keng ko'lamlili suhbat.** Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.

**Press-konferentsiya.** Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim.

**Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) echish.** Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lgan, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo'nalishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

### Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinushi.  
**Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi**

Олиб борувчининг кириш сўзи, кўрилаётган масала билан аудиторияни таништириш, регламентни тасдиқлаш, иштирокчиларни таништириш



### Bahs

**Bahs** – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

#### Anjuman-bahsining roli

**Olib boruvchi** – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

**Opponent** – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

**Mantiqchi** – nutq so’zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

**Psixolog** – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalgalash oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yo’l qo’ymaydi.

**Ekspert** – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo’shgan hissasi to’g’risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

### **«Aqliy hujum»**

**Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo’roni)** – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.


Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o’qib-o’rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko’nikmalarni shakllantirish, fikrlash inertsiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini engish.


- **To’g’ridan-to’g’ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko’proq fikrlar yig’ilishini ta’minlaydi. Butun o’quv guruhi (20 kishidan ortiq bo’lmagan) bitta muammoni hal etadi.

- **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlarga bo’lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.


- Har bir guruuh ichida umumiylar muammoning bir jihatni hal etiladi.

## Ko'rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar





Venn diagrammasi




“SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mayjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• хавфлар

### “Kuchlar tahlili” grafigi



### «Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o’qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to’siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo’ladi.

So’ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni engib o’tish vositalari strelka ko’rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o’ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo’lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo’laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

### “Keys-stadi” metodi

**«Keys-stadi»** - inglizcha so’z bo’lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o’rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o’z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minati bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig’ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>

<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

### Keys.

Amaliy vaziyat. Ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilar belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarini belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtasida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rakash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'riliysiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslahatimiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-mavzu. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va huquqiy-me'yoriy asoslari. (2 soat)**

**Reja:**

- 1. Xalqaro soliq munosabatlarida soliq tamoyillarining ahamiyati**
- 2. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari**
- 3. Jahon soliq kodeksini ishlab chiqilishga asosiy sabablari**
- 4. Xalqaro soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni davlatlar o'rtasida qabul qilish tartiblari**

##### **1. Xalqaro soliq munosabatlarida soliq tamoyillarining ahamiyati.**

Soliqlarning funktsiyasini o'rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko'plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarni qayd etishgan.

Soliqqa tortish tamoyillarini A. Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab bergan:

1) Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zları hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2) Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lisi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqt va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lisi zarur.

3) Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtida va tartibda undirilishi kerak.

4) Har bir soliq shunday tarzda tuzilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lismiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimning quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

1. Etarilik tamoyili. Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lisi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlasin. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari (o'zicha olganda) soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni choqda o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiyl foydalanish yo'llarining holati yaxshi saqlanishini ta'minlash bilan soliq to'lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog'liqni saqlashni ta'minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi,

demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo'ladi. Shunday qilib, to'langan soliqlarning faqat xizmatlar ko'rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, etarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

2. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, jumladan, chet el sub'ektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo'lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdag'i iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdan manfaatdorligiga putur etkazsa, mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug'iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zahiralar, banklardagi pul mablag'larining barakasi uchishiga, ilgari to'plangan mablag'larning eyilib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortish, agar u, birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo'lgan iste'molning minimal hajmlariga salbiy ta'sir etsa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag'batlarning harakat doirasini toraytirib qo'ysa, uchinchidan, jamg'arma miqdorini kamaytirsa va mablag'ning to'planish jarayonini sekinlashtirsa, ishlab chiqarish imkoniyatlarini yomonlashtirib yuborishi mumkin.

Soliqqa tortishning keyingi ikki salbiy omilini bat afsil ko'rib chiqaylik. Moddiy rag'batlantirishlarga nisbatan soliqqa tortishning noxush ta'sir etishi ish haqi tizimida salbiy alomatlar paydo bo'lishida ko'zga tashlanadi.

Yuqori darajada tabaqlashtirilgan soliq stavkalarining qo'llanilishi natijasida xodim tomonidan ana shu moddiy rag'batni qabul qilishdagi oddiylik va maqbullik ko'lar torayib qoladi.

Soliqqa tortish bazasi va uning hajmlarini noto'g'ri belgilash xodimning malaka oshirishiga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug'ullanishiga va boshqa sohalarga bo'lgan intilishiga salbiy ta'sir etadi, boisi - mehnatga to'lanadigan haq miqdori, haqiqiy mehnat xarajatlarining murakkabligi va xususiyati o'zgarishiga befarq bo'lib qoladi.

Soliqqa tortishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi hamda qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg'arish, investitsiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa progressiv (oshib boruvchi) soliqqa tortishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Dunyodagi bir qator mamlakatlarda kapitaldan kelgan daromad va iste'molga qarab soliqqa tortishni ko'zda tutgan soliq islohoti o'tkazilmoqda. Soliqqa tortishning

salbiy ta'sirini silliqlash maqsadida ishchi kuchini taklif etish sohasida ish haqi ko'rinishidagi daromadlardan olinadigan soliqlarning eng yuqori qilib belgilangan stavkalari pasaytirilmoqda. Jamg'arish va investitsiyalashga soliqlarning ta'sir etishi borasida ham muayyan yutuqlarga erishildi.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Soliqqa tortishdagi ogirlikni kapitaldan shaxsiy jamg'arishga o'tkazishning umumiy ta'sirini bir xil ma'noda baholash qiyin, jamg'armaning umumiy hajmi uchun kelib chiqadigan oqibatlar soliq tushumlarining hukumat tomonidan ishlatilish xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi uy xo'jaliklaridagi jamg'armalar darajasining pasayib ketishiga olib kelgan bo'lsa, u holda bir tekis foiz stavkasi oshgan, bu esa investitsiya kapitaliga talabning kamayishi ta'sir ko'rsatgan bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa jamg'armalardan olinadigan daromad soliqlari investitsiyalarga cheklangan darajada ta'sir qiladi, chunki bunda chet eldan kapitalning ko'proq oqib kelish imkoniyati bor, binobarin, xorijlik sarmoyador jahon bozorida ustun hisoblangan stavkani mo'ljallaydi. Biroq bunday holatda kapitalga bo'lgan mulkchilik harakatga keladi. Bunga misol tariqasida Yaponiyadan kapitalning AQSHga oqib o'tganligini ko'rsatish mumkin, AQSHda kapitaldan foydalanganlik uchun foiz stavkasi past bo'lgan. Ayni paytda AQSHda rezidentlar jamg'armalarini soliqqa tortish stavkasi Yaponiyadagiga qaraganda yuqori edi.

Binobarin, soliq siyosati o'z-o'zidan, agar u davlatning moliya-pul siyosati boshqa unsurlardan ayri holda amalga oshirilsa, takror ishlab chiqarish jarayonlariga rag'batlantiruvchi ta'sir o'tkazmasligi ham mumkin.

3. Soliqqa tortishningadolatlilik tamoyili. Adolat tamoyillariga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy ob'ektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyilining bir qancha asosiy guruhdagi soliqka tortish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to'lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Vertikal adolat deganda, xo'jalik yuritishning bir muncha ogir sharoitlarida ishlayotgan sub'ektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, engil daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan sub'ektlar uchun esa ogirroq shartlarni qo'llash tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo'yicha soliqqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki buning aksicha vino-aroq va tamaki

mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egi soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo'ladi.

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo'lishi mumkin. Agar soliqlarni to'plangan soliqlar hisobidan ro'yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko'radian shaxslar to'lasa, u holda adolatli deb hisoblanadi. Aytaylik, transport vositalariga soliqlardan tushadigan mablag'ni davlat katta yo'llarni ta'mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan soliq to'lovchilarning o'zлari - avtomobil egalari naf ko'radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo'riqlashdan aniq ravishda kim ko'proq foyda ko'rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog'liqni saqlash dasturlaridan asosan ko'p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o'zidan undirishni talab qilish adolatdan bo'ladimi?

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo'llaniladi, unga ko'ra to'lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to'lovchining daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, undan shuncha ko'p miqdorda soliq undiriladi. Bu gapning ma'nosi shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar uchun bir qadar yuksak iqtisodiy mas'uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kambag'allarga nisbatan ko'proq to'lashga qodirdirlar. Boy odamlar bepul davlat dasturlaridan foydalanadilarmi? Agar foydalansalar, bu qay darajada ahamiyatsiz? Aslini olganda, o'ziga to'q kishilar ta'lim berish va xizmat ko'rsatish yaxshiroq yo'lga qo'yilgan maktab va shifoxonalarni tanlaydilar. Bunday to'lov qobiliyati kontseptsiyasi AQSH soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur kontseptsiyasi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko'proq soliq to'lashga qodir, degan fikrga qo'shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha barobar ko'p soliq to'lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqdir. Badavlat odam o'zining daromadidan o'sha hissani va mutlaq katta summani to'laydimi yoki soliq sifatida umuman ko'proq hissani to'laydimi? Afsuski, aniq bir kishining soliq to'lash imkoniyatlarini o'lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar yo'q. Amaliyotda bunga javob, takliflar va taxminlar empirik yo'l bilan yoki hukumatning daromadlarga bo'lган joriy ehtiyojlari, siyosiy qarashi asosida paydo bo'ladi.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba'zi hollarda taqsimotdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish o'rinniki, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravarlashtirish deb tushunmaslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo'lishi kabi tenglik tamoyillari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va bu tamoyillarga qadriyatlarning ijtimoiy tizimiga qat'iy amal qilmoq lozim. Moddiy tenglik, ya'ni daromadlar, mulk, iste'mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo'lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka

erishib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo'ljallangan rejada aholining farovonligini umumiy tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko'maklashmog'i zarur.

4. Oddiylik va xolislik. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda utilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarining mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Ba'zi sohalarda paydo bo'ladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ehtiyojni qondirishni byudjet-kredit siyosati orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shuki, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarining soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiyadolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

5. Boshqarishga qulaylik. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funktsiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

Ma'muriy boshqaruvchilik bilan soliqqa tortish tamoyillarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan maqsadga erishish o'rtasida muvozanat saqlanib qolishi nihoyatda muhimdir. Murakkab tuzilgan choralarining samarasi kam bo'ladi, ularni amalga oshirishdagi muvaffaqiyat ko'pdan-ko'p axborot to'plash va undan foydalanishga bog'liq. Soliq xizmati va soliq madaniyatining rivojlanganlik darajasini ham hisobga olish kerak.

6. Soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish. Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riliгини bevosa nazorat qilish usullarini qo'llash orqali soliq to'lovchilarining xarajatlarini kamaytirish maqsadida

davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

7. Soliq stavkalarini qiyoslash. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya’ni mintaqaning o’ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo’lgan xo’jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo’ylgudek bo’lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, engil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta’sir qiladi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o’xhashlikka ega va ularni to’liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida esa soliqqa tortish tamoyillari soliq qonunchiligi tamoyillari deb atalib, uning besh tamoyili (4-modda) belgilab berilgan.

•Har bir shaxs Kodeksda belgilangan soliq va to’lovlarini to’lashga majburdir, ya’ni soliq to’lash qonun bilan majbur qilib qo’yiladi. Aslida majburiylik soliqlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi.

•Huquqiy shaxslarni soliqqa tortish mulkchilik shaklidan qat’i nazar, jismoniy shaxslar esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoldidan qat’iy nazardan qonun oldida tengdirlar.

•Belgilangan soliqlar va yig’imlar O’zbekiston hududida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yoki pul mablag’larining erkin harakatini bevosita yoki bilvosita cheklamaydi yoki soliq to’lovchilarining iqtisodiy faoliyatini cheklashga yoki to’sqinlik qilishga yo’l qo’ymaydi.

•Manbalaridan qat’iy nazar, hamma daromadlar majburiy ravishda soliqqa tortiladi.

•Belgilangan soliq imtiyozlari ijtimoiy adolat tamoyiliga mos kelishi shart.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o’xhashlikka ega va ularni to’liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

Soliqqa tortish tamoyillari to’g’risida turlicha yondashishlar mavjudligini yuqorida ko’rib o’tdik. A. Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortishning 4 tamoyili, mamlakatimiz soliq kodeksida esa soliq qonunchiligining 5 tamoyili va boshqa iqtisodiy adabiyotlarda ham turlicha soliqqa tortish tamoyillari mavjudligi e’tirof etilgan. Yuqorida keltirilgan soliqqa tortish tamoyillarini chuqurroq o’rganish ularni umumlashtirish orqali eng maqbul, barcha jihatlarni to’liq qamrab oladigan optimal soliqqa tortish tamoyillarini yaratish muammosining echimini topish hozirgi davr talabi bo’lib qolmoqdi.

## **2. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari**

Jahon hamjamiyati iqtisodiy tizimlari integratsiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi xorijiy mamlakatlar soliq tizimlarini o’zaro ta’siriga olib keldi. Turli malakatlarda soliqqa tortishni u yoki bu masalalariga bo’lgan yondashuvlarni bir biriga mos kelmasligi nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishigasabab bo’lmoqda. Masalan, xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish ana

shunday masalalardan biridir. Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to'lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o'xhash soliq turi bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortish ifodalanadi.

Ikki tomonlama soliqqa tortishni belgilovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- soliqqa tortish ob'ektining o'xhashligi;
- soliqqa tortish sub'ektlarining o'xhashligi;
- soliq to'lash muddatining o'xhashligi;
- soliq to'loving bir xilligi va boshqalar.

Har bir mamlakatda soliq qonunchiligini kengaytirish va huquqiy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, tovar, xizmat va kapitalni eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari berish bilan bog'liq tadbirlarning umumiyligi yig'indisi mamlakatning tashqi soliq siyosati deyiladi. Ushbu siyosatning qaysi tomonga yo'naliishi muayyan vaziyatdan kelib chiqadi. U byudjet daromadlarini oshirish nuqtai nazaridan yoki eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadidan kelib chiqishi mumkin. Ammo, shu narsani yoddan chiqarmaslik lozimki, bu sohada manyovrlashtirish imkoniyatlari ancha chegaralangan: yuqorida aytiganidek, hech bir mamlakat o'z fuqarolari yoki kapitali uchun boshqa mamlakatdan, mahalliy aholiga qo'llanilayotgan soliqqa tortishga nisbatan imtiyozliroq bo'lgan tartibni talab qilishga xaqli emas. Xuddi shuningdek, hech bir mamlakat o'z hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy fuqaro va shaxslarga, soliq yukini mahalliy aholidan keskin farq qiluvchi nisbatlarda oshirishga xaqli emas. Bunday holatning yuz berishi, mazkur mamlakatning xorijiy bozorlaridagi faoliyatiga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Aksariyat mamlakatlar soliq qonunchiligidagi xorijiy shaxslar va kompaniyalarni soliqqa tortishning faqatgina umumiyligi tomonlari belgilab beriladi va ular keyinchalik hukumat ko'rsatmalarida, sud qarorlarida, ma'lum milliy odatlarda va boshqalarda aniqlashtiriladi.

Har bir mamlakat uchun xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solinishida quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi:

- bir yoklama chora-tadbirlar yoki milliy soliq siyosatining chora-tadbirlari bo'lib, boshqa mamlakatlar hukumatlari bilan hech qanaqa kelishuvlarsiz amalga oshiriladi (mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijliklar va mamlakatning xorijda faoliyat yuritayotgan fuqaro va korxonalariga nisbatan soliq tartibining belgilanishi);
- shartnomaviy chora-tadbirlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama asosda (xalqaro kelishuv), yoki "soliqlarning garmonlashuvi" deb nomlanadigan kelishuvlar doirasida (ya'ni, ikki yoki undan ortiq shartlashayotgan mamlakatlarning milliy soliq siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida)gi chora-tadbirlar.

Hozirgi kunda, amalda yuzdan ortiq soliq kelishuvlari mavjud. Bundan tashqari, u yoki bu darajada mamlakatlar o'rtasidagi soliq munosabatlariga tegishli bo'lgan turli xil xalqaro kelishuvlari ham mavjud.

Umuman, soliq kelishuvlari bir nechta tur va ko'rinishga ega. Ulardan

ayrimlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- ma'muriy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuvlar;
- "chegaralangan" soliq kelishuvlari;
- umumiylar soliq kelishuvlari;
- hadya va merosdan olinadigan soliqlar bo'yicha kelishuvlar;
- ijtimoiy sug'urta to'lovlari bo'yicha soliq kelishuvlari va boshqalar.

Hozirda ushbu kelishuvlarning barchasi ko'pchilik vaziyatlarda yangi kelishuv shakli bo'lgan "Umumiy soliq kelishuvi" bilan almashtirilmoqda (ushbu soliq kelishuvi to'liqligicha "Ikki yoqlama soliqqa tortishni bekor qilish hamda daromad va kapitalni soliqqa tortish sohasidagi chetga chiqishlarga qarshi kurash bo'yicha kelishuv" deb nomlanadi va asosan, birinchi jahon urushidan so'ng, keng qo'llanila boshlangan).

### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Umumiy soliq kelishuvi, ikki yoqlama soliqqa tortish, soliqlarning garmonlashuvi, etarlilik tamoyili, tadbirkorlik, investitsiya, adolatlilik tamoyili, vertikal adolat, soliq stavkalarini qiyoslash, soliq imtiyozlari, soliqlarning garmonlashuvi*

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari tushunchasi?
2. Solik kelishuvi necha turdan iborat?
3. Xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solinishida qaysilar asosiy vosita hisoblanadi?
4. Vertikal adolat deganda nima tushinasiz?
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida nechta tamoyil belgilab qo'yilgan?

### **3. Jahon soliq kodeksini ishlab chiqilishga asosiy sabablar**

Birlashgan millatlar tashkiloti u yoki bu xalqaro dasturlar asosida bozor islohotlarini amalga oshirayotgan davlatlarga ma'lum bir loyihalarni ishlab chiqish va joriy etishda yordam berish hamda hamkorlik qilishni amalga oshiradi. Bunday hamkorlik yo'naliishlaridan biri - zamonaviy xalqaro iqtisodiy talablarga javob beradigan milliy soliq tizimining yuzaga kelishiga, shakllanishi va rivojlanishiga yordam berishdir. Aynan shunday chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida, ya'ni xalqaro soliq dasturi doirasida Jahon soliq kodeksini tayyorlash fikri yuzaga keldi. Ushbu Kodeksning asosiy maqsadi - islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlarga ilmiy asosda soliq munosabatlarini tashkil qilish, yagona terminologiya va yagona mazmundagi izohni yaratish imkoniyatlarini taqdim etishdir.

Jahon soliq kodeksi asoslari shaklidagi ushbu hujjat 1993 yilda tayyorlanib, nashrdan chiqarildi. Uning mualliflari Garvard universiteti (AQSH) mutaxassislari Uord M. Xassi va Donald S. Lyubik. Ushbu Kodeks asoslari 300 betdan iborat bo'lib, 591 ta modda va izohni o'z ichiga olgan.

Kodeksning kirish qismida mualliflar ko'pgina davlatlar tajribasidan o'tgan soliq tizimining zamonaviy ma'nosini ochib berishga harakat qilganliklarini

yozishgan. Jahon soliq kodeksi namuna sifatida bo'lishiga qaramasdan, unda soliq to'lovlarining aniq stavkalari, uning minimumlari va imtiyozlar berilgandir. Kodeks matni va unda berilgan stavkalar kodeksdan foydalanishni hohlovchi davlatlar uchun majburiy emas, balki tavsiyaviy tusga ega.

Milliy soliq qonunchiligi tayyorlanayotganda ushbu davlat mutaxassislari tomonidan mamlakatdagi aniq iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar inobatga olinishi kerak.

Kodeksda berilgan nizom alohida ahamiyatga ega. Nizomga ko'ra, soliq tizimi orqali iqtisodiy subsidiyalar berish to'g'ri subsidiya to'lovlariga nisbatan kam samaralidir. Imtiyoz turlari va engilliklarning ko'pligi, soliq imtiyozlarini nazorat qilishning qiyinligi sababli, soliq tizimini murakkablashtiradi va samaradorligini pasaytiradi, uning zarur bo'lgan egiluvchanlik xususiyatlarini yo'qotadi. Bundan kelib chiqib, kodeksda soliqlardan vaqtinchalik yoki doimiy ozod etish kabi imtiyozlar ko'zda tutilmaydi. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan xolda, Kodeks mualliflari fikricha, ushbu davlatlar daromadlarining asosiy qismi bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar hamda korxona va tashkilotlar foydasiga soliq hisobiga shakllanadi. Bunday soliq tizimi soliqlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xarajatlar jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa nisbatan kam bo'ladi. Tavsiya etilayotgan Kodeksdagi soliqlar tizimiga faqatgina yuqori daromadlarga ega bo'lgan aholi qismiga qo'llaniladigan jismoniy shaxslardan olinadigan individual daromad solig'i ham kiritilgan. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda asosan rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik davlatlarda individual daromad solig'ini rivojlangan davlatlardagi kabi keng miqyosda qo'llash uchun etarli darajadagi ma'muriy va huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi bilan izohlanadi. Individual daromad solig'i soliq tushumlari maqsadida emas, balki tenglik hissini qaror toptirish maqsadida joriy etiladi. Jahon soliq kodeksini ishlab chiqqanlar, soliq qonunlarini tayyorlash va qabul qilish soliq islohotiga dastlabki qadamdir deb hisoblaydilar. Asosiysi, soliq apparatining samaradorligini yaratishda deb biladilar. Adolatli va yuqori salohiyatlari soliq xizmatining mavjudligi soliq islohotidagi muvaffaqiyatlarning zaruriy shartidir.

Jahon soliq kodeksi asosiy soliq turlari bo'yicha 5 qismga bo'linib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda joriy etish uchun tavsiya qilinadi. Birinchi qism-daromad solig'i; ikkinchi qism- qo'shilgan qiymat solig'i; uchinchi kism-aktsiz soliqlari; turtinchi qism- ko'chmas mulkka soliq; beshinchi qism-soliq ma'muriyati, deb nomlanadi.

#### **4. Xalqaro soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni davlatlar o'rtasida qabul qilish tartiblari**

Hozirgi zamon tijorat faoliyatini dunyo miqyosi darajasiga ko'tarilishi milliy iqtisodiyotlarni yagona iqtisodiyot siyosatiga o'tishi soliq tizimini ham moslashishini talab qilmoqda..

Bu milliy soliq siyosatini muvofiqlashtirish, soliq solish darajasini

yaqinlashtirish, soliq bazasini aniqlashni bir usulda olib borish, soliq engilliklarini berish xususiyatlarini bir-biriga o'xshatish masalalaridan iborat.

Hozir butun dunyo miqyosida soliq tizimini moslashishi to'g'risida fikr yuritish ertadir.

Qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlarni moslashtirish soliq sohasida birinchi qadamlardan hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i 1954 yili Frantsuz iqtisodchisi, M.Lore tomonidan oborot solig'i o'rniga taklif qilindi. Evropa Iqtisodiy Ittifoqi (EES) 1967 yili bosqichma-bosqich bu tolovni kiritishni tavsiya qildi.

Finlyandiya Evropa Ittifoqiga kirishi uchun 1994 yili qo'shilgan qiymat solig'ini mamlakatda tadbiq qilinishini talab qilishgan.

Soliq stavkalarini yaqinlashtirish uchun 1993 yili uning eng kam stavkasi 15% belgilandi. Lekin ayrim mahsulotlar bo'yicha undan past yoki yuqori qilib belgilangan. Chetga Evropa Ittifoqi mamlakatlaridan eksport qilinsa va Evropa Ittifoqidagi davlatlar bir-biriga mahsulot eksport qilsa qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari Buyuk Britaniyada -17,5%, Daniyada -25%, Lyuksemburg- 15, FRG- 16, Frantsiya-20,6% ni tashkil etadi. o'rtacha Evropa Ittifoqi bo'yicha 19,3%. Evropa Ittifoqi davlatlari o'zaro kliring hisob-kitob usulini qoo'laydilar. Kliring importer davlatlar ortiqcha daromadlarini qoplaydi.

Eksporterlar qo'shilgan qiymat solig'i to'Mamaydilar. Har bir davlat uni hisobini olib boradi va har oyda Evropa Ittifoqi markaziy hisob raqami orqali qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tashqi iqtisodiy aloqa sohasida kompensatsiya beriladi.

Aktsiz soliqlari orqali turizm rivojlangan davrda qaysi davlatdan qo'proq tovar sotib olinsa va xizmatdan foydalanilsa o'sha davlatga ko'proq daromad keladi. Shuning uchun aktsiz solig'ini darajasini Evropa Ittifoqi davlatlarida bir xil qilishga harakat qilinadi. Soliq stavkalarini ko'tarmaslikka qaror qilingan hujjatlar qabul qilingan. Benzin, vino-aroq ichimliklari, tamaki mahsulotlari bo'yicha soliq stavkalarini o'zgartirilmasligi kelishilgan.

Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishini moslashtirish ham muhim o'rinni egallaydi.

Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda qo'yidagi moslashtirishlar kuzdautilgan:

- A) Soliq stavkalarini bir-biriga yaqinlashtirish;
  - B) Soliq bazalarini bir xil turga keltirish;
  - V) Ikki tomonlama iqtisodiy soliq solishni yo'qotish;
  - G) Evropa kompaniyasi deyilgan maxsus statusni qo'llash;
  - D) Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda davlatlar bir-biriga yordam berishi.
- A) Soliq stavkalarini bir-biriga yaqinlashtirish:

Stavkalarning bir-biriga yaqinlashtirilishi daromadlar bir davlatda ko'pligi, ikkinchisida esa, uning taqchilligiga olib kelishi mumkin. Ya'ni stavkaning bir davlatda yuqori, boshqasida past bo'lishi soliq to'lovchilarni past stavkali davlatlarda daromad olishiga va o'z hududidan chetga chiqishiga ya'ni xizmat

bo'yicha migratsiyaga majbur qiladi. Bu esa o'z navbatida ishchi kuchi ko'payib ketgan davlatlarda qo'shimcha mablag'lar talab etadigan ijtimoiy infratuzilmalar qurishga sabab boidi. Shu maqsadda, hududlarda bir-biriga kapital, ishchi kuchi oqimlarini o'tib borishiga chek qo'yish uchun stavkalar darajasini bir-biriga yaqinlashtirish zarurdir.

Shvetsiya Ittifoq a'zosi bo'lganidan keyin asosiy daromad solig'i stavkasini 52-57% dan 30% darajagacha tushirilgan.

b) Soliq bazalarini bir xil turga keltirish:

Hisobot va foyda (zarar) hisob raqamlari orqali foydani aniqlashda bir xil uslubni qo'llash, amortizatsiya, tijorat faoliyatidan olinadigan foyda va zarami aniqlash, foydani oldingi yoki keyingi yilga o'tqazish masalalari yuzasidan bir xil qonunchilik tizimini ishlab chiqish kerak. Soliq bazasini yaqinlashtirish va boshqalar milliy soliq siyosatini o'tkazishga halakit beradi va bu vaziyatdan shu davlatlar aholisida norozilik paydo buladi. Bu kelishmovchiliklar bartaraf qilish uchun ayrim Evropa Ittifoqi davlatlari birtomonlama korporatsiyalarga soliq skidkasi yoki subsidiyalari berishi mumkin.

Yuqoridaq bandda qayd etilganidek, soliq bazasini tuzilishini bir xil turga keltirish stavkalar kabi katta ahamiyat kasb etib, to'lanadigan soliq summaga ta'sir etuvchi soliq bazasini shakllanishini bu davlatlarda o'xhash ko'rinishga keltirish talab etiladi.

V) Ikki tomonlama soliq solishni chegaralash:

Har bir davlat ikki tomoniama soliq solishni yo'qotish uchun o'ziga xos tizimini ishlataladi. Soliq to'ovchini daromad yoki boshqa aynan bitta soliq manbasini o'zi bir vaqt ni o'zida 2 ta yoki undan ortiq davlatlarda soliqqa tortilmasligi kerak.

Masalan, taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan foydaga har-xil stavkalar qo'llash, taqsimlanadigan foydani to'liq va qisman soliqdan ozod qilish. Hozir «to'liq hisobga o'tkazish tizimi»ni qo'lashga ahd qilindi. Bunda hamma davlatlarda taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan foydaga yagona stavkalar qo'lash ko'zda tutiladi. Bunda dividendlar soliqqa tortish 25% darajasida bo'madi.

G) Evropa kompaniyasi deyilgan maxsus statusni qo'lash:

Bir necha davlatlarda tijorat operatsiyalarini olib boradigan kompaniyalarda maxsus soliq solish tartibi qo'laniladi. Bosh va uning bo'mimlari bo'Mgan kompaniyalarga engilliklar qo'shilish va bir-birini «yutib yuborish» yoo'lari bilan beriladi (masalan, dividendlarni ikki tomonlama soliq solishdan ozod qilish.) Ularga maxsus soliq engilliklari ham beriladi.

D) Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda davlatlar bir-biriga yordam berish:

Soliq to'lashdan bosh tortishga qarshi kurashish maqsadida ko'p tomonlama soliq shartnomasi tuziladi va hamma davlatlar ma'lumotlar almashish to'g'risida kelishadilar.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Evropa davlatlarida soliqlarni moslashtirish belgilangan maqsad darajasiga etgani yo'q. Ayrim davlatlar Evropa Ittifoqi markaziy organlari bilan to'iq kelisha olmagan.

Moslashirish muammosi o'z echimini kutmoqda.

**Tayanch so'z va iboralar:**

*daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz soliqlari, ko'chmas mulkka soliq, soliq ma'muriyati, Uord M, Xassi, Donald S, Lyubik, soliqlarni ijaraga olish tartibi, soliq yuki, soliqlarni betaraflik, haqqoniylik va tenglilik printsiplari*

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Jahon soliq kodeksi nechanchi yil tashkil etilgan?
2. Jahon soliq kodeksi asosiy soliq turlari bo'yicha necha qismga bo'linadi?
3. Jahon soliq kodeksini ishlab chiqishdan asosiy maqsad?
4. Jahon soliq kodeksi mualliflarini sanab o'ting?
5. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarni tarkibini keltiring
6. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar iqtisodni boshqarishda soliqdan qanday foydalanadilar?

### **2-mavzu: O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayoniga xalqaro soliq andozalaridan foydalanish (2 soat)**

- 1. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini rivojlantirish Kontseptsiyasida xalqaro tajribalarga asoslanish**
- 2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqishda xalqaro soliq andozalaridan foydalanish**
- 3. O'zbekistonning jahon integratsiyasiga chuqurlashib borishini ta'minlashda soliq tizimining o'rni**

#### **1. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini rivojlantirish Kontseptsiyasida xalqaro tajribalarga asoslanish**

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqishda xalqaro soliq andozalaridan foydalanish. O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda jahon amaliyotida keng qo'llanilgan byudjet-soliq instrumentlarini qo'llash yo'nalishlari. O'zbekistonning jahon integratsiyasiga chuqurlashib borishini ta'minlashda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar.

Davlat va jamiyat munosabatlarining hamma bosqichlarida iqtisodiyot rivojlanishida davlat rolining kuchayishi kuzatilgan, u davlat xarajatlarining, va shunga muvofiq soliqlar vositasida qayta taqsimlanadigan moliya ulushining mislsiz darajada ortishi bilan birga kechgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotdagi davlatning yangi rolini samarali amalga oshirishni hozirgi paytda ilmiy asoslangan va oddiy soliq to'lovchilarga tushunarli bo'lган davlat soliq siyosatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Davlatning soliq siyosati nima va u o'z ichiga qanday maqsadlarni qamrab oladi degan savolni tushunarli tarzda yoritishga harakat qilarz. Turli adabiyotlarda soliq siyosatiga har xil ta'riflar berilgan. Jumladan I.A.Mayburov Soliq siyosati – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, u davlatning milliy boyligining yig'ilishini va oqilona ishlatilishini rag'batlantiradigan, iqtisodiyot va jamiyatning manfaatlarini uyg'unlashtirishga ko'maklashadigan va shu bilan

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydigan soliq tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan siyosatdir<sup>1</sup> deydi.

Soliq siyosatini tahlil qilishda, «soliq siyosatining sub'ektlari», hamda uning «maqsadlari», «usullari» va «shakllari» kabi tushunchalarni farqlash lozim.

Davlat soliq siyosatining sub'ektlari - ularga soliqqa oid qonunchilik bilan belgilangan vakolatlarning doirasida soliq suvereniteti berilgan, hamda o'z vazifalari tufayli soliq to'lovchilarning iqtisodiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lган turli boshqarish darajalaridir. Soliq siyosati sub'ektlarining tarkibi davlat tuzilishining turi (unitar, federativ) va shunga muvofiq boshqarish darajalarining farqlanishi bilan belgilab beriladi.

Muayyan shakllar va usullar tanlovi, davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan belgilab beriladi.



## 1-rasm Davlat soliq siyosatining maqsadlari<sup>2</sup>.

Davlat soliq siyosatining maqsadlari:

1. Fiskal yo'nalishi – yaratiladigan milliy mahsulotning tegishli boshqarish darajalari ularga yuklatiladigan funktsiyalarini bajarishi uchun etarli bo'lgan qismini byudjet tizimiga va byudjetdan tashqari fondlarga qayta taqsimlash.
2. Iqtisodiy yo'nalish – davlatning iqtisodiyotni tartibga solishda samraali ishtirok etishini ta'minlash, iqtisodiy o'sishning sur'atlarini qo'llab-quv-vatlash, ijtimoiy

<sup>1</sup> И.А.Майбуров Налоги и налогообложение.Учебник Юнити-Дана, 2015г.

<sup>2</sup> И.А.Майбуров Налоги и налогообложение.Учебник Юнити-Дана, 2015 г.

qayta ishlab chiqarishning tarkibiy nomutanosibliklarini bartaraf etish, jismoniy kapitalni oshirish uchun investitsiyalar kiritilishini rag'batlantirish.

3. Ijtimoiy yo'naliш – aholining turli guruhlari daromadlarining teng bo'lмаган darajalarini o'заро yaqinlashtirish, kam ta'minlangan aholi tabaqalarining ijtimoiy himoyalanganligini oshirish, inson salohiyatini rivojlantirishga investitsiyalar kiritilishini rag'batlantirish.

4. Ekologik yo'naliш – atrof muhitni muhofaza qilish va oqilona tabiatdan foydalanishni ta'minlash, tabiiy resurslardan foydalanish uchun kompensatsiyalash mexanizmini barpo etish, bo'lg'usi avlodlar uchun tabiat kapitalining saqlanishiga investitsiyalar kiritilishini rag'batlantirish.

5. Xalqaro yo'naliш – ikki marta soliqqa tortish amaliyotini bartaraf etish, soliqqa tortishdan qochish imkoniyatlarini yo'q qilish, bojxona yig'imlarini uyg'unlashtirish, birlashishga intiluvvchi davlatlarning soliq tizimlarini unifikatsiyalash.

Umuman olganda O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish Kontseptsiyasining ishlab chiqilishida xalqaro tajribalarga tayanilgan va xalqaro andozalar inobatga olingan.

## **2. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqishda xalqaro soliq andozalaridan foydalanish**

Soliq siyosatining kontseptsiyasi (doktrinasi) - davlatning soliq tizimi tuzilishi yoki isloh etilishining arxitekturasi yuzasidan tub tamoyil echimidir.

Soliq siyosatining strategiyasi davlatning soliq tizimini ishlab chiqilgan kontseptsiyaning yo'naliшida barpo etish yoki isloh etish bilan bog'liq bo'lган istiqbolli maqsadlarni amalga oshirishga va uzoq muddatli vazifalarni hal etishga yo'naltiriladi. Bunday strategiya uzoq muddatli istiqbol uchun ishlab chiqiladi, va aslida soliq siyosati kontseptsiyasining ro'yobga chiqariladigan ifodasi hisoblanadi. Asoslanganligi va amalga oshirilishini oshirish uchun, ushbu strategiya davlatning tegishli byudjet, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va xalqaro strategiyalari bilan kelishilishi va uyg'unlashtirilishi lozim.

**Soliq siyosatining taktikasi** soliq tizimini boshqarish, uning ayrim elementlarini ishlab chiqilgan kontseptsiyaning yo'naliшida o'zgartirish bilan bog'liq bo'lган joriy maqsadlarni amalga oshirishga va qisqa muddatli vazifalarni hal etishga yo'naltiriladi. Shu munosabatda, soliq siyosatining taktikasi uning strategiyasi bilan uzviy uyg'un bog'langan bo'lishi, va aslida mohiyatiga ko'ra tanlangan kontseptsiyani va tegishli strategiyani amalga oshirish mexanizmi bo'lib xizmat qilishi lozim.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ma'lum bosqichida ustuvor deb tan olinadigan soliq siyosatining maqsadlariga bog'liq holda, ushbu siyosatning u yoki bu shakli foydalaniladi. Jahon amaliyotida soliq siyosatining uchta asosiy modeli tashkil topgan:

1. Maksimal soliqlar siyosati uchun soliqlarning maksimal sonini belgilash va ularning stavkalarini oshirish, imtiyozlarning sonini qisqartirish amaliyoti xos

bo'ladi, bu esa iqtisodiyotga soliq bosimining ortishiga olib keladi. Ushbu siyosat, odatda, ikki holatda qo'llanadi. Birinchidan, u iqtisodiy tanazzullar yoki harbiy harakatlar davrida ommaviy lashadi, bunday vaziyatda davlat byudjetiga moliyaviy resurslarning jalb qilinishini ancha oshirish, ijtimoiy xarajatlarni qisqartirib, davlat xaridlarining hamda iqtisodiyotning harbiy maqsadli ma'lum sohalariga investitsiyalarning hajmini oshirish zarur bo'ladi. Bu holatda fiskal maqsadlari ustuvor hisoblanadi, qolgan maqsadlar esa ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Masalan, rivojlangan Skandinaviya davlatlarida, soliq yuklanishining yuqori darajasi mislsiz miqdordagi ijtimoiy xarajatlar bilan oqlanganda, shunday holat bo'ladi. Bunday siyosatda esa fiskal va ijtimoiy maqsadlar ustuvor bo'ladi;

2. Iqtisodiy rivojlanish siyosati uchun iqtisodiyotga minimal soliq bosimini o'rnatish amaliyoti xos bo'ladi. Byudjetning soliq daromadlari kamayishi bilan birga, davlat investitsiyalarining qisqarishi va ijtimoiy xarajatlarning ancha kamayishi yuz beradi. Ishlab chiqaruvchilarga soliq bosimi og'irligini ancha kamaytirib, investitsion dasturlarning ma'lum hajmini saqlab qolgan holda, ushbu siyosat biznesning iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga yo'naltiriladi, va odatda iqtisodiy pasayish davrida, iqtisodiy tanazzul yuzaga kelishining oldini olish uchun amalga oshiriladi. Soliq siyosatining bunday modeli AQSH da 1980-yillarda R. Reyganning ma'muriyati tomonidan samarali tarzda foydalanilgan, va shuning uchun u «reyganomika» deb nomlangan edi. Ushbu siyosatda iqtisodiy maqsadlar ustuvor deb hisoblanadi;

3. Oqilona soliqlar siyosati ikkita yuqoridagi siyosat shakli o'rtasidagi ma'lum murosa holati bo'lib, unga iqtisodiyotning rivojlanishini bo'g'ib qo'ymaslikka va bunda ijtimoiy xarajatlarning katta hajmini saqlab turishga imkon beruvchi soliq yuklanishining etarlicha mutanosiblashtirilgan darajasi xos bo'ladi. Bunday siyosatning qo'llanishi barqaror iqtisodiy o'sish davri uchun xos bo'ladi. Ushbu siyosat maqsadlarining ustuvorligi fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar o'rtasida taqsimlanadi.

Ko'pincha soliq siyosatining ushbu modellari sof holatida emas, ularning turlicha birikmasida qo'llanishi mumkin, bunda ulardan birortasi boshqalaridan ustuvor bo'ladi.

Ustuvor bo'lib hisoblangan maqsadlariga va tegishli shakliga bog'liq holda, soliq siyosatining u yoki bu usuli, yoki ularning birikmasi qo'llanadi. Zamonaviy jahon amaliyotining butun imkoniyatlari sonidan quyidagi usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbatini tartibga solish;
- federal, mintaqaviy va mahalliy soliqlar nisbatini tartibga solish;
- sohaviy soliq bosimi nisbatini tartibga solish, soliq yukini soliq to'lovchilarning bir xil toifalaridan boshqalariga ko'chirish;
- soliqlarning proportsional va progressiv stavkalirining nisbatini hamda ularning progressiya darajasini tartibga solish;
- soliq imtiyozlari va preferentsiyalari berilishini, soliq chegirmalarini, soliq kamaytirilishi va soliq bazasidan chiqarishlarning ko'larni va yo'nalishini tartibga solish;

➤ soliqlarning tarkibini, soliqqa tortish ob'ektlarini, soliq stavkalarini, soliq bazasini hisoblash usullarini, soliqlarni to'lash tartibi va muddatlarini tartibga solish.

Ushbu qo'yilgan maqsadga ma'lum usullardan muqobil yoki parallel tartibda qo'llash orqali, ularning nisbatini, tarkibini oshirish yoki kamaytirish va hokazolar tomoniga tegishli yo'naliш berilgan holda, erishish mumkin. Masalan, ijtimoiy maqsadlardan biri – aholining turli guruhlari daromadlarining teng bo'limgan darajalarini o'zaro yaqinlashtirish – yoki «yassi shkaladan» voz kechish va daromad solig'inining stavkalari progressiyasini oshirish orqali, yoki kam daromadli aholi uchun mo'ljallangan soliq imtiyozlari, chegirmalari, turli olib qo'yishlar sonini oshirish orqali hal etilishi mumkin.

U yoki bu usulni tanlash yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilish uchun, avvaliga har bir usulni qo'llash samaradorligini baholash, va keyinchalik qiyosiy tahlil asosida ushbu tanlovnini dalillar vositasida amalga oshirish lozim.

Har qanday davlatning soliq tizimini soliq sub'ektlaridan (soliq to'lovchilardan) tegishli organlar undirib oladigan qonunan qabul qilingan soliqlar va yig'imlarning majmui deb qarash mumkin.

Ko'pchilik xorijiy mamlakatlar iqtisodida davlatning etakchilik roli kata ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodini erkin tadbirkorlik bilan davlat tomonidan iqtisodni boshqarilishi "birlashib ketgan" tarzda deb tavsiflash mumkin.

Davlatni asosiy boshqarish kuroli bo'lib soliq va moliya siyosati orkali tadbirkorlikka ta'sir etish tushuniladi.

Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimini ko'p o'xshashlik jixatlari bor, lekin shunga karamasdan ular farq qiladi, ularni kuyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

- ✓ Amerikacha model;
- ✓ Yaponiya modeli;
- ✓ Evropa modeli;
- ✓ Nostandard modellar.

Kuyidagilarni barcha modellarning umumiyligi belgilari sifatida ko'rsatish mumkin:

- rivojlangan qonunchilik bazasi, vujudga keladigan munozara, vazifalar va vaziyatlarni xal etishning xuquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari;

- soliq idoralarining soliq to'lovchilari oldida ishonchga va yuksak obro'ga ega ekanligi, yukori ish xaqi, axborot bazasining yukoriligi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi;

- vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralab ko'yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlashning yo'qligi;

- xukumatning vakili bo'lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektoring) katta ahamiyatga va obro'ga egaligi;

- kadrlarni taxlil etish, o'rganish, oldindan belgilash, o'kitish, soliq to'lovchilar bilan alokalar bo'yicha institutlarning mavjudligi; ayniqsa axborot bilan almashinishi soxasida moliya organlari soliq idoralarning va bank tizimi bilan chambarchas bog'langanligi. Shu bilan birga bu modellarning har birida ularning tafovutlarini belgilab beradigan o'ziga xos belgilari mavjud, bo'lar kuyidagilardan iborat:

Amerika modeli:

- soliq tiziminining soliq to'lovchilar tushunishi uchun murakkabligi.

- soliq tizimida juda katta boshqaruv va ijro apparatining mavjudligi;
- soliq organlari markazlashuvining yo'qligi, federal, shtat va shahar tizimlarini mustaqilligi;
- nakd pul bilan ishlaydigan kichik biznesning daromadlarini nazorat qilishning etarli usullari yo'qligi;
- noqonuniy daromad manbalari to'risida xabar beruvchi ko'ngilli "Axborotchlar" keng tarmoining mavjudligi.

Yaponiya modeli:

Moliya vazirligi nazorat ostida yagona, ancha qat'iy markazlashgan moliyaviy, soliq bank, bojxona tizimlari:

Yuksak vatanparvarlik mamlakatga va kompaniyaga;

Pastdan to yukorigacha bo'lgan boshqaruv apparati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda subordinatsiya printsipiga qat'iy rioxasi qilinishi:

Evropa modeli:

Evropadagi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy birlashishga doimiy intilish:

soliq faoliyatidagi bir xillik: yagona andozalar, yondashuvlar, talkin, deklaratsiyalar, ish printsiplari.

"Noandozaviy" (moslashmagan) modellar, odatda kichik xududli (yoki oralarda joylashgan) davlatlarda, erkin iqtisodiy zonaga ega bo'lgan davlatlarda va kator boshqa davlatlarda (Kipr, Lyuksemburg) amal qiladi. Ular uchun turli soliq deb ataladigan zonalar harakterlidir.

Zamonaviy soliq tizimi soliqqa tortish shakllari va usullarining benixoya noziqligi va qo'llaniladigan soliqlarning o'ta xilma - xilligi bilan tavsiflanadi (ayrim mamlakatlar doirasida ularning 100 ga yaqin ko'rinishlari mavjud). Rivojlangan mamlakatlarning barchasi va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi uchun ushbu tizimning tamoyillari va xususiyatlari umumiyydir, lekin ularning bu tamoyillar va xususiyatlarni soliq siyosatlarida ko'llanishlarida jiddiy farqlar bor.

Davlat byudjeti mablag'lari davlatning jamiyat oldidagi muhim vazifalarini amalga oshirishning moliyaviy manbaidir. Demak, har bir davlat iqtisodiyoti taraqqiy etishida bevosita amalga oshirilayotgan byudjet-soliq siyosati hamda soliq tizimining tuzilishi bilan bog'liqdir. Soliq tizimi ming yillik tarixga egadir. Bu tizimni er yuzida davlatning ilk ko'rinishlari paydo bo'lishi bilan bog'lanadi. Bu jarayon yillar davomida turli davlatda turli ko'rinishlar va turlicha siyosat asosida ijro etib kelinmoqda.

Xalqaro amaliyotda soliq vakolatlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlashning 3 ta asosiy modelidan foydalaniladi. Federativ tizimga hamda munitsipial sub'ektlarga ega mamlakatlar amaliyotida aksariyat hollarda barcha 3 ta modeldan foydalanish kuzatiladi.

Birinchi model – soliqlarni yig'ish bo'yicha vakolatlar chegaralarini o'rnatish va ularni ma'lum xukumat darajasiga biriktirish. O'zbekiston amaliyotida ushbu modeldan foydalaniladi, rasman har bir soliq turi qaysidir byudjet darajasiga biriktirilgan, ya'ni umumdavlat va mahalliy soliqlar. Ta'kidlash joizki deyarli barcha mamlakatlar byudjetlararo munosabatlar amaliyotida hududiy va mahalliy hokimiyat

organlarining mahalliy soliqlarni o'rnatishdagi vakolati cheklanganligi tufayli ushbu modeldan qisman chetga chiqish yuz beradi, ya'ni soliqqa tortishning barcha asosiy elementlari Respublika soliq qonunchiligi asosida aniqlanadi.

Ikkinchi model – soliqqa tortish bazasidan birgalikda foydalanish. Ushbu modelga ko'ra soliq turlari stavkalari ma'lum nisbatlarda byudjetlar o'rtasida taqsimlanishini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun Rossiyada korxona foydasiga soliq stavkasi 20% ni tashkil etadi, uning 2% dagi miqdori Federal Byudjetga tushishi ko'zda tutilgan bo'lsa, qolgan 18% i RF sub'ektlari ixtiyorida qoladi.

Uchinchi model – butun mamlakat hududida yagona stavkada soliqqa tortiladigan aniq soliqlardan kelib tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida me'eriylarini taqsimlash. Bunda soliqlarni byudjetlararo taqsimoti asosida turli xil mezonlar yotishi mumkin: aholi soni, u yoki bu hududning geografik joylashuvi, iqtisodiy ahvoli va h.k. Soliqlarni taqsimlash miqdori va tartibi turli muddatlarga o'rnatilishi mumkin. Umum davlat soliqlarining bir qismi tegishli davlat organi tomonidan o'rnatilgan me'rlar bo'yicha byudjet tizimi bo'g'lnlari o'rtasida taqsimlanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish uchun asosan birinchi modeldan, shu bilan birga ikkinchi modelning ba'zi xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Xususan, ayrim umum davlat soliqlari byudjetlar o'rtasida o'rnatilgan nisbatlarga asosan taqsimlanadi.

### **3. O'zbekistonning jahon integratsiyasiga chuqurlashib borishini ta'minlashda soliq tizimining o'rni**

#### **Qo'shilgan qiymat solig'i**

Amaldagi soliq stavkasi 15 foiz miqdorida saqlab qolinadi.

Tushum hajmidan qat'i nazar quyidagilar hisobiga QQS to'lovchi korxonalar toifasi kengaytiriladi:

- sug'oriladigan erlari 25 gektardan ortiq bo'lgan fermer xo'jaliklari;
- soliq maslahatchilari tashkilotlari va auditorlik tashkilotlari;
- notijorat, shu jumladan byudjet tashkilotlari.

#### **QQS bo'yicha qanday imtiyozlar bekor bo'ladi?**

Soliq kodeksi bilan berilgan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xizmatlari (bundan byudjetdan moliyalashtiriladigan mustasno), shuningdek, sport inshootlari, ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishdan daromadlar qismida hamda qat'iy ko'rsatiladigan bank xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilinmoqda.

#### **Aktsiz solig'i**

Aktsiz solig'i stavkalari 2022 yil 1 iyundan o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda.

(Qat'iy stavkalar har yili indeksatsiya qilinadi (inflyatsiya indeksiga)

### **Aktsiz bo'yicha asosiy o'zgarishlar:**

- Tamaki mahsulotlari importiga aktsiz solig'i stavkasi 2022 yil 1 yanvardan 10 foizga;
- Alkogol mahsulotlari importiga 2022 yil 1 iyundan 10 foizga;
- 2022 yil 1 yanvardan alohida turdag'i tamaki mahsulotlariga (chilim uchun tamaki, chekiladigan, o'rama tamaki, qizdiriladigan tamaki, nikotinli tamakisiz snyus, tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik) importiga aktsiz solig'i stavkasi 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda;
- Respublikada ishlab chiqarilgan va import qilingan benzin uchun yagona soliq stavkasi belgilanmoqda;
- Suyultirilgan gazga aktsiz solig'i stavkasi bekor qilinmoqda (amalda 30 foiz);
- Polietilen granulalariga aktsiz solig'i stavkasi 20 foizdan 10 foizgacha pasaytirilishi belgilanmoqda;
- Polietilen granulalar importida ham aktsiz solig'i joriy qilinmoqda.

### **Foyda solig'i**

Foyda solig'i stavkasini 15 foiz miqdorida va dividendlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha soliq stavkasi 5 foiz miqdorida saqlab qolinmoqda.

### **Foyda solig'ida nimalar o'zgaradi?**

Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasini:

- binolar uchun 3 foizdan 5 foizgacha;
- inshootlar uchun 5 foizdan 10 foizgacha;
- uzatish qurilmalari;
- kuch mashinalari va asbob uskunalari uchun 8 foizdan 15 foizgacha;
- faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va asbob-uskunalar uchun 15 foizdan 20 foizgacha;

- kompyuter, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari uchun 20 foizdan 40 foizgacha oshirilmoqda.

### **Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i**

Ushbu soliq stavkasi 12 foiz miqdorida va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan fuqarolarning ShJBPH (Shaxsning jamg'arib boradigan pensiya hisobi)ga o'tkaziladigan ajratmalarini miqdorining 0,1 foizi miqdorida saqlab qolinmoqda.

### **Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq**

- Er qa'ridan foydalanuvchilarning kapital xarajatlarini hisobga olgan holda yangi konlarda neft, tabiiy gaz, gaz kondensati, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallarni qazib olish (ajratib olish)ni amalga oshiruvchi er qa'ridan foydalanuvchilar uchun renta daromadi solig'i joriy etilmoqda;
- Renta daromad solig'i investitsiya kiritilganda, metallar yoki uglevodorod xomashyosini realizatsiya qilishdan olingan daromad va ularni qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar chegirilgan holda (uch yildan keyin) to'lanadi;
- Yangi neft va gaz quduqlari, sanoat usulida foydalanishga topshirilgan oydan boshlab, dastlabki ikki yil davomida mol-mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadi, keyingi uch yilda ushbu soliq uchun belgilangan soliq stavkasining 50 foiziga kamaytirilgan stavka qo'llanadi;
- Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini neft va tabiiy gaz bo'yicha 10 foizgacha (amalda neft 20 foiz, tabiiy gaz 30 foiz), oltin va mis uchun 7 foizgacha (amalda oltin 10 foiz, mis 10 foiz), volfram kontsentrati uchun 2,7 foizgacha (amalda 10,4 foiz) va uran uchun 8 foizgacha (amalda 10 foiz) kamaytirilmoqda (Bunda, davlat ulushiga ega korxonalar NKMK, OKMK va O'zbekneftgaz uchun amaldagi soliq stavkalari saqlab qolinishi ko'zda tutilmoqda);
- 2022 yil 1 yanvardan boshlab tsement ishlab chiqarishga mo'ljallangan 1 tonna ohaktosh uchun er qa'ridan foydalanganlik uchun 14 soliqning stavkasini ikki baravarga kamaytirgan holda 22 500 so'm/tn (amalda 45 000 so'm/tn) miqdorida belgilanmoqda.

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.** Ushbu soliq (qishloq xo'jaligi erlarini sug'orish uchun belgilangan stavkalardan tashqari) stavkalarini inflyatsiya darajasida 1,1 baravarga iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari (sanoat korxonalari, elektr stantsiyalari va kommunal xo'jaligi bundan mustasno) va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa 1,3 baravarga indeksatsiya qilinmoqda;

- Qishloq xo'jaligi erlarini sug'orish uchun belgilangan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 40 so'm, shu jumladan soliq stavkasiga suv etkazib beruvchilar tomonidan etkazib berilgan suv hajmi xarajatlarini qoplash uchun 1,05 koeffitsient qo'llash tartibi saqlab qolinmoqda;

### **Mol-mulk solig'i**

- Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi amaldagi 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirilmoqda;
- Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan pasaytirilgan soliq stavkasi 0,4 foizdan 0,5 foizga o'zgartirilmoqda;
- Soliq solish maqsadida binolar bo'yicha soliq bazasi quyidagi miqdorlarda 1 kv metr uchun mutlaq qiymatda belgilangan minimal qiymatdan past bo'lishi mumkin emasligi joriy etilmoqda:
  - Toshkent shahrida – ikki million besh yuz ming so'm
  - Nukus shahri va viloyat markazlarida – bir million besh yuz ming so'm;
  - qolgan hududlarda – bir million so'm etib belgilanmoqda.

### **Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i**

Ushbu soliq stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda.

### **Er solig'i**

- Yuridik shaxslardan olinadigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er solig'inining bazaviy stavkalari o'rtacha 1,07 baravarga indeksatsiya qilinmoqda;
- Yuridik shaxslardan olinadigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er solig'i stavkalariga qo'llaniladigan pasaytiruvchi 0,25 koeffitsient 0,3 etib belgilanmoqda;
- Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i stavkalari o'rtacha 1,07 baravarga indeksatsiya qilinmoqda;
- Qishloq xo'jaligi korxonalari er solig'i qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan belgilangan 0,95 foiz soliq stavkasi saqlab qolinmoqda.

### **Ijtimoiy soliq**

Soliq stavkasi byudjet tashkilotlari uchun 25 foiz, boshqa soliq to'lovchilar uchun 12 foiz miqdorida saqlab qolinmoqda.

## Aylanmadan olinadigan soliq

Aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy stavkalari 2021 yil darajasida (4 foiz) saqlab qolinmoqda.

Hisob palatasi 2022 yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi va byudjetnomani [tahlil qildi](#). Soliq tizimida kutilayotgan o‘zgartirishlarni jadvalda ko‘ring:

Nº	Ko‘rsatkich	2022 yil uchun o‘zgartirishlar	Izohlar
	<b>1. QQS</b>		
1.1	Soliq stavkasi	Soliq stavkasi 15% miqdorida <b>saqlab qolinmoqda</b>	
1.2	To‘lovchilar	<b>Quyidagilar hisobiga to‘lovchilar toifasi kengaytiriladi:</b> sug‘oriladigan yerlari 25 gektardan ortiq bo‘lgan fermer xo‘jaliklari; soliq maslahatchilari tashkilotlari va auditorlik tashkilotlari; notijorat, shu jumladan byudjet tashkilotlari	Maqsadi – QQS zanjirining uzluksizligini ta’minlash
1.3	Soliq bo‘yicha imtiyozlar	<b>Quyidagi imtiyozlar bekor qilinmoqda:</b> jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xizmatlari (bundan byudjetdan moliyalashtiriladigan mustasno); qat’iy summada ko‘rsatiladigan bank xizmatlari	Imtiyozlarni bekor qilish bo‘yicha umumiyo‘ yo‘nalishni saqlab qolish
	<b>2. Aksiz solig‘i</b>		
2.1	Soliq stavkalarini indeksatsiya qilish	Soliq stavkalarini 2022 yil 1 iyundan <b>o‘rtacha 10%ga</b> indeksatsiya qilish rejallashtirilmoqda	Qat’iy stavkalar har yili indeksatsiya qilinadi (inflyatsiya indeksiga)
2.2	Soliq stavkalarini pasaytirish va oshirish	<b>Quyidagilar uchun stavkalar pasaytirilmoqda:</b> 2022 yil 1 yanvardan sigaret, sigar importiga 10%ga (shu bilan birga sigaret va sigardan tashqari ayrim boshqa turdag'i	Maqsadi – import qilinadigan va ishlab chiqariladigan mahsulotlarga

		<p>tamaki mahsulotlari importiga stavka 10%ga oshiriladi);</p> <p>alkogol ichimliklari importiga 2022 yil 1 iyundan 10%ga;</p> <p>ishlab chiqariladigan polietilen granulalariga aksiz solig'i stavkasi 20%dan 10%gacha, bir vaqtida polietilen granulalar importida aksiz solig'ini joriy qilish bilan.</p>	<p>soliq stavkalarini yaqinlashtirish.</p> <p>Granulalar bo'yicha – granulalar importi va ularni ishlab chiqarish uchun teng sharoitlar yaratish</p>
2.3	Yagona stavkalarni joriy qilish	Mahalliy ishlab chiqarilgan yoki import qilinganligidan qat'i nazar benzin uchun <b>yagona</b> aksiz solig'i <b>stavkasi</b> joriy etiladi	<p>Maqsadi – import qilingan va mahalliy mahsulotlar uchun teng raqobat sharoitlarini ta'minlash.</p> <p>Hozir Ai-80 rusumli mahalliy benzinga aksiz 1 t uchun 240 ming so'mni, Ai-90 va undan yuqori benzinga - 275 ming so'mni tashkil etadi.</p> <p>Import qilinadigan benzinga 5% stavkada aksiz solig'i solinadi</p>
2.4	Soliqni bekor qilish	<b>Suyultirilgan gazga aksiz solig'i stavkasi bekor qilinmoqda (amalda 30%)</b>	Maqsadi – suyultirilgan gaz narxini pasaytirish
<b>3. Foyda solig'i</b>			
3.1	Soliq stavkalari	<p><b>Saqlab qolinadi:</b></p> <p>soliqning asosiy stavkasi 15% darajada;</p> <p>dividendlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha soliq stavkasi 5%</p>	
3.2	Chegirib tashlanadigan	<b>Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi oshirilmoqda:</b>	Maqsadi – korxonaning asosiy vositalari

	xarajatlar	binolar – 3%dan 5%ga; inshootlar – 5%dan 10%ga; uzatish qurilmalari, kuch mashinalari va asbob uskunalar – 8%dan 15%ga; faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va asbob-uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari) – 15%dan 20%ga; kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalar – 20%dan 40%ga	yangilanishini jadallashtirish
3.3	Investitsiyaviy chegirma	<b>Yangi texnologik uskunalar uchun yo'naltirilgan mablag'lar summasiga investitsiyaviy chegirma mikdori 10%dan 20%gacha va ishlab chikarishni yangi kurilish shaklida kengaytirish uchun - 5%dan 10%gacha oshiriladi</b>	Maqsadi – <b>texnologik uskunalarni yangilash va yangi kurilish kengaytirishni ta'minlash</b>
3.4	Zararlarni kelgusiga o'tkazish	Kelgusiga o'tkaziladigan zararlarning jami summasi joriy solik davri solik bazasining 60%idan oshib ketmasligi bo'yicha <b>talab bekor kilinmokda</b>	Soliq to'lovchi ko'rilgan zararni solik davridan keyin 10 yil mobaynida kelgusiga o'tkazishga haqli
<b>4. JShDS</b>			
4	Soliq stavkalari	JShDSning asosiy stavkasi 12% miqdorida <b>saqlab qolinmoqda</b> , ShJBPHga ajratmalar stavkasi 0,1% miqdorida <b>saqlab qolinmoqda</b>	
<b>5. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar</b>			
5.1	Renta daromad solig'i	Yer qa'ridan foydalanuvchilarning kapital xarajatlarini hisobga olgan holda yangi konlarda neft, tabiiy gaz, gaz kondensati, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallarni qazib olishni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun renta daromadi solig'i joriy etilmoqda.  Soliq investitsiya kiritilganda, metallar yoki	Prezidentning 06.10.2021 yildagi <u>PF-6319-son</u> Farmoniga muvofig joriy etilmoqda

		uglevodorodni sotishdan olingen daromad va ularni qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar chegirilgan holda 3 yildan keyin to‘lanadi	
5.2	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini pasaytirish	<p>Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini <b>pasaytirish</b>:</p> <p style="margin-left: 20px;">neft va tabiiy gaz bo‘yicha 10%gacha (amalda tegishinchha 20% va 30%);</p> <p style="margin-left: 20px;">oltin va mis bo‘yicha –7%gacha (10%);</p> <p style="margin-left: 20px;">volfram bo‘yicha – 2,7%gacha (10,4%);</p> <p style="margin-left: 20px;">uran bo‘yicha –8%gacha (10%).</p> <p>Sement ishlab chiqarish uchun 1 tonna ohaktosh uchun soliq stavkasi 1 tonna uchun 45 ming so‘mdan 22 ming so‘mgacha pasaytirilmoqda</p>	Uglevodorodlar, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallar qazib oladigan davlat ulushiga ega korxonalar (NKMK, OKMK va O‘zbekneftgaz) uchun amaldagi soliq stavkalari saqlab qolinadi
	<b>6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq</b>		
6	Soliq stavkalar	<p>Soliq stavkalar quiyidagi darajada indeksatsiya qilindi:</p> <p style="margin-left: 20px;">iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari uchun (sanoat korxonalari, elektr stansiyalari va UJKX bundan mustasno) 10%ga;</p> <p style="margin-left: 20px;">yakka tartibdagi tadbirdorlar uchun 30%ga.</p> <p>Soliq stavkasi saqlab qolinadi:</p> <p style="margin-left: 20px;">qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish uchun foydalilanligan suv hajmi qismida 1 kub. m uchun 40 so‘m miqdorida;</p> <p style="margin-left: 20px;">qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish uchun 1 kub. m uchun 40 so‘m miqdorida</p>	Qat’iy stavkalar har yili indeksatsiya qilinadi (inflyatsiya indeksiga)
	<b>7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq</b>		
7.1	Soliq stavkalar	Soliqning asosiy stavkasi 2%dan 1,5% ga <b>kamaytirilmoqda</b> . Ayrim tarmoqlar mol-mulki uchun pasaytirilgan stavka 0,4%dan 0,5% ga oshirilmoqda	

7.2	Soliq bazasi	<b>Binolar bo'yicha soliq bazasi quyidagi miqdorlarda 1 kv.metr uchun mutlaq qiymatda belgilangan minimal qiymatdan past bo'lishi mumkin emasligi talabi joriy etilmoqda:</b> Toshkentda – 2,5 mln so'm; Nukus va viloyatlar markazlarida – 1,5 mln so'm; boshqa hududlarda – 1 mln so'm.	Maqsadi – soliq bazasini kamaytirish va yashirishni istisno qilish
7.3	Soliq bo'yicha imtiyozlar	Yangi neft va gaz quduqlarini, foydalanishga topshirilgan oydan boshlab, dastlabki 2 yil davomida soliq to'lashdan <b>ozod qilish</b> rejalashtirilmoqda. Keyingi 3 yilda soliq stavkasining 50%iga kamaytirilgan stavka qo'llanadi	Prezidentning 06.10.2021 yildagi <a href="#">PF-6319-son</a> Farmoniga muvofiq joriy etilmoqda
<b>8. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i</b>			
8	Soliq stavkalari	Soliq stavkalari 10%ga indeksatsiya qilindi	Qat'iy stavkalar har yili indeksatsiya qilinadi (inflyatsiya indeksiga)
<b>9. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i</b>			
9	Soliq stavkalari	Soliq stavkalari:  <b>qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer bo'yicha o'rtacha 7%ga indeksatsiya qilinadi;</b> <b>qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha normativ qiymatiga nisbatan belgilangan 0,95% miqdorida saqlab qolmoqda</b>	Qat'iy stavkalar har yili indeksatsiya qilinadi (inflyatsiya indeksiga)
<b>10. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i</b>			
10	Soliq stavkalari	Soliq stavkalari o'rtacha 7%ga <b>indeksatsiya qilindi</b>	Stavkalar har yili indeksatsiya qilinadi (inflyatsiya indeksiga)
<b>11. Ijtimoiy soliq</b>			

11	Soliq stavkalari	Soliq stavkalari:  byudjet tashkilotlari uchun 25% darajasida;; boshqa soliq to'lovchilar uchun 12% darajasida saqlab qolinmoqda	
	<b>12. Aylanmadan olinadigan soliq</b>		
12	Soliq stavkalari	Soliqning stavkalari <b>saqlab qolinmoqda</b> (asosiy stavka 4%)	
	<b>13. Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im</b>		
13	Yig'imni bekor qilish	Yig'imni <b>bekor qilish</b> rejlashtirilmoqda	Hozir yengil avtomobillar uchun yig'imlar yangi avtomobillar bo'yicha - sotib olish narxining 3%ini, foydalanishda bo'lgan avtomobillar bo'yicha - ekspluatatsiya muddatidan kelib chiqib har bir ot kuchiga BHM foizi hisobida <u>tashkil etadi</u>

### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Majburiy ajratmalar, yalpi tushum, er solig'i, mol-mulk solig'i, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, Ikkinci model, Uchinchi model, Birinchi model, Chakana, ulgurji, Yagona er solig'i,*

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar::**

1. Soliq siyosati strategiyasi va taktikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Jahon amaliyotidagi soliq undirish usullarani sanab chiqing. Ular nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
3. Davlat soliq siyosatining maqsadlarini tushuntirib bering?
4. Yaponiya modelining xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Evropa modelining xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Amerika modelining xususiyatlari nimalardan iborat?

7. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan soliq modellari va ularning ahamiyati.
8. Jahon amaliyotida keng qo'llanilgan soliq instrumentlarini sanab bering.
9. O'zbekistonning jahon integratsiyasiga chuqurlashib borishini ta'minlashda amalga oshirilayotgan islohotlar.
10. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati kontseptsiyasining mazmun-mohiyati va xalqaro andozalarga mosligi.

### **3-mavzu. AQSH va Kanada davlati soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili (2 soat)**

#### **REJA:**

1. AQSH va Kanada davlatida soliq munosabatlari borasida integratsiyaning vujudga kelishi
2. AQSH va Kanada davlatida soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari
3. Kanada davlati soliq tizimidagi soliq ma'murchiligining tashkil etilishi
4. Kanada davlati soliq tizimida soliq stavkalarining belgilanishi
5. Kanada davlatida soliq tizimining ilg'or tajribalarini O'zbekiston soliq tizimida foydalanish masalalari

AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishining uziga xos xususiyati tug'ri soliqqa tortishning barcha turlarining qullanilishi bilan aniqlanadi. AKSh soliqqa tortish tizimida soliklarning asosiy turlari xokimlik vakolatlarining barcha pogonalari buyicha bir xilda kullaniladi, yani axoli 3 ta daromad soligi, korporatsiyalar 3 ta foya soligi, 2 ta mol-mulkdan olinadigan soliq va xokazo tartibda soliq tulaydilar.

**AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishi**

<b>№</b>	<b>Federal soliqlar</b>	<b>Shtatlar solig'i</b>	<b>Maxalliy soliqlar</b>
1	Daromad solig'i	Daromad solig'i	Daromad solig'i
2	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq
3	Ijtimoiy sug'urta solig'i		
4	Aktsizlar	Aktsizlar	Aktsizlar
5	Bojxona boji		
6	Meros va xadya solig'i	Meros va xadya solig'i	Meros va xadya solig'i
7		Sotuvdan olinadigan soliq	Sotuvdan olinadigan soliq
8		Mol-mulk solig'i	Mol-mulk solig'i
9		Avtotransport egalaridan olinadigan soliq	
10			Ekologiya solig'i

Federal byudjet daromadlarining asosiy qismini axolidan olinadigan daromad solig'i tashkil kiladi. Uning subekti bulib jismoniy shaxslar, yuridik shaxs statusiga ega bulmagan yakka tartibdagi korxonalar va sheriklikka asoslangan korxonalar xisoblanadilar.

Shartli ravishda daromadlar xisobi uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Ish xaqi, pensiyalar, alimentlar, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar, mukofotlar, rentalar va royligi, fermer daromadi, ijtimoiy nafaqalar va ishsizlarga tulanadigan nafaqalar, stipendiyalar, kuchmas mulk daromadlari kabilar yalpi daromadni tashkil etadi.

2. Yalpi daromad ruxsat etilgan xarajatlar va imtiyozlar olib tashlanishi xisobidan qayta kurib chiqiladi. Bularga : savdo yoki ishlab chikarish xarajatlar, sotuvdan yoki qimmatli qog'ozlar almashuvi jarayonlaridan kuriqan zararlar, shaxslarning nafaqa badallari, tulangan alimentlar, avans soliq tulovlari va boshqalar kiradi.

3. Qayta kurib chiqilgan yalpi daromad summasidan tasnif qilingan, yoki qat'iy chegirmalar chiqarib tashlanadi. qolgan summa soliqqa tortiladigan daromad xisoblanadi. Asosiy chegirmalarga quyidagilar kiradi: xar bir qaramokda bulgan odam uchun tulovchiga soliqqa tortilmaydigan minimum, qat'iy chegirmalar, 65 yoshdan katta yoshli shaxslar va nogironlar uchun qushimcha chegirmalar, malakasini oshirish bilan bog'liq yangi yashash joyiga kuchgandagi xarajatlar, xayriya badallari va boshqalar. Kursatilgan chegirmalar qayta kurib chiqilgan yalpi

daromadning 50 foizdan kup bulmagan xajmida amalga oshirilishi mumkin, qolgan 50 foiz esa daromadlardan 5 yil davomida olib tashlanadi.

## **2. AQSH va Kanada davlatida soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari**

AQSH Prezidenti B. Clinton rejasiga asosan kiritilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

### **AQSHda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning tulovchilari.**

<b>Soliqqa tortiladigan daromad (ming \$)</b>	<b>Soliq summasi (ming \$)</b>
<b>1. Yakka soliq tulovchilar</b>	
0-22,1	Daromadning 15%
22,1-53,5	3,315q28%>22,1
53,5-115	12,107q31%>53,5
115-250	31,172q36%>115
250 dan ortiq	79,772q39,6%>25
<b>2.qushma deklaratsiyani tuldiradigan oilaviy soliq tulovchilar</b>	
0-36,9	Daromadning 15%
36,9-89,15	5,535q28%>36,9
89,15-140	20,16q31%>89,15
140-250	5,9q36%>140
250 dan ortiq	75,5q39,6%>250
<b>3.Oila boshliqlari</b>	
0-29,6	Daromadning 15%
29,6-76,4	4,44q28%>29,6
76,4-127,5	17,544q31%>76,4
127,5-250	33,385q36%>127,5
250 dan ortiq	77,485q39,6%>25

Daromadni soliqqa tortish tizimidagi yana bir muxim bosqich – 1980-1990 yillardagi soliq isloxtlari natijasida korporatsiya foydasidan olinadigan soliqni kiritilishi buldi. AqShda korporatsiyalarning soliqqa tortishning asosiy tamoyili bulib, soliqqa tortishning yakuniy obekti bulgan sof foydadan soliq olish xisoblanadi. Ushbu soliqni tulovchilari eng avvalo aktsioner kompaniyalardir. Soliqning taxminan 85 foizi federal darajada, 15 foizi esa shtatlar va maxalliy xukumat organlari darajasida undiriladi. Soliqqa tortish obektlari bir nechta bosqichlarda aniqlanadi:

1. Yalpi sotuvdan va boshqa barcha (sotuvdan tashqari) daromadlar va xarajatlardan tashkil topgan yalpi daromad aniqlanadi.

2. Yalpi daromaddan ishchilarning ish xaqlari, remont xarajatlari, tulash imkonи bulmagan qarzlar, renta tulovlari, tulangan maxalliy shtatli soliqlar, amortizatsiya, kredit foizlari, reklama xarajatlari, nafaqa fondi badallari, tabiiy ofatlardan kuriлgan zararlari, xayriya badallari, kapital ta'mirlash xarajatlari va boshqalar chiqarib tashlanadi. Soliq qonunchiliga korporatsion soliqni aniqlashda ishlab chiqarish xarajatlariga kiritish mumkin bulgan barcha xarajatlar puxta kurib chiqiladi. Ushbu qonunlar asosida yaratilgan xalqaro standartlar liberal xususiyatga egadir. qoidaga kura kompaniyaning kundalik ishlab chiqarish – tijorat faoliyati bilan bog'liq bulgan barcha xarajatlarni inobatga olishga ruxsat beriladi. Cheklashlar uncha katta emas, asosan «xaddan tashqari» vakolatli xarajatlarni chiqimga kiritish man etiladi.

3. Yalpi daromaddan chiqimlar, qushimcha xarajatlar, tulangan soliqlar olib tashlangach, undan soliqqa tortiladigan foyda miqdorini bevosita kamaytirishga yunaltirilgan imtiyozlar xam chegiriladi.

Yakuniy bosqich foydadan dividentlarni tulashga sarflanadigan qismi bilan bog'liq. Soliq imtiyozlariga kuproq fermerlar egadirlar. Ular tufayli bir qator xollarda (asosan qurg'oqchilik yillarida) ayrim kompaniyalar soliq manbasini yuqqa chiqaradilar. «Fermer» imtiyozlaridan sung kichik innovatsion biznesga sarmoyalarni kiritadigan yakka tartibdagi sarmoyachilarni imtiyozli soliqqa tortish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Davlatning ularni qullab quvvatlashdagi manfaatdorligi aniq, chunki daromad solig'i stavkalari 28, 31, 36 va 39,6 foiz bulgan shaxslar uchun kapital usishning xaqiqiy soliqqa tortiladigan stavkasi 14 foiz darajasida buladi. Odattagi stavkasi 15 foiz ga teng bulgan investorlar uchun esa xaqiqatda stavka faqatgina 7,5 foizdan iborat buladi. Korporatsiyaning asosiy soliq stavkasi 34 foiz mikdorida va ular quyidagi kurinish buyicha soliq tulaydi: korporatsiya birinchi soliqqa tortiladigan daromadning 50 ming dollar uchun 15 foiz tulaydi, keyingi 25 ming dollari uchun-25 foiz, 75 ming dollardan yuqori uchun esa 34 foiz tulaydi. Bundan tashqari, 100 ming dollardan 35 ming dollargacha oraliqdagi daromadlarga 5 foiz miqdorida qushimcha yig'im urnatilgan. Bunday pog'onali soliqqa tortish urta va kichik korxonalar uchun juda muxim axamiyatga ega. Ijtimoiy sug'urta badallari tushumini taminlovchi daromadlar esa usish tendentsiyasiga ega. Yollanma ishchilar va ish bilan taminlovchilar uchun aralash stavka 15,3 25 foizni tashkil qiladi. Jismoniy shaxslar meros va xadyadan 18dan 55 foizgacha (agar mulk qiymati 600 ming dollardan oshsa) stavkada soliq tulaydilar. Jami federal soliqlar tushumi xajmida ularni ulushi 1-2 foizni tashkil qiladi va maxalliy darajada ushbu soliq axamiyatining oshishi xisobidan pasayish tendentsiyasiga ega.

Shtatlar solig'i va maxalliy soliqlar, daromad solig'i va uning stavkalari, korporatsiya foyda solig'i tug'risida tushuncha.

AQSHning 50 shtatidagi soliq daromadlari tuzilmasi federaldan jiddiy farq qiladi. Tulig'icha xususiy tushumlar umumiy daromadlarning taxminan 80 foizni tashqil qiladi, qolgan 20 foizi esa – federal subsidiyalardir. Umumiy xajmda sotuvdan olinadigan soliq tushumlari ulushi 30-40 foizga etadi. Uning soliqqa tortish obekti bulib, tovar va xizmatlarning qiymati xisoblanadi. Soliq stavkalari shtatlar tomonidan belgilanadi va 4-8 foiz oraliqda buladi. Axolidan olinadigan daromad solig'i 44

shtatda olinadi, qolganlarida u maxalliy uz-uzini boshqarish tashkilotlariga utadi. Soliq stavkasi 2-10 foizgacha oraliqda buladi; ushbu soliqning soliqqa tortish obektlari farqlanadi. Ammo foydalanishning bir xil va qulay bulishi uchun kupchilik shtatlar uz stavkalarini manbai sifatida, federal soliqning malum foizini asos qilib oladilar. Bunda shtatlarda soliq deklaratsiyasining uz shakli bulib, ularda tulangan soliq summasi subektlarning federal soliq buyicha soliqqa tortish majburiyatlari aniqlanganda chegirib tashlanadi.

Foyda solig'i xam barcha shtatlarda undiriladi va faqat xazinani tuldirish maksadida emas, balki iktisodiy sharoitga tasir qilish usuli sifatida xam qullaniladi. qariyb barcha shtatlarda jismoniy shaxslar qatorida yuridik shaxslardan xam mol-mulk solig'i undiriladi. Soliq stavkalari farqlanadi va 0,5 dan 5 foizgacha oraliqda buladi. Bundan tashqari, shtatlar tomonidan meros solig'i, turli xil aktsizlar, kapital solig'i va maxsus ruxsatnomalar olish uchun undiriladigan yig'implar olinadi, ish beruvchilar esa ishsizlik buyicha nafaqa tulovlar uchun majburiy ajratmalarni amalga oshiradilar. Shtatlar qatorida AqSh ma'muriy tuzilmalar sifatida maxalliy xukumat qaramog'i ostida bulgan qariyb 85000 tumanni uz ichiga oladi. qariyb barcha shtatlar grafliklarga bulingan va ularda taxminan 20 ming munitsipalitetlar mavjud. Grafilklar, munitsipalitetlar, taunshiplar (xususiy xududiy tuzilmalar) uz boshkaruv bulinmalariga ega va uz xizmatlarini tegishli xududlarda olib boradilar. Xar bir uz-uzini boshqarish bulinmasi uz byudjetini tuzishi, yangi soliqlar joriy qilishi va undagi tushumlarni taminlash uchun turli faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin. Maxalliy uz-uzini boshqarish bulinmasi uz ixtiyorida shtatlar soliqlari bilan kup tomonidan uxshash bulgan, uncha kup bulmagan soliq manbalariga ega. Maxalliy soliqlar ichida mol-mulkdan olinadigan soliq muxim axamiyat kasb etadi. Bu soliq mulk egasi bulgan jismoniy va yuridik shaxslardan yiliga bir marta olinadi. Ushbu soliqni aniqlash manbasi bulib, mulkning narx qiymati xisoblanadi. qariyb shtatlarning yarmida sotuvdan olinadigan maxalliy soliq undiriladi. Bu nomdosh shtat solig'iga qushimcha bulib xisoblanadi. Bu soliq daromadlari shtatda yig'iladi, sung qaysi xududda yig'ilgan bulsa, shu maxalliy uz-uzini boshqarish bulinmasiga qaytariladi

### **3. Kanada davlati soliq tizimidagi soliq ma'murchiligining tashkil etilishi**

Kanada daromad solig'i bo'yicha birinchi harbiy qonun 1917 yili kiritilgan edi. Bu soliqni vaqtincha amalda bo'ladigan tadbir deb hisoblab, uning mablag'ini birinchi jahon urushida qatnashganligi uchun harbiy harajatlarni qoplashga yo'naltirilgan. Bu qonun juda ham kichik hajmda bo'lib o'n betlik qog'ozga joylashgan edi. 1948 yili Kanadada daromad solig'i to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. 1962 yili daromad solig'i sohasida yirik islohotlar o'tkazildi. 1971 yili daromad solig'i to'g'risidagi qonunga keng miqyosda o'zgartishlar kiritildi. 1981 yilgi davlat byudjeti to'g'risidagi hujjatda davlat dasturi berilgan va unda soliq solish sohasida yirik islohot o'tkazish ko'rsatilgan edi. 1988 yili parlament tomonidan islohotning birinchi bosqichi ko'rib chiqildi va unda daromad soliqlariga tegishli masalalar muhokama qilindi. Bu islohot o'zining asosiy belgilari bo'yicha asosan AQSHning 1986 yilgi soliq islohotini qaytardi. Islohot davrida soliqning asosiy

bazasi kengaytirildi, soliq stavkasi pasaytirildi va iqtisodning har xil tarmoqlari bo'yicha soliq yuki tartibga solindi.

Kanada hukumati tomonidan soliq tizimi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Davlat byudjetiga moliyaviy resurslarni tushishini ta'minlash;
- ijtimoiy sohani moliyalashtirish;
- daromadlarni qayta taqsimlashni amalga oshirish;
- aholining nochor qismi daromadini o'sishiga ko'maklashish;
- mamlakatda iqtisodiy kon'yukturani barqarorlashtirish;
- iqtisodiy o'sishni yuqori darajasini ta'minlash.

Kanada hukumatining talabiga binoan soliq tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak: birinchidan, soliq tizimi gorizontal bo'yicha tenglikni ta'minlab berishi kerak. Bir xil daromadlar, ularning olinadigan manbaidan qat'iy nazar bir xil stavkada soliqqa tortilishi kerak. Bundan tashqari soliq tizimi vertikal tenglikni ham ta'minlashi kerak. Yuqori daromadlar soliqqa progressiv stavkalar asosida tortilishi ta'kidlandi. Soliq tizimi jamiyatni ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchasiga javob berishi va daromadlarni qayta taqsimlashda hamadolatli bo'lishi kerak. Bundan tashqari soliq tizimi etarli darajada egiluvchan bo'lishi zarur. Soliq tizimi hukumatga iqtisodiy kon'yukturani o'zgarishiga e'tiborini qaratishga imkoniyat tug'dirib berishi kerak va kerak bo'lsa, unga ta'sir ko'rsatishi zarur. Yana soliq tizimi ma'lum darajada oddiy va samarali bo'lmos'h'i kerak. Bu esa o'z navbatida soliq to'lovchi uchun deklaratsiyani to'ldirish ishini va to'lanadigan soliq hisob-kitobini engillashtirishi kerak. Yana hukumat organlarini nazorat qilish vazifalarini osonlashtirishi zarur.

Soliq tizimi barqarorlik va oldindan bashorat qilish imkonini berishi talab qilinadi. Soliq to'lovchilardan qaysi daromadlari soliqqa tortilishi, kimlar uni to'lashi, to'lov muhlatlari kabi ma'lumotlardan ularni to'liq xabardor qilish va boshqa masalalarni echish zarurdir. Erkin iqtisod tizimiga ega bo'lgan Kanada soliq tizimi ayniqsa savdo sheri AQSHe ga nisbatan raqobatdosh bo'lishi, Kanadaga chet el kapitalini oqib kelishiga imkoniyat yaratishi zarur. Bu hamma maqsadlar va talablar ob'ektiv qarama -qarshi xususiyatlarga ega. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun Kanada hukumati vaqt-vaqt bilan soliq tizimiga o'zgartirishlar kiritib turadi.

Kanada uch pog'onalik, markazlashtirilmagan soliq tizimiga ega. Kanadaning federal hukumati, mahalliy provantsiya (poytaxtdan uzoqdagi joy) va munitsipalitetlarning soliq tizimi mavjud. Shuning uchun har bir soliq to'lovchi federal, provintsial va munitsipial soliq to'laydi. Uch darajadagi soliq tizimida o'zining aniq daromadlari belgilangan. Federal darajada 50% daromadlar, provantsiyalarda 40% va mahalliy byudjetlarda 10% daromadlar to'planadi.

Kanada soliqlarini quyidagi tashkilotlar boshqaradi: Moliya Federal departamenti (vazirlilik) obshina (jamoa) palatasiga byudjet loyihasini topshirib, keyin o'z nuqtai-nazarini vazirning ma'rzasida ifodalab qonunshunoslik faoliyatiga hissa qo'shami.

- Moliya federal departamenti soliq siyosati bo'limi federal soliqlarni kiritishda qonunchilik huquqlarini ishlab beradi va ularni samaradorligini aniqlaydi.
- Tarif va daromadlar bo'yicha federal agentligi soliqlarni yig'ish bilan

shug'ullanadi. Kanadada soliq to'lashda shaxsiy javobgarlik printsipi qo'llanganligi uchun agentlik Soliq to'lovchiga soliq to'lash haqida xabar beradi, deklaratsiyani to'lg'azish bo'yicha yordam beradi. Soliq to'lovchilarni o'zлari byudjetga to'lovni o'tqazadilar. Agar agentlik noto'g'ri ma'lumotlarni topsa soliq to'lovchini adliyaga topshiradi. Federal agentlik daromad solig'i korxonani foydasiga solinadigan soliq federal sotishga solinadigan soliq (Kvebek provantsiyasidagi yig'ilmardan tashqari), pensiyaga ajratma, bandlikka ajratma, aktsiz va bojxona to'lovlari bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari agentlik har xil ijtimoiy nafaqalarni to'laydi. Provantsiyalar bilan kelishilgan holda mahalliy soliqlarni yig'ish uchun javob beradi.

Provantsiyalarni moliya vazirligi quyidagi mahalliy soliqlarni yig'adi: korxonani foydasiga solinadigan soliq, sotishdan olinadigan soliq, aktsizlar (benzin, yoqilg'i, tamaki va spirtli ichimlik mahsulotlari), er solig'i va er osti boyliklaridan olinadigan soliqlar. Bundan tashqari provintsial agentlik ijtimoiy nafaqani tarqatish uchun ham javob beradi.

Soliq solish bo'yicha hamma kelishmovchiliklar soliq adliyasi tomonidan echiladi. Kanadaning konstitutsiyasida uch bosqichni har biri uchun davlat boshqaruv organi undirib oladigan soliqlarni turlari belgilangan. Ushbu hujjatda boshqaruv organlarini har bir bosqichi javob beradigan savollar tarkibi ham berilgan. Kanadani federal hukumati, provantsiya va munitsipialitetlarni hukumati konstitutsiyada belgilangan majburiyatlar va o'zlarining huquqlari chegarasida, bir-biriga bog'liq bo'lмаган holda byudjetini rejalashtiradi va soliq solinadigan daromadlar, tovarlar, soliq stavkalari, o'zlarining soliq imtiyozlari sistemasi bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ijro etuvchi tashkilotlar bu savollar bo'yicha o'zini taklifini tayyorlaydi va mamlakatni parlamentiga (federal hukumat) yoki qonun chiqaruvchi organlarga (davlatni pastki boshqarish organlari) topshiradilar. Muhokama qilingandan keyin qonun chiqaruvchi organlar soliqlar to'g'risida qonun qabul qiladilar. Ushbu me'yoriy aktlar mufassal, keng yoritilgan, batafsil qismlarga ajratilgan hujjat bo'lib, bajaruvchi organlarga amaliy faoliyatlarida o'z tushunchalari bo'yicha tariflashga imkon bermaydi. Har bir davlat hokimiyati organi soliq vakolatidan o'ziga qarashli hududda foydalanadi. Agar firma bir necha provantsiyalarda ish olib borsa, har bir provantsiyani hukumati umumiy daromadni (foyda) shu hududda olingan qisminigina soliqqa tortadi. Davlat hokimiyat organlarini etarli darajada mustaqil bo'lishlariga qaramay federal hukumat, provantsiya va munitsipialitetlarni soliq tizimi o'zaro bog'lik, bir-biriga qaram xususiyatlarga ega. Bu esa Kanada soliq tizimi kompleks va birlik xususiyatiga ega ekanligini ifodalaydi. O'zaro bog'liq va birlik shundan iboratki, birinchi navbatda katta hajmdagi byudjet mablag'i dotatsiya sifatida yuqori byudjetdan pastki byudjetlarga yo'naltiriladi. Bu mablag'ni bir qismi tenglashtirish tizimi bo'yicha beriladi. Federal hukumat iqtisodiy orqada qolgan provantsiyalarga dotatsiya berishdan asosiy maqsad aholi uchun sog'liqni saqlash, talim berish, san'at bo'yicha normal darajada sharoit yaratishdan iborat. To'lovlarni birgalikda amalgalashirilganida federal-provintsial, provintsial-munitsipialitet hukumatlari iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy sohalar dasturi bo'yicha mablag'larni o'zlashtirishadi. Ikkinchidan, federal hukumat bilan ko'pchilik provintsial organlar ictiyoriy bitimlar tuzadilar va bu hujjat asosida federal hukumat provintsial daromad soliqlarini yig'ish

va ularni to'g'ri to'lanishi ustidan nazorat qilishni texnik tomonini o'z zimmasiga oladi. Ushbu bitim federal va munitsipial soliq solinadigan daromadni hisoblash uslubini bir xil qiladi. Uchinchidan, provantsiyalar o'rtasida kapital qo'yilmani hududga keltirish, yuqori malakali kadrlarni jalg qilish bo'yicha o'zaro konkurentsiya (raqobatlik), soliqlarni juda ham ko'tarilib ketishiga yo'l qo'ymaydi va bu orqali Kanadada hududlar bo'yicha soliqlarni tenglashtirish amalga oshiriladi. Soliqlarni turlari bo'yicha ko'rib chiqilganda, shunga e'tiborni qaratish zarurki, daromad soliqlari federal hukumati va provantsiya hukumatlari tomonidan olinadi. Daromad soliqlari tarkibida aholi daromadidan olinadigan soliqlar mavjud. Daromad soliqlari Kanadada davlat daromadini asosiy bandi hisoblanadi. Mol-mulk solig'i Kanadani munitsipialitetlari tomonidan yig'iladi. Munitsipialitetlar er mulkini berishga solinadigan soliqni ham undiradilar. Soliq sotib olish vaqtida amalga oshiriladi. Soliq o'tkazib beriladigan mulkn 0,5% dan 1% gacha qiymatini tashkil qiladi, Har bir munitsipialitet o'zining soliq olish tartibiga ega. Sotishga solinadigan soliqqa kelsak, uni Kanadaning federal hukumati, ayrim provantsiyalar hukumati ham oladi. Sotishga solinadigan soliq federal hukumat tomonidan firma-ishlab chiqaruvchi darajasida Kanadada etishtiriladigan hamma tovarlardan olinadi. Hozirgi harakatdagi soliq stavkasi 12% ni tashkil qiladi. Federal darajada aktsiz solig'i ham mavjud bo'lib, har-xil stavkalar bilan bu soliq ayrim bezak buyumlariga nisbatan qo'llanadi. Sotishga solinadigan provintsial solig'i Kanadani Albertidan tashqari hamma provantsiyalarida qo'llanadi. Bu soliq chakana savdo tizimida olinadi. Stavkasi provantsiyalar bo'yicha har-xil hajmda belgilangan. Bu soliqqa, qoida bo'yicha oziq-ovqat, bolalar kiyimi, kitob va dori-darmonlar tortilmaydi. Bundan tashqari, Kanadada benzinni sotish uchun maxsus soliq qo'llanadi va bu soliq federal hukumat miqyosida va provantsiyalarini hukumati tomonidan olinadi (Alberti va Saskachevan bundan mustasno). Bu soliqni fermerlar, baliqchilar, qazib oladigan, qayta ishlaydigan va o'rmonchilik sanoati korxonalari to'lamaydilar.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urtaga yig'imni federal hukumat va provantsiyalarini hukumatlari oladi. Bu soliqlar aholi va korporatsiyalar uchun to'g'ri soliq hisoblanadi. Yig'imni stavkasi va summasi Kanadaning hududlari bo'yicha tabaqalashgan. Masalan, bu soliqni Ontarioda oila bir yilga 714 dollar to'laydi. Daromad solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar moliya organlariga har yili deklaratsiya topshiradilar. Deklaratsiyada daromadlarini hajmi va o'zлari hisoblagan soliq hajmi ko'rsatiladi. Aholidan soliqlar asosan ish joyidan olinadigan ish haqidan hisoblanadi. Kanadada yangi qonunga binoan federal darajada daromad solig'ini eski 10ta stavkasi o'miga 3ta stavka va har bir hududda o'zining mahalliy qo'llanadigan stavkalari bo'ladi.

3-jadval

### **Kanada korporatsiyalarini daromad (foyda)siga solinadigan soliqni stavkalari (% hisobida)**

Provantsiya, hududlar	Asosiy stavka		Federal-provintsial stavka	
	Daromad solig'i	Foydaga solinadigan soliq	Daromad solig'i	Foydaga solinadigan soliq

Nyufaundlend	21,0	14,0	52,3	43,12
Yangi Shotlandiya	19,0	16,0	50,3	45,12
Prints Eduard Oroli	19,0	15,0	50,3	44,12
Nyu-Bransunk	20,1	17,0	51,4	46,12
Kvebek	21,6	8,9-16,2	52,0	38,0-45,0
Ontario	21,6	15,5	52,9	44,6
Manitoba	19,1	17,0	50,4	46,1
Saskachevan	20,6	17,0	51,9	46,1
Alberta	14,8	15,5	46,1	44,6
Britaniya Kolumbiyasi	22,9	16,5	54,2	45,6
Yukon	15,3	15,0	46,6	44,1
Shimoliy-g'arbiy xududlar	13,0	14,0	44,4	43,1

Jadvalda Kanadada qo'llaniladigan korporatsiyalar daromad (foydası) dan olinadigan stavkaning eng yuqori chegarasi federal-provintsial stavkalarga tegishlidir. Daromad solig'ini 44,4% ni tashkil etgan eng quyi va 54,2% ni tashkil etgan eng yuqori chegarasi stavkalar asosidan undiriladigan soliqlarni federal-provintsial byudjet daromadlarini katta qismini ta'minlab berishni ko'rsatadi. Yana stavkalarning har-xil kattalikda o'rnatilishi haqida, provantsiya, xududlarda ishlab chiqarish korxonalari korporatsiyalar faoliyat yuritishi va daromad olishi shu joylardagi geografik, ijtimoiy tabiiy va inson omillari (malakali mutaxassislarning mavjudligi) ga bog'liqdir.

#### **4. Kanada davlati soliqtizimida soliq stavkalarining belgilanishi**

Federal byudjetni muhim daromad manbai, huquqiy shaxslarni daromadiga solinadigan soliqlar hisoblanadi. Uning tarkibiga korporatsiyalarni foydasiga solinadigan soliq va yirik korporatsiyalarni kapitaliga solinadigan soliqlar kiradi. Birinchi marta soliq Kvebek provantsiyasida 1875 yili sug'urta kompaniyalarini mukofotiga qo'llash uchun kiritilgan edi. 1882 yili bu soliq temir yo'l, banklar va aloqa tizimlarida qo'llandi. 1912 yilga kelib bu soliq hamma provantsiyalarda ishlatiladigan bo'ldi. Foydaga solinadigan soliq texnik nuqtai-nazaridan daromad solig'iga yaqin bo'lganligi uchun uning rivojlanishi ham o'xshash shaklda bordi, ya'ni soliq stavkasi oshib bordi va provantsiyalar bu soliq «zapaslaridan» siqib chiqarila boshlandi.

Daromad (foyda)ga solinadigan soliqni federal byudjetni va provintsial byudjetlarni umumiy daromadidagi salmog'i nisbatan yuqori emas, federal byudjetda 10% va provintsial byudjetlarda 4% tashkil qiladi.

Daromad (foyda)ga solinadigan soliqni stavkalarini hisobi quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan:

- AQSHni soliq darajasiga qarab, Kanadada korporatsiyalarni soliqqa

tortishda baravar sharoit yaratish Kanadani qayta ishlash sanoatida chet el kapitalini salmog'i 40% ga yaqin va neft qazib olish, hamda neftni qayta ishlash sanoatida 70% dan ko'prog'ini tashkil qilishiga olib keldi.

- Kichik biznesni rivojlanishini rag'batlantirish (katta bo'lмаган firmalar, bir yillik daromadi 200 ming dollargacha va ishda band odamlarining soni 100 kishigacha bo'lган).

Korporatsiyalarni daromad (foyda)si federal va provintsial darajalarda soliqqa tortiladi.

1988 yilda quyidagi soliq stavkalari soliq solinadigan daromad (foyda)ga nisbatan foiz hisobida belgilandi:

4-jadval

	Yirik biznes	Kichik biznes
federal	28	12
provintsial	15	10
ja'mi	43	22

Korporatsiyani foydasiga solinadigan soliq stavkasini provintsial va federal darajadagi o'zaro nisbat, Kanadani asosiy provantsiyalari –Ontario, Manitoba, Saskachevan, Albertilarda qo'llaniladigan shaxsiy daromadga soliqni o'zaro munosabatlariga o'xshash belgilangan va uning hajmi 46,5-54,0 foizlar qilib belgilangan. Federal soliqni stavkasi Kanada bo'yicha qonunda yagona tarzda belgilangan bo'lib, u 12-28 foizlarni tashkil qiladi.

Provintsial soliqlarni stavkalari provantsiyani qonun chiqaruvchi majlisi tomonidan aniqlanadi va ular bir-biridan farq qiladi. Provintsial soliq stavkalarini o'zgarishi federal soliq stavkasini o'zgarishiga olib kelmaydi. Munitsipialitetlar korporatsiyalarni daromadidan (foyda)sini soliqqa tortish huquqiga ega emaslar.

Umumiy soliq solish tizimidan ajratma belgilangan va buning asosida qayta ishlash sanoatining korxonalarini rivojlanishi va bandlikni ta'minlash uchun soliq stavkasi 23% hajmda o'rnatilgan. Provantsiya darajasida bu imtiyoz bekor qilingan.

Kanada mutaxassislarini fikricha, ularni qayta ishlash sanoati korxonalarini samaradorligi AQSHga nisbatan past. Shuning uchun chet el kapitalini keltirish maqsadida past soliq stavkasini belgilash orqali imtiyozlar beriladi.

Tabiiy resurslarni qazib olishga soliq tushumini provantsiya hukumati belgilaydi. Chunki Kanada qonunchiligiga binoan resurslar provantsiyalarga qarashli hisoblanadi. (Bundan faqat dengiz shelfida neft qazib olish va neftli qumliklarni qayta ishlash va boshqalar mustasno). Erosti boyliklarini qazib olish uchun korporatsiyalar provantsiya hukumatiga arenda to'lovi to'laydilar. Bunda arenda umumiy daromad (foyda)ni holati hisobga olmagan tartibda amalga oshiriladi. Lekin foydaga solinadigan soliq, faqat foyda mavjudligida olinadi. Alberti provantsiyasida, asosiy neft va gaz qazib olinadigan hududda, arenda to'lovi yalpi daromadni 12-13% ni tashkil qiladi (Buni Kanadani Petroleum Assotsieyshn-Kanadian yirik neft-gaz kompaniyasi) amalga oshiradi. Provantsiyani Moliya Vazirligi to'lov stavkasini bosqichini ishlab chiqqan va uni bir barrel neftga, neftning sifati, skvajinani (quduq) debetiga va neft konlariga qarab 0 dan 25% gacha belgilagan.

Korporatsiya daromadiga solinadigan soliqlar bo'yicha qator imtiyozlar

beriladi. Yangi kapital qo'yilmani rag'batlantirish uchun soliq solinadigan daromad kamaytiriladi yoki soliq summasi to'g'ridan to'g'ri kamaytiriladi. Lekin bu shaxsiy daromadlarni va ish haqini ko'paytirishga qaratilmagan.

Yalpi daromaddan ayrim harajatlarni chegirib tashlash va soliq krediti uslublari keng ishlatalidi:

- yangi neft quduqlari ishga tushirilgan joyda arenda to'lovlaridan 3 dan 5 yilgacha ozod qilinadi;
- arenda to'lovini keyingi davrga o'tkazish;
- arenda to'lovi foizini pasaytirish;
- yangi qazilma boyliklarini qazish, o'zlashtirish uchun past stavka bilan yoki foizsiz davlat krediti berish;
- tijorat banklarida kreditni davlat garantiyasini berish;
- ma'lum maqsadga (ilmiy tadqiqot, uskuna, kadrlar tayyorlash) qaytib berishlik, qaytib bermaslik sharti bilan to'g'ridan-to'g'ri davlat subsidiyasini berish yoki kompensatsiya xususida subsidiya berish;
- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarni davlat tomonidan moliyalashtirish;
- kelgusi yillari soliq skidkasini hisobga o'tkazish (agar foyda 0 ga barobar bo'lsa);
- davlat bilan birgalikda mulk shaklini tuzish;
- aktzioner kompaniyada aktsiyasini sotib olish bilan qatnashish;
- boshqalar (vaqtincha preferantsion aktsiyalar, undan olingan daromad soliqqa tortilmaydi. Qisman va to'liq infrastruktura harajatini qoplash);
- eksport qilinadigan mahsulot soliqqa tortilmaydi.

Asosiy kapital (asosiy fondlar)ni tezroq almashtirish uchun Kanadada soliq solinadigan daromad (foyda)ni aniqlashda tezlashtirilgan amortizatsiya qo'llanishi mumkin. Bunda mahsulot tannarxiga amortizatsiya ajratmasi uskunani haqiqiy xizmat qilish muhlatidan kelib chiqib belgilangan normada o'tkaziladi, lekin soliq solinadigan daromadni aniqlashda, kamayib borish uslubi asosida olingan foyda summasi hisoblanadi. Shunday tartibda soliqdan buxgalteriya va soliq amortizatsiyasini farqi hajmidagi summa soliqdan ozod qilinadi.

1988 yilgi soliq islohoti amortizatsiya me'yorini pasaytirdi va amortizatsiya muhlatini sekinlashtirdi. Natijada soliq tushumi ko'paydi.

Shu davr ichida progressiv uskunalar olish va yangi texnologiyani tadbiq qilishni rag'batlantirish maqsadida soliq krediti kiritildi. Soliq summasidan chiqaziladigan kapital qo'yilmani qiymatidan 7-10-20%li investitsion soliq krediti belgilandi. Federal va provantsiyalar darajasida maxsus ITTKI rag'batlantirishni maxsus tizimi qo'llandi.

Har bir provantsiya mustaqil o'zini siyosatini yurg'izadi. Lekin qo'shnisini siyosatini ham hisobga oladi. Federal darajada, qoida bo'yicha, daromaddan soliq olishda ITTKni qiymatini 100% hajmida imtiyozli narxini pasaytirish (skidka) beriladi. Bunga joriy va kapital harajatlar kiradi. Bundan tashqari korporatsiyaga investitsion soliq krediti beriladi. Stavkasi xududlar bo'yicha tabaqalashtiriladi (o'rtacha 20%) investitsion kredit ITTK oldin berilgan kreditni hisobga olgan holda

beriladi. Masalan, yillik ITTK fondi 10 mln.dollar shu summaga daromaddan soliq olishda skidka beriladi. Bu faqat ITTKga ajratilgan mablag' to'liq sarflanib, qoldiq nolga baravar bo'linda amalga oshiriladi.

Agar. ikkinchi yili ITTKI harajatlari 0 ga teng bo'lsa soliq kreditini summasi soliq solinadigan daromadga qo'shiladi va odatdag'i tartibda soliqka tortiladi. Masalan, 2 mln. dollar kredit, daromadga 50% soliq stavkasi bilan qo'shib, 1 mln. dollar soliqqa aylanadi. Bu mexanizm firmalarga katta mablag'larni tejashga yordam beradi. Ushbu misolda firma soliqdan 6 mln. dollar tejab qoladi.

Hisob: ITTKI-10 mln. dollar daromadga soliq solishda kamaytirilgan summa, shu jumladan 2 mln. dollar soliq krediti. Qoldiq 8 mln. dollar harajatlar. 50%li stavka bilan 4 mln. dollar soliq to'lanishi kerak edi. Qolgan 4 mln. dollar soliqdan to'g'ri rejali hisoblanadi va bo'yicha 2 mln. dollar kredit qo'shiladi. Shu yo'l bilan davlat hisobidan 6 mln. dollar tejab qolinadi. Hukumat soliq kreditini ITTKIni 35%gacha qiymatini bajarish uchun beradi. Daromadga ega bo'limgan yangi kompaniyalar ITTKIni amalga oshirish uchun byudjetdan to'g'ridan-to'g'ri dotatsiya oladi. ITTKIni rag'batlantirish uchun qator provantsiyalarda maxsus imtiyozlar berilgan. Soliq solinadigan daromaddan provintsial soliq solish uchun ITTKI qiymatini 100 dan 135%gacha daromaddan skidka chiqazib tashlanadi. Bu esa ITTKIni juda yuqori foydali qiladi.

Mablag'larni o'zlashtirish davrida korporatsiya zarar olsa, uni soliq to'lashdan ozod qilinadi. Ularga ko'rilgan zararni kelgusi yillarni foydasidan qoplash uchun imkoniyat yaratib beradi.

Agar ishlab turgan korporatsiyada zarar paydo bo'lsa, unga zararni oldingi uch yil soliq solingan foydadan chiqazib tashlash tartibi qo'llanadi (Agar foyda olingan bo'lsa) korporatsiyaga bu holatda qaytadan hisob-kitob qilingan soliq summasi qaytariladi yoki zararni kelgusidagi 7 yilga taqsimlanadi. 7 yillik muhlat Kanada sanoatini tajribasidan olingan. Shu muhlatda korxona foyda oladigan darajaga ko'tariladi yoki uni yopish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

### **Sotishga solinadigan soliq**

Federal va provintsial byudjetlarni umumiyligi daromadida sotishga solinadigan soliq (oborot solig'ini boshqacha ko'rinishi) muhim rol o'ynaydi. Bu soliq Kanadada federal va provantsiyalar darajasida ishlab chiqariladigan hamma sanoat tovarlari va Kanadaga chetdan keltiriladigan tovarlarga qo'llanadi.

Federal soliqqa yagona stavka - 12% belgilangan (avtomobil, televizor va x.k.) va tovarlar bahosiga bu soliq qo'shilgan. Hashamatli buyumlar bundan mustasno. Ular bo'yicha yuqori stavkalar qo'llanadi. Alkogol, spirt, tamaki - 18%, uy-joy qurish uchun foydalilaniladigan tovarlarga - 8%, aloqa xizmati uchun -10% belgilangan. Boshqa turdag'i xizmatlarga bu soliq solinmaydi. Ushbu federal soliq egri soliq hisoblanadi. Uni ishlab chiqaruvchi firma to'laydi. Haqiqatda ishlab chiqarilgan tovarlarni taxminan 1/3 qismiga soliq solinadi, chunki bu soliq bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan iste'molchi uni to'lamaydi. Moliya Vazirligining hisobiga ko'ra 50%ga yaqin sotishga solinadigan soliq ishlab chiqarish-texnik ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlardan olinadi.

Provintsial sotishga solinadigan soliq har bir provantsiyada mustaqil

belgilangan. Faqat tovarlarni oxirgi iste'molchiga sotishda olinadi (Ontario - 8%, Kvebek - 12%, Alberta -0%).

Turizmni rivojlantirish maqsadida Kvebek va Manitoba provantsiyasi hokimiyatlari Kanadada tovarlarni sotib olish, xizmatlardan foydalanishda, sotishdan olinadigan soliq to'lagan chet el fuqarolariga federal dastur asosida soliqni qaytarib berish tartibiga o'tganlar. 1997 yil 1 apreldan boshlab Nyu-Bransuik, Yangi Shotlandiya va Nyufaundlend provantsiyalari tovarlar va xizmatlar bo'yicha o'zlarining mahalliy soliqlarini qo'shdilar. Qo'shilgan stavka 15% (7% - federal va 8% - provintsial) ni tashkil etdi.

Sotishga solinadigan soliq oziq-ovqat, bolalar kiyimi, oyoq kiyim, kitob va dorilarga qo'llanmaydi. Islohotni ikkinchi bosqichida (1991 yil) sotishga solinadigan soliq qo'shilgan qiymat solig'i bilan almashtirilgan. Alovida provintsial soliqlar va federal soliq yagona qo'shilgan qiymat solig'i bilan almashtirilgan. Qo'shilgan qiymat solig'i deb, oxirgi mahsulot bahosi bilan material va xom ashyolarni qiymati o'rtasidagi farq tushuniladi. Lekin soliq summasi oxirgi mahsulot bahosidan hisoblanadi. Masalan, 100 dollarga material sotib olindi, uni qayta ishlandi va 200 dollarga sotdi. Shunda soliq bahodan protsent hisobida aniqlanib va etkazib beruvchiga to'langan summa chiqazib tashlanadi. Shu summaga soliqdan skidka qilinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini ko'p bosqichli sotishga solinadigan soliq desa ham to'g'ri bo'ladi.

Kelgusi bosqichlarda oradagi bosqichma-boskich soliq to'lovleri chiqarib tashlanadi. Shunday qilib, sekin-asta hamma soliq summasi oxir-oqibatda oxirgi iste'molchi zimmasiga tushadi.

Soliqni to'lovchi-iste'molchi 7%li stavka bilan to'laydi. Tovarlarni sotib olganda yoki mehmonxonada yashaganligi uchun to'lovni berganda, kimyoviy tozalash, sartaroshxona, fotoatele va shunga o'xshashlar, preyskurantda qo'rsatilgan bahoga yana 7%li soliq qo'shadilar. Tovar cheklari yoqi kvitantsiyalarda xizmat uchun soliq alovida qatorda ko'rsatiladi.

Aktsiz soliqlarini olish ham federal hukumat zimmasiga yuklatilgan. Kanadada ushbu soliq eng qadimiy soliqlarga kiradi. Asosiy aktsiz solinadigan tovarlarga benzin, alkogol ichimliklar, chekish mahsulotlari kiradi. Benzinga solinadigan soliq (avtomobilni ro'yhatdan o'tkazishda olinadigan litsenziya yig'imi) provantsiyalarda zaruriyat bo'lgan davrlarda qo'llanildi. 1924-1926 yillarda avtomobil yo'llar etishmadi. Ikkinchi jahon urushi vaqtida federal hukumat soliqni qo'shimcha stavka bilan qo'tardi. Hamda 1970 yilgi neft taqchilligidan keyin uni tashqi savdoni boshqarish uchun federal hukumat ixtiyoriga topshirildi. 1986 yili neft shov-shuvi tugagandan keyin Ottawa o'zining yoqilgi bozorida qatnashishini saqlab qoldi. Hozirgi vaqtda hukumatni ikkala darajasi ham soliqlarni yig'ishda ishtiroy etadi. Federal hukumat soliqni qat'iy belgilangan bir litrdan 8 tsent hajmida ushlab qoladi.

Tarif boji doim federal hukumatni ixtiyorida bo'lgan. Konfederatsiyani tashkil qilish davrida, savdoni soliqqa tortish daromadni asosiy manbai bo'lgan. Lekin keyinchalik boshqa manbalarni rivojlanishi va shimoliy Amerika va butunjahon savdo tashkilotlarida erkin savdo qilish to'g'risida bitim tuzilgandan keyin tariflarga davlat daromadining asosiy manbai sifatida qiziqish yo'qoldi.

## **Aholiga solinadigan soliqlar**

Aholidan to'g'ri va egri soliqlar undiriladi. To'g'ri soliqlarga daromad solig'i, kapitalni o'sishiga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, xizmatdan foydalanganlik uchun soliq (ko'prikan foydalanganligi uchun soliq), yoqilg'iga solinadigan soliq, tranzit to'lovi (erni o'tqazib berish), sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urtaga solinadigan yig'imlar kiradi.

Egri soliqlarga, birinchi navbatda, sotishga solinadigan soliq kiradi. Ko'rsatilgan soliqlarni ko'pchiligi federal darajasida va provintsial darajalarida to'lanadi. Munitsipialitetlarga ko'chmas mulkka solinadigan soliq, moliya kapitalini o'sishiga solinadigan soliq va xizmatlardan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

### *Aholini daromadiga solinadigan soliq*

1. Soliq solinadigan ob'ektlardan asosiysi biri daromad hisoblanadi. Daromad tushunchasi daromad solig'i to'g'risidagi qonunda ko'rsatilmagan. Amaliyotda yalpi daromaddan, daromad olish bilan bog'liq bo'lган harajatlarni chiqazib tashlanadi. Bunga natural daromadlar ham qo'shiladi (masalan, firmani avtomobilidan foydalanish)

2. Kelib tushish tartibi: Daromad sifatida kelib tushgan pul emas, hisoblangan summa olinadi.

3. Soliqni quyidagilar to'laydi: Kanadada yashovchi, Kanadada ishlovchi, Kanadada biznes bilan shug'ullanuvchi, Kanadadagi mulkka ruxsat beruvchi shaxslar.

4. Mamlakatda yil davomida yashovchini hamma daromadi (chet eldan olgani qo'shib) soliqqa tortiladi. Mamlakatda yilni ma'lum davrida yashaydigan shaxsni umumiyl daromadi soliqqa tortiladi. (Lekin faqat yashagan davriga.) Norezidentlarni faqat Kanadada olgan daromadlari soliqqa tortiladi.

5. Fuqarolarni daromadlarini ikki marta soliqqa tortmaslik uchun, boshqa mamlakatlar bilan bitimlar tuzilgan.

6. Ayrim shaxslar mustaqil ravishda o'zlarining daromadlarini hisoblaydi va har yili daromad to'g'risidagi standart shakldagi deklaratsiya blankasini to'ldiradilar. Ishlayotgan shaxslardan soliq summasi yil davomida ish haqisidan ushlab qolinadi. Yillik soliq summasini aniqlashda, yil davomida to'langan summalarini qaytadan hisob-kitob qilinadi.

Daromadga har xil manbalardan kelgan tushumlar kiradi:

I. Yollanib ishlovchi shaxs daromadi:

ish haqi

II. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs daromadi:

foyda

III. Ijaraga berilgan mulkdan olingan daromad;

IV. Investitsiyadan olingan daromad:

foizlar, dividendlar

V. Kapitalni (sarmoyani) o'sishidan olingan daromad

investitsiyaga mo'ljallangan buyumlarni qaytadan sotishdan olingan foydani 2/3 qismi soliqqa tortiladi.

**VI. Boshqa daromad turlari:**

nafaqa, dotatsiya, kundalik harajatga ajratilgan mablag' va boshqalar.

**7. Soliq solinadigan daromaddan quyidagilar chiqarib tashlanadi:**

I. Nafaqa fondiga ro'yhatga olingan to'lovn berish, qarilik uchun to'plangan mablag'.

II. Kasaba uyushmasiga a'zolik to'lovi va boshqa assotsiatsiyalarga a'zolik uchun to'lovlar;

III. Bolalarni boqish bo'yicha harajatlar (ota-onalar ishlayotgan vaqtida bolalarni boqish bo'yicha harajatlar).

**IV. Investitsiya bilan bog'liq harajatlar**

(kapital qo'yilmaga foydalanilgan kredit bo'yicha foiz to'lovlar).

**V. Boshqa tushumlar.**

ko'rsatilgan summalarini umumiylar daromaddan chiqazib tashlash sofi daromadni ko'rsatadi.

8. Soliq solinadigan daromadni aniqlash uchun qo'shimcha sofi daromaddan chiqarib tashlanadi:

I. Boshqa yillarning zarari.

II. Kapitalni o'sishidan olingan soliq solinmaydigan birinchi 100000 daromad;

III. Boshqa chiqazishlar.

9. Soliq solinadigan daromadlar asosida soliq summasi hisoblanadi:

**5-jadval**

**I. Federal soliq quyidagi stavkalar bilan aniqlanadi:**

Soliq solinadigan daromad	Stavkani chegarasi
0 dan – 27500 CanD gacha	17%
27501 dan – 55000 CanD gacha	26%
55000 CanD dan yuqori	29%

II. Provintsial soliq federal soliqdan foiz hisobida aniqlanadi (Kvebekdan tashqari)

**6-jadval**

**Provintsial soliqlarni stavkalari:**

Nyufaundland	60
Shaxzoda Edvard Aylend oroli	57
Yangi Shotlandiya	56,5
Nyu Brasuik	60
Ontario	51
Manitoba	54
Saskechevan	60
Alberti	46,5
Britaniya Kolumbiyasi	51,5
Shimoliy-G'arbiy hududlar	43
Yukon	45

10. To'lanishi kerak: soliq krediti chiqarib tashlangan summasi:

a) Oilani demografik tavsifi:

- umumiy (1020 dollar. Bu baravar eng kam yashash minimumini tashkil qiladigan 6000 dollar daromaddan olinadigan soliqqa);
  - oilaliklarga (850 dollar ishlamaydigan er yoki xotinga);
  - qaramog' idagilarga (250 dollardan yillik daromadi 2500 dollardan past bo'ladigan shaxslarga);
  - qariyalarga (60-65 yoshdan yuqori bo'lган shaxslarga 550 dollardan);
  - bolalar uchun (65 dollardan birinchi ikkita bola uchun va 130 dollardan har bir keyingi bola uchun).
- b) Dividendga beriladigan kredit;
  - nafaqa fondiga ajratma (20% dan ortiq bo'lmasligi kerak).
  - ishlamaydiganlar uchun
  - talim olish uchun;
  - tibbiy xizmat ko'rsatish harajatlari uchun.

### Kooperativlarga solinadigan soliqlar

Kooperativ o'zini xodimlariga yoki boshqa fuqarolarga xizmat qilishiga qarab solinadigan daromad solig'i farq qiladi. Kooperativ tovarlarni chakana bahoda oladi. Agar foyda olinsa uni yilni oxirida ikkiga bo'ladilar, ya'ni kooperativ a'zolaridan olingan va kooperativ a'zosi bo'lмагanlardan olingan foydalarga. Kooperativ a'zolariga xizmat qilishdan olingan foyda, ularning sotib olgan tovarlarini salmog'iga qarab taqsimlanadi. Bu o'rnini to'ldirish (kompensatsiya) sifatida qaraladi. Bu to'lovlar soliq solishda kooperativ daromadidan chiqazib tashlanadi. Bu kompensatsiyani bir qismi kooperativning aktsiyasi shaklida berilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida paychilarni kapital qo'yilmalariga tenglashtiriladi. Agar bu to'ldirish iste'mol tovarlari bo'yicha bo'lsa, oluvchi soliq deklaratsiyasida ko'rsatmaydi. Agar sanoat mollari bo'yicha olinsa, bu summa ko'rsatiladi va undan qo'shimcha soliq to'lanadi. Kooperativ foydaga solinadigan soliqni to'ldirish maqsadida taqsimlanmagan foyda yuzasidan to'laydi. Kooperativlarni soliqqa tortishda katta summalaridan hohlaganini oladi:

- a) kooperativ a'zolariga xizmat qilishdan olingan foyda;
- b) to'ldirish uchun taqsimlanmagan foyda.

Umumiy soliq hohlagan katta summadan 47,5% olinadi. Har bir kooperativ a'zosini shaxsiy raqami mavjud va sotib olishda komp'yuterda u ro'yhatga olinadi. Fermerlar boshqa xususiy shaxslar kabi soliqqa tortiladi. Lekin ularga nisbatan alohida qoida ham bor. Daromad, boshqalarga o'xshab, uni olish huquqi yuzaga kelganda emas, haqiqiy yil davomida kelib tushgan summa hisoblanadi. Bundan tashqari o'g'it sotib olish va boshqa harajatlar soliq solishda sotib olgan yilgi daromaddan chiqaziladi (o'g'itni kelgusi yillari ishlatishi ham mumkin). Soliq solishda fermer daromadi o'rtacha 5 yilga hisoblanishi mumkin. Uskunalar bo'yicha amortizatsiya odatdag'i sxemada yoziladi.

### Munitsipial organlarni soliq sohasidagi ishlari

Soliq sohasida munitsipialitetlar mutlaqo mustaqildir. Soliqni ko'chmas mol-mulk egalaridan undiradi. Munitsipialitetlar o'zini hududida qurilish qilish uchun yig'im belgilaydi. Yig'imni 5% dan kam bo'lмагan summasini jamoa umumiy

foydalananadigan manzillarini qayta tashkil qilish, bezash ishlariga yuboriladi. Munitsipial byudjetni uzoq muddatli qarzi byudjetni umumiy hajmini 42% dan ortiq bo'lmasligi kerak. Shu bilan bir qatorda bu qarz soliq solinadigan mulkni 1%i dan yuqori bo'lmasligi kerak. Qarz bo'yicha to'lovlar esa munitsipialitetni umumiy joriy harajatlarini 20% dan oshmasligi zarur. Munitsipialitetlar aholidan, biznesdan mablag'ni qarzga olish uchun boj, aktsiya va obligatsiyalar chiqaradi, zayomlar maqsadli bo'lGANI uchun, qayta taqsimlash yo'li bilan qarzga olingan mablag'larni bir joydan ikkinchi joyga yo'naltirish mumkin emas. Munitsipial byudjetni taqsimotini Ottava shaharini byudjetini misolida ko'rish mumkin. Joriy byudjet – 100%, ijtimoiy transportga dotatsiya-17%, dam olish va madaniyat sohasi harajatlari - 17%, aholini va mulkni himoya qilish (mirshab, o't o'chiruvchi) - 37%, sog'lijni saqlash va ijtimoiy yordam - 1%, ekologiya - 5%, bepul xizmatlar - 6%, qolgani- boshqa harajatlar. Daromadlar manbai – provantsiyadan beriladigan yordam va subsidiyalarni –10%hajmida tashkil etadi. Ular ikki xil bo'ladi: maqsadli va kompleksli. Maqsadlida: masalan 50-80%i yo'l harajatlarini qoplash; komplekslida shart qo'yilmasdan byudjet defitsitiga umumiy summa tarzida beriladi. Maxsus yig'imlar - 25% (litsenziya berish uchun yig'imlar, renta, xizmatlar) ga teng. Mulkka solinadigan soliq - 29% ni tashkil qiladi.

Provantsiya va federal hukumatlarini ularni ko'chmas mulkiga solinadigan soliq o'rniغا beradigan yordamlari - 36% (hukumatlar soliq to'lamaydilar, uning o'rniغا munitsipialitetlarga yordam puli jo'natadilar).

Huquqiy va jismoniy shaxslarni ko'chmas mulkiga solinadigan soliq doimo munitsipialitetlarni ixtiyorida bo'lgan va konfederatsiyani tuzilmasdan oldin foydalanilgan. Soliq daromadlari shahar infratuzilmasini, ijtimoiy imoratlarni (maktab, tartibni saqlash organlari va h.k.) saqlab turish uchun sarflangan. Huquqiy shaxslarni, mol-mulkini olinsa, boshlanishida soliq tijorat imoratlari (ofislari), ombor zaxiralari va boshqa joylardan olingan. Buni nohaq deb, savdo xodimlari arz qila boshllagan. Hozirgi vaqtida soliq ko'chmas mulk egalari tomonidan to'lanadi va uni hajmini ularning qiymatidan foiz hisobida aniqlanadi. Shahar kengashini a'zolari, meriya rahbari aybi bilan byudjet defitsiti yuzaga kelsa, udar shaxsiy mulklari bilan javob beradilar va adliya orqali jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Soliq solish uchun mulkni baholash provantsiya hukumatini funktsiyasiga kiradi va provantsiyada soliqdan skidka berishda bir xil yondashishni ta'minlab beradi. Provantsiyalarda bu ishni baholash bo'yicha maxsus bo'lim ish olib boradi. Ontario provantsiyasida 31 bo'lim bo'lib, ularning har birida 100 tadan xodim ishlaydi. Baholashni maqsadi munitsipialitetga soliq bazasi to'g'risida tushuncha berishdir. Er va imoratlar baholanadi, uy jihozlari, asbob-anjomlar va uskunalar baholanmaydi. Asosiy baholash - bozor qiymati asosda bajariladi, ya'ni erkin bozorda shu mulkni sotishdan olinadigan summa hisoblanadi. Hisob qiymatini aniqlash uchun 3 ta ta'sir qiluvchi omil hisobga olinadi. Birinchisi - qiymatni yuzaga keltirish uchun ketadigan harajatlar; ikkinchisi - mulk keltiradigan daromad; uchinchisi - bozor ma'lumotlarini hisobini olib borish yoki solishtirma yondashuv. Baholash mulkdor qatnashmagan tartibda amalga oshiriladi. Mulkdorga mulk qiymati o'zgarganligi va soliq stavkasi to'g'risida xabar qilinadi. O'zaro kelishmovchiliklar provantsiya hukumatiga qarashli

maxsus tribunal (adliya tashkiloti)da echiladi. Tribunal a'zolari hukumat tomonidan tayinlanadi. Sug'urta kompaniyalari qiymatni mustaqil baholaydilar va o'zlarining baholash xizmatiga egalar. Mulkni bir qismini yo'qotish qaytadan baholashga olib keladi.

Ko'chmas mulkdan soliqni mulk qiymatidan 0,5-1,0% hajmida olinadi. Sartaroshxonalaridan – uy qiymatidan 30%, advokatlar idorasi va tibbiyot xonalari – 50%, spirt ishlab chiqarish-14% to'lanadi. Munitsipialitet hamma ob'ektlar bo'yicha hujjatlar to'plar olib boradi. Baholash 11 ta provantsiyaga umumiy apparat (70 ta baholovchilar) tomonidan olib boriladi. Ontario **provantsiyasida** shikoyat (**appellyatsiya**) qilish uchun maxsus tribunal tuzilgan.

Tabiiy resurslarga solinadigan soliq, odatda provantsiyalar ixtiyorida bo'ladi. Tabiiy resurslar (neft, gaz, qazilma boyliklar, o'rmon, boliq va suv zapaslari) provintsial byudjetda muxim o'rinni egallaydi. Lekin xar xil hududlar uchun ularning ahamiyatlari ham har xil. Bu holat tabiiy resurslar mamlakat bo'yicha bir xil taqsimlanmaganligi bilan bog'liq. Masalan, bu soliqlar Alberti provantsiyasida hamma tushumlarni 1/4 qismini tashkil qilsa, Saskachevanda 1/10 iga to'g'ri keladi.

Qazilma boyliklar ijtimoiy va xususiy foydalanish guruuhlariga bo'linadi. Ularga uch xil turdag'i bojlar solinadi: monopol kirish huquqi uchun, ishlab chiqarish (royalti) huquqi uchun va qazib olingan boylikdan ajratma berish. Hususiy egalik qilishda qazib olishni soliqqa tortiladi (shaxtaga solinadigan soliq). XIX asrning oxirigacha qazilma boyliklardan olinadigan soliqlar muhim rol o'ynamagan. Lekin o'rmonda daraxt qirqish katta daromad keltirgan. Hamma hududlarda shaxtalar qurilganidan keyin, ulardan keladigan tushum ham ko'paygan. U davrlarda tabiiy resurslarni soliqqa tortish sinov tartibida olib borilayotgan edi. Masalan, Kvebek provantsiyasida elektroenergiya ishlab chiqarish uchun suv resurslariga soliq solingan.

#### *Munitsipialitet byudjetini ishlab chiqish tartibi.*

Joriy yilini yanvar-mart oylarida iqtisodiy vaziyatni joriy va kelgusi yilga istiqlolini ishlab chiqish boshlanadi. Istiqbol ikki yilga belgilanadi. Munitsipial kengashni bo'limlari (boshqarmalari) istiqbolni shlab chiqadilar. Aprel-may oylarida iqtisodni rivojlantirishni strategik rejasi tayyorlanadi. Bu reja iyun-avgust oylarida munitsipial kengashni hamma bo'limlarida ko'riladi va ular reja to'g'risida o'zlarining memorandumlarini topshiradilar. Oktyabr oyida hamma takliflarni ko'rib chiqilgandan keyin byudjetni asosiy stavkalari belgilanadi. Shuning asosida noyabr-dekabr oylarida operativ byudjet, kapital qo'yilma, uzoq muhlatli dastur va uni moliyalashtirish hajmi tuziladi. Rejalashtiriladigan yilni yanvar-fevral oylarida loyiha ma'muriy muhokamadan o'tadi va munitsipial kengashni doimiy qo'mitalarida ko'rib chiqiladi. Mart oyida kengashda tasdiqlanib va shundan keyin soliq stavkalari ham qonuniy kuchga kiradi. Moliyaviy yil - kalendar yil hisoblanib, birinchi yanvardan boshlanadi. Shuning uchun rejalahtirilayotgan yil davomida soliq stavkasi tasdiqlanganiga qadar, soliqlarni huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan oldingi yil stavkasi asosida to'lanadi va keyin qaytadan hisob-kitob qilinadi. Soliqlar bir yilda 6 marta olinishi kerak.

Deklaratsiyani to'g'ri to'lg'azilganligini davlat tomonidan baholanishi, soliq

organlari xarakatini nazorat qilish va ular ustidan arz qilish tartibi

Soliq deklaratsiyasi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil to'ldiriladi va kelgusi kalendar yilni 30 aprelijacha topshirilishi zarur. Soliq organlari tanlov asosida deklaratsiyani to'g'ri to'ldirganligini tekshiradi va undagi ma'lumotlarni haqiqiyligiga e'tiborni qaratadi. Ular buxgalteriya kitoblarini ko'rish va reviziya o'tqazish huquqlariga ham egalar. Buning natijasida davlat organlari tomonidan hisoblangan soliq summalarini, soliq to'lovchidan olingan ma'lumotlardan farq qilishi mumkin. Shunda kelishmovchilik yuzaga kelsa, soliq to'lovchi huqumatni baholashidan norozi bo'lsa, davlat organlarini baholashini noto'g'riliini tasdiqlab berishi kerak.

Soliq to'lovchi daromadlar vazirligiga, Kanadani soliq adliyasiga appelyatsiyaga berishi mumkin. Keyin Kanadani federal adliyasiga va nihoyat Kanadani Oliy adliyasiga berishi mumkin. Soliq qonunchiligini buzganligi uchun fuqarolarga nisbatan har xil jazolar qo'llanadi. Deklaratsiyani kechiktirib bersalar, ulardan soliq summasini 5% hajmida jarima olinadi. Bunga yana har bir kechiktirilgan oy uchun 1% dan qo'shib boriladi (shu tartib 12 oygacha davom etadi). Jarima qo'llangandan keyin, uni tasdiqlash Daromadlar vazirligiga yuklatilgan. Federal va provintsial huqumatlari bir-biriga bog'liq bo'limgan holda soliq to'lovchiga jarima solishlari mumkin. Bundan tashqari daromad solig'i bo'yicha qonunni buzganlarni jinoiy javobgarlikka ham tortish mumkin. Jinoyat qonunchiligidagi to'lanmagan soliq summasiga 50 dan 200 foizgacha jarima solinadi yoki jarima solinib, yana 2 yilga qamoqqa yuborish mumkin. Bu choralar soliq deklaratsiyasida noto'g'ri ma'lumotlar berilganligida, moliyaviy hujjatlarni yo'q qilinganida, ularni qalbakilashtirilganida, qonunni buzganida yoki jinoiy kelishuvlarni amalga oshirilganida soliq to'lovchilarga qo'llanadi.

## **5. Kanada davlatida soliq tizimining ilg'or tajribalarini O'zbekiston soliq tizimida foydalanish masalalari**

Kanadani federal hukumati provantsiyalar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlaydi va daromadi past provantsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri dotatsiyalar beradi. Provantsiyani nochor va boy ekanligini aniqlash mezoni ularning potentsial soliq yig'ish imkoniyati orqali hisoblanadi. Aholini ijtimoiy turmush darajasini tenglashtirish uchun maxsus dastur amalga oshiriladi. Provantsiya imkoniyatini hisobi, mamlakatdagi o'rtacha soliq stavkasiga assoslanadi. Moliya Vazirligi tomonidan har yili qaytadan hisob-kitob qilinadi. Tenglashlashtirish - bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad darajasi asosida olib boriladi. Bu farqni hisoblash bo'yicha maxsus qonun mavjuddir. Federal hukumatni provantsiyalar bilan boshqa qator o'zaro aloqalar shakli mavjud:

- to'g'ridan-to'g'ri provantsiyalarga pul to'lovlarini berish (shunday shart bilan provantsiya federatsiyani belgilagan tartiblari asosida ish olib boradi. Masalan, federal hukumat shifoxonada yotish qiymatini 50%ini qoplaydi, lekin provantsiya shifoxonasi ta'minlashni o'rtacha standartini ta'minlay olgan taqdirdagina amal qiladi).

- ijtimoiy yordam dasturi (ishsizlikni yo'qotish, madaniyatni rivojlantirish, talim va boshqalar), birgalikda dasturlar ishlab chiqish, ularni tadbiq qilish va birgalikda moliyalashtirish (federal infrastruktura, transkanada avtostradasi va h.k.).

Federal va provantsiya hukumatlari o'rtasida (har biri bilan alohida) bitim tuziladi va hujjatda yagona soliq inspeksiysi yig'adigan soliq turlari ko'rsatiladi. Soliqlarning ayrim turlari bo'yicha ilgari kelishuvlar bo'lмаган, ular keyinroq tadbiq etildi. Masalan, sotishga solinadigan soliqni chakana savdoga belgilash va yig'ish provintsial hukumatni ishi bo'lib, ishlab chiqarish bo'yicha bu soliqni federal hukumat yig'adi. Bu soliq to'g'risida hukumatlar o'rtasida bitim yo'q. Soliq solishda qonunchilik tashabbusi faqat Moliya Vazirligi va vazirlar Mahkamasiga (federal, provantsiya) zimmasiga yuklatiladi. Tarmoqlar bo'yicha vazirliklar o'z fikrlarini vazirlar mahkamasida izhor qilishlari mumkin, lekin parlamentda bunday huquqqa ega emaslar. Parlamentda vazirlar mahqamasi tasdiqlagan qonunchilik hujjatlari asosida ish yuritadi.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Provintsiya, Federal, Federal foyda solig'i, Foyda solig'i, Soliq tavkasi, federal subsidiyalar, Shtatlar solig'i, maxalliy soliqlarkorporatsiya foyda solig'i, divident, Yalpi sotuv, qushma deklaratsiya, Avtotransport egalaridan olinadigan soliq, Aktsizlar, Meros va xadya solig'i, Ijtimoiy sug'urta solig'i, Bojxona boji.*

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishi?
2. Federal byudjet daromadlarining asosiy qismini qaysi soliqlar tashkil etadi?
3. AQSHda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning tulovchilari?
4. AQSHda soliqqa tortish ob'ektlari nechta bosqichlarda aniklanadi?
5. Kanada soliq tizimi nechta asosiy darajada taqdim etiladi?
6. Kanadadaning asosiy soliq stavkalari qaysilar?
7. Provintsiyalarga beriladigan federal transfertlar qaysi maqsadlarga va tuzilishga ega?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

6. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2019. - 336 b
7. Gadoev E. va boshqalar. Bilvosita soliqlar: QQS, Aktsiz solig'i. O'quv qo'llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 bet.
8. Gadoev E. va boshqalar. Foyda solig'i. O'quv qo'llanma. - T.: Norma, 2011.- 408 b.
9. Gadoev E. i dr. Uproshchyonnaya sistema nalogoooblojeniya. Uchebno-prakticheskoe posobie. - T.: Norma, 2011.- 324 str.
10. Gadoev E.F. Nalog na doxodi fizicheskix lits. Uchebnoe posobie -T.: Norma, 2011. - 312 str.
11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
12. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 447 bet.
13. Ibraymov A.E. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
14. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoleva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
15. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
16. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
17. Obrazovanie v tsifrovyyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
18. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish kontseptsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. [https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)
19. S.Xudoyqulov, Sh.Babaev. Soliq tushumlari hisobi va prognozi. Darslik. T.: Iqtisodiyot. 2019.-305 b.
20. Sanakulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni solikka tortish. O'quv qo'llanma. -T.: Noshir, 2012. - 236 b.
21. Sovremennie obrazovatelnie texnologii: pedagogika i psicho-logiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo TsRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
22. O'zbekiston Soliq tizimi Mustaqillik yillarda. Rasmiy nashr. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2011. – 150 b.
23. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
24. Alimardanov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik.-T.: «Cho'lpon nomidagi NMU», 2014. -218 bet.

25. Djurayeva K. Soliq tizimida dasturiy mahsullar. 2-qism “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi – yuridik shaxslar” dasturiy majmuasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: El\_press, 2013. -141 b.
26. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
27. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
28. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
29. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
30. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
31. Vahobov.A.V, Jo`rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.

**Internet saytlar:**

1. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)
2. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
3. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
4. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

### **AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYALAR**

Amaliy mashg'ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotlar respublikamizdagi ilg'or korxona va tashkilotlarda o'tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg'ul bo'lган amaliyotchilar bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida tinglovchilar kadrlarni innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanishi, korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish, O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanishi to'g'risida amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu. Xalqaro soliqqa tortish tamoyillari va huquqiy-me'yoriy asoslari (2 soat)**

##### **Reja**

- 1. Soliq siyosatini huquqiy asoslari va tushunchasi.**
- 2. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat xokimiyati organlarining vakolatlari.**
- 3. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va undagi asosiy muammolar.**
- 4. Investitsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq siyosatining o'rni.**

**Kalit so'zlar:** soliq siyosati, investitsiya faoliyati, soliq imtiyozlari, soliq siyosatini huquqiy asoslari, davlat soliq siyosati, iqtisodiy samaradorlik, davlat byudjeti, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, davlat byudjeti daromadlari, Davlat byudjeti xarajatlari

#### **1. Soliq siyosatini huquqiy asoslari va tushunchasi.**

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari davlat mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yaratila boshlagan. O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagи «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi qonunda O'zbekiston Respublikasi bundan buyon o'zining **mustaqil moliya-soliq siyosatini** olib borishi ko'rsatilib o'tildi. Qolaversa davlatning soliq siyosati asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab soliqlar sohasida o'ndan ortiq qonunlar qabul qilingan edi. Shulardan eng asosiyulari 1992 yil 15 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalar

soliqlari to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмагanlarning solig'i to'g'risida»gi qonunlari, ularga kiritilgan o'zgartirishlar, to'ldirishlar hamda qonunlar asosida ishlab chiqilgan yuriqnomalar va tartiblar bo'ldi. Bu ikki qonunda sakkizta umum davlat soliqlari ko'rsatilgan. 1993 yil 7 mayda esa «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi qonun qabul qilinishi soliqlarning huquqiy asosini yanada musatahkamladi.

Ammo soliqarning ququqiy asosini jamlab ko'rsatuvchi jujjat 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi bo'ldi. Bu Kodeksning qabul qilinishi soliq siyosatini davlat tomonidan amalga oshirishda katta yig'ma huquqiy asos bo'ldi. Shu bilan birga soliq siyosatiga bog'liq boshqa qonunlar ham qabul qilindi. 1997 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi davlat solik xizmati to'g'risida»gi qonuni shular jumlasidandir. Bu qonunda soliqlarni hisoblash va byudjetga undirishni tashkil qilishdagi soliq idoralarining huquq, vazifa va majburiyatlari bayon etilgan. Shunday qilib, davlatning soliq siyosatini yuritish O'zbeksitonda huquqiy demokratik asosda olib boriladi.

Umuman siyosat deganda davlatning ilgaridan rejalashtirilib, aniqlab va huquqiy me'yorlar asosida amalga oshriladigan chora tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Soliq bo'yicha ishlarni tashkil qilish ham shu to'g'risidagi davlat siyosati bilan yuritiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, davlatning soliq siyosati uning iqtisodiy — moliya siyosatining ajralmas tarkibiy qismidir va unga bog'liq holda olib boriladi, chunki soliq munosabatlari moliya munosabatlarining muhim tarkibiy qismidir.

Soliq siyosati nima? Unga qanday ta'rif berish mumkin?

Soliq siyosati davlatning Soliq sohasidagi barcha tadbirlarini rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijorosini ta'minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora —tadbirlar yig'indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o'zining mustaqil soliq siyosatiga ega bo'ladi va uni amalga oshiradi.

Davlat soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish, ijtimoiy himoyalangan, erkin bozor iqtisodiyotini boshqarishga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Soliqlar pul munosabatlarini ifoda etib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi, bozor iqtisodiyotining zaruriy qismidir. Soliq siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun u ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Buning uchun soliq munosabatlari chuqur o'rganilib, undan ilmiy xulosalar chiqarishimiz lozim.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'naliшlariga katta e'tibor beriladi:

1. har xil mulk shakllariga moslangan korxona va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni har tomonlama bozor munosabatlariga kirib borishiga yordamlashish;

2. Umum davlat ijtimoiy zaruriy vazifalarni bajarish uchun davlatni zarur bo'lgan moliyaviy manbalar, mablag'lar bilan ta'minlash;

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlikni bartaraф etish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy

nochorlarga yordam berish.

4. Aholi turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash.

Soliqlardan kompleks foydalanish xalq xo'jaligi tarmoqlarini qayta qurishga, ishlab chiqarish infrastrukturasi yaratishga, xo'jaliklar va aholini tovar sotib olish qobiliyatini boshqarib turishga va pulning qadrsizlanish jarayonini (inflyatsiyasini) jilovlab turishga imkon beradi. Pulning qadrsizlanishiga qarshi choralar ko'rish kam sarflab, topilgan daromadlarga soliq progressiyasini oshirish bilan ham amalga oshiriladi.

## **2. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat xokimiyati organlarining vakolatlari.**

Yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati davlat, ya'ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar xokimiyat turi nuqtai-nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatlariga bo'inadi. Ayrim xollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qo'mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat xokimiyatining barcha bo'g'irlari: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu xokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta'minlanadi. Qonun chiqaruvchi organ hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo'lgan qonunlar qabul qilinadi, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining xuquqiy negizlari mazkur xokimiyat faoliyati bilan bog'liqdir. Ijro xokimiyati bo'lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo'linmalari Moliya vazirligi, Davoat soliq qo'mitasi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, mahalliy xokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo'li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarining ishlash mexanizmini ta'minlashga xizmat qiluvchi me'yoriy-xuquqiy xujjatlar orqali ularning ijrosi ta'minlanadi. Bunda albatta ijro xokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi aloxida o'ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, xar yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar bo'yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o'zgartirishlar kiritish vakolati vazirlar Mahkamasiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi xokimiyatlar bo'g'irlari bilan birga sud xokimiyatining bo'g'irlari ham aloxida axamiyatga ega. Sud xokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar o'zvaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llaniladi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat aloxida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug'ullanmaydigan sub'ektlar, aniqrog'i soliq to'lovchilar qatnashishi mumkin, ya'ni bunda soliq

to'lovchilarning o'zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishlashi kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amlda qo'llash jarayonida bir qancha o'z vakolati doirasida faoliyat yuritadigan organlar birgalikda baxamjixat ishni tashkil etishlari shart. Bu organlar faoliyat turining turlichaligi, ularni tashkil etish asoslarining farqlanishi, maqsad va vazifalarining ayrichaligi soliq munosabatlarini tashkil etishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda faol ishtirok etishni ta'minlash maqsadida ular faoliyatini muvofiqlashtirish va bir-biriga moslashuvchanligini ta'minlash kabi qator muammolarni xal etish zarur.

Shuni aloxida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi xokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy axvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshvalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo'mitasi va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan xolda xokimiyatning ushbu soxalari soliq solish bilan bog'liq shaxs xuquqlarini ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro xamkorlikning barcha jixatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ Oliy Majlis konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandи va "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga asosan xukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kituvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni xukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari xukumatning ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha raxbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat xokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur soxaning xususiyatli jarayonlari xaqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Soliq organlari va mahalliy xokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro xamkorlik respublikada olib boriladigan yagona soliq siyosatini yuritilishida, soliqlar va boshqa soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning xudud byudjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yicha vazifalarning bajarilishi natijalarini taxlil qilishda ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda maxalliy xokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlariga qisqacha to'xtolib o'tadigan bo'lsak, maxalliy xokimiyat organlari respublikamizda ijro etuvchi xokimiyatning quyi bo'g'inlaridan biri hisoblanib, ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishda o'zlariga yuklatilgan majburiyat va vazifalardan kelib chiqqan xolda muayyan vakolatlarga egadirlar. Maxalliy xokimiyat organlari vakolatlarini xar bir faoliyat turlariga ko'ra guruxlash mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muayyan faoliyatni amalga oshirish moliyaviy mablag'larga zarurat tug'diradi. Shundan kelib

chiqqan xolda respublikamiz davlat xokimiyati organlarining har birini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning mexanizmi yaratilgan.

Maxalliy davlat xokimiyati organlarining daromadlari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

➤ qonun xujjatlariga muvofiq mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan mahalliy soliqlar, yig'imlar, bojlar, shuningdek majburiy to'lovlar va soliqlar bo'limgan boshqa tushumlar;

➤ qonun xujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan umum davlat soliqlari, yig'imlari, bojlari, shuningdek majburiy to'lovlar hamda umum davlat tushumlari;

➤ qonun xujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat mulkini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

➤ qonun xujjatlariga muvofiq meros olish, xadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

➤ byudjet subventsiyalari, dotatsiyalari va yuqori byudjetdan beriladigan ssudalar:

➤ yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlar

➤ qonun xujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar.

Mahalliy xokimiyat organlarining vakolatlarini kengaytirish zarurati ularning mahalliy talab va ehtiyojlarni to'liqroq ravishda hisobga olish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. Mahalliy xokimiyat organlarining vakolatlarini oshirishda ular daromad manbalarini mustaxkamlash va ularning bu boradagi vakolatlarini kengaytirish muhim axamiyat kasb etib, respublikamiz byudjet-soliq siyosatida ularning bu boradagi bir qator vakolatlari mavjud. Ya'ni mahalliy xokimiyat organlari mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq bir qancha vakolatlarga ega bo'lib, ular o'zlarining xududida joylashgan soliq to'lovchilarga mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha qo'shimcha soliq imtiyozlarini belgilash, soliq stavkalarining miqdorini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash kabi vakolatlarini sanab o'tish mumkin.

### **3. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va undagi asosiy muammolar.**

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini tahlil qilib quyidagi xulosalarga ega bo'ldik. Bu borada bir qancha muammolar mavjud bo'lib, bizningcha bu muammolar quyidagilardan iborat:

1. Tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy erkinlashtirish va ular faolligini oshirishda soliqlardan samarali iqtisodiy vosita sifatida foydalanmaslik.

2. Iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot, ish, xizmatlar narxlarining shakllanishida soliqlar asosiy rol o'ynayotganligi.

3. Soliq imtiyozlarining mukammal taqdim etilmasligi oqibatida soliqdan ochish hollarining yuz berishi yoki mavjud imtiyozlardan iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarida foydalanish imkoniyatlarning nihoyatda chegaralanganligi.

4. Xususiy korxonalarda soliq yukining real darajada pasaytirish imkoniyatlari kamligi.

5. Soliq bazasini sun'iy ravishda ko'paytirish siyosatini olib borilishi, soliq bazasiga kiruvchi elementlarni ko'paytirish.

6. Soliqlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalarning ko'pligi tadbirkorlikni olib borishdan cho'chitadi, daromadga ega bo'lishni minimum darajaga olib boradi.

7. Soliqqa tortish sohasida o'zgarishlarning nihoyatda ko'pligi.

8. Soliqlar bo'yicha me'yoriy xujjatlarda berilgan ayrim tushuncha-larning aniqmasli, yuzaga kelayotgan holatlarga to'liq javob bera olmasligi.

9. Soliq to'lovchilar xuquqlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolar.

10. Soliqlar va byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalarni undirish bilan bog'liq muammolar.

11. Soliqlar va boshqa iqtisodiy hamda ma'muriy mexanizmlar orqali milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun tegishli shart sharoitlarni yaratmasdan turib proteksionizm siyosatining olib borilishi ayrim salbiy oqibatlarga, shu jumladan, bojxonada soliqlar va bojxona to'lovlarning byudjetga katta miqdorda to'lanmayotganligi holatlari mavjudligi.

12. Ommaviy soliq to'lashdan bo'yin tovlash va soliq madaniyatini shakllantirish muammolari boshqalar.

Mamlakatimizda yuritilgan iqtisodiy, jumladan soliq siyosati asosan makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratildi. Ammo bozor munosabatlariiga o'tishning hozirgi bosqichida soliq siyosatini faqat makroiqtisodiy siyosatga bog'lash emas, balki tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashga qaratilmog'i darkor. Zero, pastki bo'g'lnlarda moliyaviy barqarorlikning tiklanishi makroiqtisodiy barqarorlikni sun'iy (ma'muriy) yo'l bilan emas, balki mustahkam iqtisodiy asosda bo'lishini ta'minlaydi. Oxirgi vaqtarda chiqarilgan farmonlar va qarorlar bu borada muhim siljishlar yuz berishi uchun qonuniy asos yaratdi. Navbatdagi vazifa ularning amalda ishlashi va kutilgan natijani berishi uchun iqtisodiy imkoniyat va mexanizlarni yaratishdir.

Shunday qilib, respublikamizda soliqlar vositasidagi iqtisodiyotga ta'sir etishni tashkil etishning, shu paytga qadar yuritib kelinayotgan soliq siyosatini yuritishning xususiyatlari va bu boradagi muammolarni aniqladik, iqtisodiy rivojlanishga erishish talablari nuqta'i nazaridan ularni o'zgartirish zaruratini asosladi va bu o'zgartirish ob'ektlarini belgiladik

Soliq solish soxasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jixatdan davlat apparatining turli bo'g'lnlari faoliyatidagi muvofiqlashtirilganlikka bog'liq. Vakolat Xar bir organning o'ziga xos rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida, uning boshqa organlar faoliyati bilan muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birining Xal etilishi, masalan, byudjetni to'ldirish, soliq to'lovchilarining iqtisodiy va yuridik Xatti-Xarakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat Xokimiyati organlari faoliyatining muvofiqlashtiruvvisiz amalga oshmaydi.

Asosiy iqtisodiy Xuquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi Xokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq soXasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat Soliq qo'mitasini va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita Xamda bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan Xolda Xokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq xuquqlarni ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi xamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro Xamkorlikning barcha jixatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandи va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga asosan Xukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat Soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni Xukumatga kiritish Xuquqi, uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari Xukumat ishtiroti bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Maxkamasi Davlat Soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha raxbar organ xisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat xokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur soXaning xususiyatli jarayonlari xaqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

*Soliq organlari* va maxalliy xokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro xamkorlik mamlakatda olib boriladigan yagona soliq siyosatini yuritish, soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lovlarning xududlar byudjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yicha vazifalarning bajarilishi natijalarini taXLil qilishda ishtiroti orqali namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda, maxalliy xokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlariga qisqacha to'xtolib o'tish o'rindir. Maxalliy xokimiyat organlari mamlakatimiz soliq qonunchiliga muvofiq bir qancha vakolatlarga ega bo'lib, ularning o'z xududida joylashgan soliq to'lovchilarga maxalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha qo'shimcha soliq imtiyozlarini, shuningdek, soliq stavkalari miqdorini Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash kabi vakolatlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, davlat soliq boshqaruvi davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliqlar bo'yicha xar bir xokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo'lib, ularning xar biri o'z faoliyatlarini samarali olib borishda ulardan foydalanadi. Bunda, vakolatli organlar sifatida, barcha xokimiyat organlari, jumladan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatlari birgalikda faoliyat ko'rsatadi.

Davlat soliq boshqaruvida etakchilik Davlat Soliq qo'mitasiga berilgan bo'lib, uning quyi bo'limlari nisbatan mustaqil bo'lsada, ierarxiyalı bo'yish tartibotida faoliyat yuritadi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirishning markaziy

sub'ekti - O'zbekiston soliq xizmati soliq qonunchiligining bajarilishini ta'minlaydigan organlar tizimidan tashkil topgan.

#### **4. Investitsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq siyosatining o'rni**

Soliq mexanizmidagi o'zgarishlar yalpi talab va yalpi taklifning o'zgarishiga ta'sir qilishi bilan birgalikda, investitsiyalar o'zgarishiga ham ta'sir etadi. Bunday olib qaraganda soliqlar va investitsiyalar o'rtasida uзвиy aloqadorlik mavjud. Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymatning davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida taqsimlanishi soliqlar va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi. Soliqlar bo'yicha engilliklar berilishi ko'p jihatdan soliq to'lovchilarni ishlab chiqarishga rag'batini kuchaytiradi, ularda ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish moyilligini kuchaytiradi. O'z navbatida soliqlar vositasida investitsiyalarning rag'batlantirilishi kelajakda davlat byudjetiga undiriladigan soliq bazasini kengayishiga xizmat qiladi. Masalan, bu holatni birgina misol bilan izohlashimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari o'g'risida»gi 2002 yyl 13 noyabrdagi 390-son Qaroriga muvofiq yuqori sifatli, raqobatbardoshli iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni va ularning assortimentniy kengaytirishni rag'batlantirish, ichki iste'mol bozorini ular bilan yuqori darajada to'ldirish maqsadida 2003 yildan 2008 yilga qadar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq, ayrim turdag'i tovarlarga nisbatan belgilangan aksiz solig'i, er solig'i bo'yicha bir qator imtiyozlar belgilanganki, ushbu imtiyozlar vositasida korxonalarning investitsiya mablag'lari kengaytirilishiga erishishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu qayd etilgan imtiyozlarning eng xususiyatli tomoni shundan iboratki, imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar korxonalar tomonidan faqat ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlarining assortimentini kengaytirish va raqobatbardoshlilagini oshirish bilan bog'liq tadbirlargagina sarflanishi mumkin eki boshqacha qilib aytganda bo'shaydigan mablag'lar yuqoridagi tadbirlargagina investitsiya qilinishi mumkin. Aks holda, ya'ni bo'shaydigan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanilgan hollarda ushbu mablag'lar, amaldagi qonun hujjalarda nazarda tutilgan jarimalarni hisobga olgan holda to'liq hajmda byudjetga undiriladi.

Soliqlar bilan investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni yoritar ekanmiz, shuni alohida qayd etishimiz lozimki, investitsiyalarning o'sishi ham o'z navbatida soliqqa tortiladigan bazaning oshishiga olib keladi. Yuqoridagi misolimizga qaytadigan bo'lsak, malakatimiz soliq tizimida amal qilayotgan ushbu imtiyozlar investitsiyalarni o'sishiga olib kelishi bilan birgalikda kelajakda soliq bazasini ham kengayishiga xizmat qiladi.

Soliqlar vositasida yangidan yaratilgan qiymat ko'proq miqdorda davlat tomonidan o'zlashtirilsa korxonalarning ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi. «Pekin bunda shuni ham ta'kidlash o'rinniki, buning ham ayrim ijobiy jihatlari mavjud. Ma'lumki, davlat siyosatining muhim yo'naliшlaridan

biri norentabel sohalarga investitsiya kiritishdan iborat. Ishlab chiqaruvchilarga qanchalik imtiyozlar berilgan bilan ularda norentabel sohalarni investitsiya qilishga moyillikni kuchaytirmaydi. Chunki, ularning bunday faoliyati ularga kelajakda foyda bermaydi. Ana shuning uchun dav lat soliqlar hisobiga shakllantirilgan mablag'lar hisobidan ana shunday sohalarga investitsiya kiritishini ham qaysidir ma'noda soliqlar va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikning bir ko'rinishi sifatida izohlash mumkin.

Mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati investitsiyalarni jalg qilishga va shu orqali soliqqa tortiladigan bazaning kengayishiga, iste'mol tovarlarini ko'payishiga xizmat qiladi. Soliqlar vositasida investitsiyalarni keng jalg qilish mumkin, lekin investorlar ko'proq rentabelli sohalarga mablag' yo'naltiradilar, ularning norentabel sohalarga investitsiyalarni sarflash moyilligi kam. Davlat esa soliqlar vositasida investitsiyalarni norentabel sohalarni rivojlantirishga yo'naltirishi har bir davrda o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Soliq siyosatining mohiyatini tushuntirib bering?
2. Soliq siyosatining qanday shakllari mavjud, ularni izohlab bering.
3. Soliq konsepsiysi nima?
4. Soliq siyosati tasnifi deganda nimani tushunasiz?
5. Soliq siyosati strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. Soliq siyosati taktikasini izohlab bering.
7. Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq organlarining roli?
8. Investitsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq siyosatining o'mni?

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" deb nomlangan kitobi.-T.:O'zbekiston. 2017 yil.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi.7 fevral 2017 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2017 yil 15 avgust, F-5024-son.
4. "French corporate taxes (in French)". *French government. 2014.* Retrieved2014-03-20.
5. "Individual income tax rates table". *KPMG. 2013.* Retrieved 2013-07-10.
6. "French VAT since 2014 (in French)". *French government. 2014.* Retrieved2014-03-20.
7. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. (darslik) –T.: «Iqtisod-moliya», 2010 yil.- 540 bet.
8. Vaxobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: Sharq. 2009. - 448 b.

9. Tyutyuryukov N.N. Nalogovie sistemi zarubejníx stran: ucheb. – M.: Dashkov i K, 2010. – 176 s.

10. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qumitasi. Soliq akademiyasi, 2007.-202 b.

11. Azizov O.M. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» (o'quv qo'llanma)- T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005 yil.- 150 bet.

## **2-mavzu. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayoniga xalqaro soliq andozalaridan foydalanish (2 soat)**

### **Reja**

1. Soliq yuki va uni aniqlash tartibi.
2. Iqtisodiy taklif nazariyasi.
3. Soliq yukining yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri
4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirishning huquqiy tartibga solinishi.
5. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining to'lash muddati va tartibi. Soliq qarzining vujudga kelish sabablari va ularni oldini olish bo'yicha choralar.
6. Soliq majburiyatlarini bajarilishi ustidan Davlat soliq xizmati organlarining nazorati.
7. Soliqlarni undirishda Davlat soliq xizmati organlarining bank muassasalari va boshqa organlar bilan xamkorligi.

**Kalit so'zlar:** Soliq huquqbuzarligi, Ma'muriy huquqbuzarlik, Ma'muriy jazo, Soliq qarzi, Penya.

### **1. Soliq yuki va uni aniqlash tartibi.**

Soliq tushumlarining darajasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga keladi, balki soliq tizimidan samarali foydalanishga va uning o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga ham bog'liq bo'ladi. Bu funksiyalarning ta'siri haqida xo'jalik sub'ektlaridagi soliq yuki orqali muloxaza qilish mumkin.

Xo'jalik sub'ektlariga soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo'lib, har qanday soliq tizimining sifat tasnifini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, olinayotgan soliqlar darajasi, bir tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi, boshqa tomondan esa davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan extiyoji miqdori bilan belgilanadi. Shu sababli soliq yukining og'irligini kamaytirish, birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish va ijtimoiy xizmatlarning to'lovilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Soliq yuki, ko'pchilik o'ylaganidek, to'g'ri ma'nodagi og'irlilik o'lchovi emas. U ko'chma ma'nodagi og'irlilik o'lchovidir. Soliq yuki nisbatning ifodasi bo'lganligi uchun koeffitsentda yoki foizda ifodalanishi mumkin. Amaliyotda soliq yukining og'irligini foizda aks ettirish qabul qilingan.

Soliq yuki - soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to'lovlaring yig'indisini ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to'g'ri soliqlarda soliq og'irligi aynan soliqni byudjetga hisoblab o'tkazuvchi soliq to'lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda esa soliq yuki soliqni to'lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat) larni iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdag'i yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq yukining bir yilda byudjetga to'langan barcha majburiy to'lovlari yig'indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukining darajasi o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, infliyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funktsiyalarni qo'llashiga, qolaversa bozor munosabatlarining rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Ayrim mutaxassislar soliq tizimining samaradorligini YaIMda soliqlarning hissasi bilan bog'laydilar. Boshqa bir guruhdagi mutaxassislar esa soliq yukini to'lovlarining barchasini birlashtirish yo'li bilan hisoblashni tavsija etadilar.

Jamiyat a'zolariga soliq yukining taqsimlanish darajasini tavsiflab aytish mumkinki, ishlab chiqarishdagi aksariyat soliqlar, xususan, egri soliqlar tovar tannarxi tarkibiga kiritiladi va pirovard natijada iste'molchi zimmasiga tushadi. Aholining soliq yukini, jon boshiga soliq salohiyatini olinadigan o'rtacha boshiga daromadga nisbatan aniqlash mumkin.

Soliq yukini aniqlashda absolyut va nisbiy soliq yukini farqlash lozim. Absolyut soliq yuki - bu jami to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlari bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladi, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq majburiyatlarining absolyut miqdoridir. Statistik hisobotlarda bu ko'rsatkichga haqiqatda soliq to'lovlaring byudjetga o'tkazilganini va byudjetdan tashqari fondlarga o'tkazilgan majburiy sug'urta badallarini, shuningdek, bu to'lovlari bo'yicha boqimandalik kiritiladi.

Biroq, absolyut soliq yuki soliq majburiyatlarining ziddiyatini ifodalamaydi. Bu ko'rsatkich soliq to'lovchilar miqdori bilan to'lash manbalarining mosligini aks ettirmaydi. Shu sababli, nisbiy soliq yuki ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nisbiy soliq yuki deb uning absolyut miqdorining yangidan yaratilgan qiymatga munosabati tushuniladi, ya'ni soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlari hissasi hamda yangi yaratilgan qiymatdagi boqimandalik ham bunga qo'shiladi.

Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko'rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko'rsatkich sifatida muayyan vaqt oralig'ida davlat byudjetiga kelib tushgan soliqlar yig'indisini ana shu vaqt oralig'ida yaratilgan YaIM yoki MD ga nisbati olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to'g'ri keladigan soliq yuki ifodalansa. Mikrodarajada esa aniq bir olingan sub'ektga to'g'ri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

Soliq to'lovlarini to'lash manbai bo'lib qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat - tovar va xizmatlar qiymati bo'lib, oraliq iste'molga kamaytiriladi, ya'ni keyingi ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan iste'molga kamaytiriladi. Soliqlarni undirishning turli usullari bir maqsadni, ya'ni qo'shilgan qiymatning bir qismini olishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida soliq yukining ta'sirchanligi shubhasizdir. Uning ta'siri, umumiyo ko'rinishda, salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin. Soliq yuki og'irlashgan paytda tadbirkorlik faoliyati susayadi va hatto, umuman to'xtab qolishi ham mumkin. Aksincha, soliq yukining nisbatan engillashuvi tadbirkorlik faoliyatining faollashuviga olib keladi. Lekin soliq yukini engillashtirishni tadbirkorlikni rivojlantirishning yakka-yu yagona sababi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq emas. Undan tashqari soliq yukini engillashtirish ham o'zining mantiqiy chegarasiga ega bo'lib, bu chegara ko'p jihatdan davlat byudjetidan qilinishi lozim bo'lган xarajatlarning hajmi bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan hozircha bizning nazarimizda O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yanada faollashtirish uchun soliq yukini yanada engillashtirish emas, balki mavjud tarkib topgan soliq yukini iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtaida qayta taqsimlashni dolzarb masala sifatida qaramoq lozim.

Respublikamiz soliq siyosatini takomillashtirishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq yukini kamaytirishga ahamiyat berilmoqda. Soliq yukini aniqlashning turli mamlakatlarda, shu jumladan, respublikamizda ham o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, lekin soliq yukini aniqlashning eng maqbul usullarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Ma'lumki, soliq yuki ham ishlab chiqaruvchilar, ham iste'molchilar zimmasiga tushadi. Biroq yo'qotish hajmi odatda bir xil bo'lmaydi. Soliq yukining xususiyati bozor talabi va bozor taklifining egiluvchanligiga bog'liq bo'ladi.

Ortiqcha soliq yuki jamiyatning soliqqa tortiladigan tovarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishni ularning maqbul darajasidan qisqartirish oqibatida ko'rgan zarari hajmidir. Bu qoidadan kelib chiqadigan xulosa shuki, davlat iqtisodiyotni haddan tashqari katga soliqlar bilan qiyab qo'ymaslik uchun o'zining qayta taqsimlash siyosatini haqiqiy "zarur minimum" bilan cheklashi lozim. Nega deganda,

daromadlarni qayta taqsimlash, biz aniqlaganimizdek, jamiyat uchun muayyan yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

Respublikamiz soliq siyosatida mahsulot ishlab chiqaruvchi sohalar va jismoniy shaxslar uchun soliq og'irligini tobora kamaytirib borish tadbirlari ko'rilmoxda. Prezidentimiz Islom Karimovning yil yakunlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining yig'ilishlarida so'zlagan nutqlarida ta'kidlanganidek, yildan-yilga, avvalo ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarimiz bo'yniga tushayotgan soliq og'irligi tobora kamayib bormoqda. Masalan, 2015 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat byudjetiga undirilgan soliq ulushi 20 foizgacha qisqardi. Ko'pgina xorijiy davlatlarda bu ko'rsatkich hozir o'rtacha 30-33 foizni tashkil etadi. Eng muhimmi, soliq oyukini bundan buyon ham kamaytirish siyosatini yurgizish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirib borish, ayniqsa, tabiiy va mineral xom ashyolardan foydalanish borasida korxonalar faoliyatiga ta'sir doirasini kuchaytirish lozim.

Soliq yukini kamaytirish iqtisodiyotimizda yuridik shaxslarning o'z ixtiyorida qoladigan daromadlarini ko'paytirish va shu orqali ishlab chiqarishni kengaytirish, kreditorlik qarzlarini kamaytirish va nihoyat, boqimandalar bo'lmasligiga olib keladi. Bu esa soliqlarning iqtisodiyotga ta'sirini yanada kuchaytiradi, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Ko'pchilik xollarda soliq yuki ikki xil tarzda (usulda) hisoblanadi. Birinchi xolda soliq yukini hisoblashda faqat soliqlarning sof miqdori inobatga olinadi. Ikkinci xolda esa soliqlarning tarkibiga boshqa ijtimoiy ajratmalar yoki boshqa maqsadli fondlarga ajratmalar xam qo'shib hisoblanadi. Bularning har ikkalasi soliq yukini aniqlashdagi nisbatning (kasrning) suratini tashkil etgan xolda, uning maxraji esa ikkala holda ham bir ko'rsatkichga – YaIMning miqdoriga teng bo'lishi kerak.

## **2. Iqtisodiy taklif nazariyasi.**

Jahon iqtisodiy taraqqiyotida o'zining muayyan o'mniga ega bo'lган taklif iqtisodiyoti nazariyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi soliqlarni kamaytirish va korporatsiyalarga soliq imtiyozlarini berishni nazarda tutadi. Ushbu nazariyaga ko'ra yuqori soliq stavkalari tadbirkorlik qiziqishini kamaytiradi va investitsiya siyosati, ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishni cheklab qo'yadi. Bu nazariyaning asosiy g'oyalaridan biri davlat xarajatlarini kamaytirishdir. Ularning shiorlaridan biri tartiblovchi kuch - bu bozorning o'zidir, davlat boshqaruvi va yuqori soliqlar faqatgina uni normal amal qilishiga xalaqit beradi.


Soliq stavkalari shkalalarini shakllanish darajasi bo'yicha umumiy qonun bor. Keng soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan kamroq soliqqa tortish stavkasini qo'llash, etarli darajada kam bo'lган soliq bazasiga nisbatan esa buning teskarisi, alohida soliq

turlarini yuqori stavkada qo'llash kerak. Ko'rinib turibdiki yuqori va past soliq stavkalari xo'jalik faoliyatiga va tadbirkorlarni ish faolligiga har xil ta'sir ko'rsatadi.

A.Smitning fikricha soliq yukini kamaytirilishi natijasida davlat ko'proq yutadi, ya'ni soliqdan ozod bo'lган summadan ortiqcha daromad olish mumkin va natijada olingan daromad soliqqa tortish uchun qo'shimcha soliqqa tortish ob'ekti bo'ladi. Shu bilan birga soliq to'lovchilar soliq summasini o'z xohishlari va engillik bilan byudjetga o'tkazib berishadi. Bu esa davlatni ortiqcha xarajatlardan, ya'ni soliqlarni undirish, soliq bo'yicha jinoyatlarni topish va unga nisbatan jazolarni qo'llash xarajatlarini kamaytiradi. A.Smitning bu g'oyalari uning davomchilariga emas, balki keyingi iqtisodchi olimlar uchun aksioma bo'lib qoldi.

1980 yillarda iqtisodiy taklif nazariyasini rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar M.Bernson, G.Stayn va A.Lafferlardir. Bu olimlar soliq stavkalarini pasaytirish orqali soliqni progressivligini kamaytirishga erishish, bu esa korxonalarni keljakda investitsiya qilishlari uchun jamg'arma manbalarini ko'payishiga olib keladi deb hisoblashgan.

A.Laffer progressiv soliq stavkasi va byudjet daromadlarini parabola ko'rinishidagi egri chiziq bilan ifodaladi va u quyidagi fikrga keldi: soliq stavkasini pastligi xususiy sektorning investitsiya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab iqtisodchilar soliq to'lovchilarning daromadini byudjetga olishning chegarasi borligi va soliq og'irligini ko'paytirib yubormaslik haqida yozib o'tganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishni o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va byudjet xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatadi.



A.Laffer egri chizig'i.

Bunda:

**BD** – byudjet daromadlari;

**Sst** – soliq stavkasi (0 dan 100 foizgacha);

**BD<sub>max</sub>** – byudjetga tushumlarning mumkin bo'lган maksimal darajasi;

**Sst\*** - byudjet daromadlarining eng yuqori darajasini ta'minaydigan optimal soliq stavkasi.

A.Lafferning hisobiga ko'ra soliqlarni kamaytirish natijasida iqtisodiyotning o'sishi va davlat daromadlarining o'sishini isbotlab bergan. Bu tarixda Laffer egri chizig'i deb ataladi. Soliq stavkasi ma'lum darajaga etishi soliq tushumlarini ko'paytiradi, uning yanada oshirilishi aksincha soliq tushumlarini kamaytiradi. Iqtisodiy sub'ektlarning soliq stavkasining dinamikasiga ta'siri bir ondayoq sezilmaydi, balki qandaydir vaqt o'tgandan so'ng seziladi. Laffer egri chizig'i davlat daromadlarining o'sishi soliq stavkalarining kamayishiga ob'ektiv bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bu egri chiziqda yotuvchi fundamental g'oya shundaki, soliq stavkasining chegarasi qancha yuqori bo'lsa, individlarni soliqni to'lashdan chetlashlari shuncha ko'p bo'ladi. Chunki odamlar soliq to'lash uchun ishlayaptimi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Agar tadbirkor o'zining ishlab chiqarish faoliyatidan daromad olish kelajagiga ishonmasa, ya'ni uni daromadlari yuqori progressiv stavkali soliqlar bilan olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkor bozorda normal faoliyat ko'rsatmay qo'yadi. Daromadning ko'p qismi soliqlar orqali tortib olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkorni ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangilashga va yangi ishlab chiqarishga investitsiya qilishga qiziqishi yo'qoladi.

Soliq stavkasining o'sishi faqatgina ma'lum darajaga etgunicha byudjetga tushadigan daromadlarni o'sishiga olib keladi, keyin bu o'sish sekinlashadi va yana oshgan sari byudjet daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib soliq stavkasi ma'lum darajaga etganidan tadbirkorlik tashabbusi o'ladi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to'lovchilarning bir qismi iqtisodiyotni "qonuniy" sektordan "yashirin" sektoriga o'tadi. Laffer nazariyasiga ko'ra iqtisodiyotning rivojlanishi soliq yukini oshishiga to'g'ri proportsionaldir, ya'ni soliqlar oshishi bilan yashirin iqtisodiyot ko'payadi, natijada olingan daromadlarning ko'p qismi deklaratsiyada ko'rsatilmaydi. Bunga aksincha, soliqlarni kamaytirilishi iqtisodiyotni rivojlantirishga rag'bat beradi. Bu esa davlat daromadlarini soliq stavkasi va yukini ko'payishi hisobiga emas, balki soliqqa tortiladigan bazani ko'payishi hisobiga oshadi.

### **3. Soliq yukining yalpi talab va yalpi taklifga ta'siri**

Soliqlarning joriy qilinishi va mavjud soliq tizimiga o'zgarishlar kiritilishi bevosita yoki bilvosita yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etadi. Tovar narxi qancha yuqori bo'lsa, uni sotib olishga tayyor xaridorlar shuncha kam va uni ishlab chiqaruvchilar esa ko'proq taklif qiladilar. Bozor muvozanati talab va taklif kesishgan nuqtada to'xtaydi.

Talabning egiluvchanligi xaridorning taklif qilinayotgan tovari sotish shartlariga bog'liq ravishda (eng avvalo, narxiga qarab) sotib olishga tayyorligi darajasini ko'rsatadi. Xaridorlar kelishuvga qanchalik ko'p intilsalar, talab shunchalik kam egiluvchan bo'ladi. Talab egiluvchan bo'lmasa, sotuvchilar soliq yukini xaridorlar zimmasiga osongina o'tkazib yuboradilar.

Talabning narx egiluvchanligi asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

1) O'rnini bosuvchi tovarlarning mavjud bo'lishi. Agar bozorda bir-birining o'rnini bosuvchi tovarlar qancha ko'p bo'lsa, talab ham shuncha egiluvchan bo'ladi: xaridorda qimmat tovarlarning o'rniga arzonrog'ini sotib olish imkoniyati tug'iladi. Lekin bozorda bir-birining o'rnini bosadigan ne'matlar mavjud bo'lmasa, xaridor belgilab qo'yilgan narxga ko'nishga majbur bo'lib, bunday holatda talab egiluvchan bo'lmaydi.

2) Tovarga ketgan xarajatlarning xaridor byudjetidagi ulushi. Ne'matlar qiymati xaridor byudjetida qanchalik katta o'rinni tutsa, unga talabning egiluvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi. Agar qalamning narxi 10 foiz ko'tarilsa, unga talab sezilarli darajada pasaymasligi mumkin: qalamning narxi shu qadar kichikki, xaridor bu tovar narxi oshganini payqamasligi ham mumkin. Lekin avtomobilning narxi 10 foiz oshsa (boshqa teng shartlar qatorida), talab ancha-muncha kamayib ketishi aniq: narxning mutlaq o'sishi xaridorning "hamyoni" uchun haddan ziyod katta bo'ladi.

3) Tovarning foydalilik darjasи. Kundalik ehtiyoj tovarlariga talab odatda egiluvchan bo'lmaydi; ziynat buyumlariga talab esa egiluvchandir. Masalan, non, gugurt, tuzga talab an'anaviy egiluvchan sanalmaydi. Aksincha, qimmatbaho, ko'ngilochar va shu kabi boshqa buyumlarga talab bir muncha egiluvchan bo'ladi.

4) Vaqt omili. Xarid qilish xususidagi qarorga kelish uchun muddat qancha ko'p bo'lsa, talab ham shu qadar egiluvchan tus oladi. Xaridorlar yangi narxga moslashishlari uchun vaqt kerak: ularning didi va iste'mol texnologiyasi asta-sekin o'zgarib boradi. Masalan, qimmatlashgan mol go'shti o'rniga ma'lum muddat mobaynida emish sifatida baliq va parrandalardan foydalaniladi. Mana, boshqa misol: 1970 yillarda G'arb davlatlarida neft narxi ko'tarilishi sababli eski texnologiyalarni energiyani tejaydigan yangi texnologiyalarga almashtirish jarayoni bir necha yil davom etdi, oqibat-natijada neft mahsulotlariga bo'lgan talab keskin kamayib ketdi.

Tovarga talab qanchalik kam egiluvchan bo'lsa soliqning katta qismi iste'molchilar zimmasiga tushadi, chunki bozordagi narx keskin ko'tariladi. Buning aksicha, xaridorlar qimmatlashgan tovarlarni olishdan osongina voz kechsalar narx deyarli ko'tarilmaydi va zararni sotuvchilarning o'zlarini qoplashga majburdirlar.

Taklifning egiluvchanligi sotish sharoiti o'zgarganda taklif etilayotgan tovarlarning miqdorini sotuvchilarning ko'paytirish yoki kamaytirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Sotuvchilar kelishuvga qanchalik ko'p intilsalar, bozor taklifi

shunchalik kam egiluvchan bo'ladi. Taklif egiluvchan bo'lmanida soliq yukini ma'lum darajada ishlab chiqaruvchilar o'z zimmalariga olishga "rozi" bo'ladilar.

Soliq stavkalarini o'sishi davlat byudjeti daromadlarini oshirishga qaratilganligi bilan u ma'lum muddatgacha amal qiladi. Davlat soliq stavkalarini o'zgartirish orqali iqtisodiyotga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Lekin davlatning soliq stavkalarini yuqori yoki past qilib belgilashi natijasida yalpi talab va taklifning egiluvchanligiga qay darajada ta'sir etish muammosi paydo bo'ladi.

Taklif egiluvchanligining asosiy omili tovar sotish sharoiti o'zgarishiga munosabat bildirish uchun ishlab chiqaruvchi ixtiyorida mavjud bo'lgan vaqt miqdoridir. Iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida resurslarni (ishchi kuchi, uskunalar, xom ashyo) qayta taqsimlash ma'lum muddatni talab etadi. Binobarin, tadbirkorlar ixtiyoridagi vaqt qancha ko'p bo'lsa, ular ishlab chiqarishning tuzilishini o'zgargan bozor sharoitiga moslashtirish uchun shunchalik katta imkoniyatga ega bo'ladilar hamda taklifning egiluvchanligi ham ortadi.

Egiluvchan taklifli vaziyatda bilvosita soliq joriy etilganda ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash hajmini osongina qisqartirib, shu hisobdan bozorda narxni ko'tarishlari ko'rsatilgan. Bunday holatda soliq yukining katta qismi xaridor zimmasiga o'tkaziladi. Aksincha, taklif egiluvchan bo'lmanida ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash hajmini keskin darajada qisqartira olmaydilar va bozorda narx deyarli o'zgarmaydi. Bunday holatda soliq to'lovlarining asosiy qismini tadbirkorlarning o'zлari qoplaydilar. Shunday qilib, soliq narxning o'sishi orqali iste'molchi zimmasiga o'tishi mumkin. Soliqning iste'molchi zimmasiga o'tkazilishi bozorning o'ziga xos xususiyatlari, bozor talabi va taklifiga bog'liqdir. Agar tovarga talab barqaror bo'lsa, ya'ni kam egiluvchan vaziyatlarda soliqlarni iste'molchilar zimmasiga mahsulot bahosini ko'tarish yo'li bilan o'tkazishi mumkin. Agarda talab egiluvchan bo'lsa bahoni ko'tarishga bo'lgan intilish tovar hajmining, shunga tegishli ravishda ishlab chiqarish, foyda va soliq hajmlarining kamayib ketishiga olib keladi. Talabning egiluvchanligi soliqqa tortishni tartibga solib turuvchi va cheklaydigan omildir.

#### **4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirishning huquqiy tartibga solinishi.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar", 123-moddasida "O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli" – deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 1-moddasiga asosan Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 2-moddasiga asosan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari Soliq kodeksidan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Soliq kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar ushbu Kodeks qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak. Normativ-huquqiy hujjatlar ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq bo'limgan taqdirda, ushbu Kodeks qoidalari qo'llaniladi.

Soliq kodeksining 22-moddasiga asosan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan Soliq kodeksda belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanktsiyalar **Soliq qarzi** deb e'tirof etiladi.

Soliq kodeksining 32-moddaga muvofiq soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi shart.

Soliq kodeksining 34-moddaga asosan soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi:

- ❖ soliq kodeksda belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi;
- ❖ soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;
- ❖ moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi;
- ❖ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart.

Soliq qarzlari vujudga kelish omillari:

o'zaro moliyaviy - xo'jalik munosabatda bo'lgan xo'jalik sub'ektlari tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debtorlik, kreditorlik qarzlarini oshib ketishi;

moliyaviy - xo'jalik faoliyatni rejalashtirishda va rejalashtirilgan faoliyatni noto'g'ri boshqarish;

xo'jalik sub'ektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;

ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarning) sifati buyurtmachini yoki bozorni talabiga javob bermasligi;

soliq to'lovchi tomonidan byudjet oldida soliq qarzini vujudga kelishining eng asosiy sabablaridan biri - korxonaning moliyaviy holatining barqaror emasligi, shu jumladan debtorlik va kreditorlik qarzlarini oshib borishidir.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjet oldidagi soliq qarzdorligi turlari:

**1. Joriy soliq qarzdorligi** - xo'jalik yurituvchi subektlari tomonidan Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lanmasligi natijasida vujudga keladi.

**2. To'lov muddati o'zaytirilgan soliq qarzdorligi -**

**3. Umidsiz qarzdorlik** - sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'limgan qarz.

Soliq qarzdorliklarining eng asosiy sabablaridan biri bu soliq to'lovchilarning moliyaviy ahvoli tanglashishidir.

Korxonalarning moliyaviy holati yomonlashuviga esa yuqori soliqqa tortish darajasi (soliq yuki) ham **bevosita**, ham **bilvosita** ta'sir qiladi.

Yuqori soliq yukining bevosita ta'siri - Soliq bosimi korxona uchun kuchli bo'lsa, soliq xarajatlari oshib borsa uning aylanma mablag'lari qisqarib boradi, o'zaro xo'jalik operatsiyalarini bo'yicha to'lovlarda qarzdorliklar yuzaga kela boshlaydi.

Bu esa, o'z navbatida, korxona moliyaviy faoliyatini izdan chiqarib yuboradi. Natijada to'lovga qobililik pasayib, soliqlarni to'lash imkoniyati qisqaradi yoki butunlay yo'qoladi. Ana shu tariqa byudjet hamda maqsadli jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha boqimandalar yuzaga keladi.

Yuqori soliq yukining bilvosita ta'siri - o'z iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishida xom ashyo va materiallarni sotib ola turib, korxona bilvosita soliqqa tortiladi (xom ashyo va materiallar tarkibidagi QQS va boshqa soliqlarni to'laydi). Mabodo, xom ashyo va materiallar monopol sotuvchidan xarid qilinsa, ya'ni sotib oluvchi korxonada tanlash imkoniyati bo'lmasa, yuqori stavkali soliqlar sharoitida ushbu bilvosita to'langan soliqlar korxonaning moliyaviy faoliyati izdan chiqishini tezlashtiradi. Bu ayniqsa, yoqilg'i, energiya va tabiiy resurslardan foydalanuvchi korxonalar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

**Yuqori stavkali** soliqlar – ayniqsa 20 foizli QQS, jamlangan stavkasi 3,5 foiz bo'lgan oborotdan ajratmalar va 25 foizli yagona ijtimoiy to'lov boqimandalar yuzaga kelishining asosiy sabablaridan hisoblanadi, chunki bunday soliqlar yuki korxonaning etarli aylanma mablag'lar bilan faoliyat yuritishiga imkon bermaydi.

**Moliyaviy sanktsiyalar** – soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganlik yoki soliq qonunchiligi va boshqa normalarni buzganlik uchun penya va moliyaviy jarimalarga duchor bo'ladigan xo'jalik sub'ektlari ko'pchilikni tashkil qiladi.

Moliyaviy sanktsiyalar esa ular zimmasiga qo'shimcha yuk bo'lib, oborot mablag'larining yanada kamayishiga va natijada boqimanda qarzlarning paydo bo'lishi va ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Soliq va majburiy to'lovlarini to'lash bo'yicha belgilangan muddatlarning tig'izligi, ayrim soliq turlari bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlarining mavjudligi korxona aylanma mablag'larining byudjetga tez-tez olib qo'yilishiga, korxona moliyaviy faoliyatiga sezilarli halaqit berishiga, korxonaning penya to'lashiga, uning byudjet va boshqa korxonalar oldida kreditorlik qarzi yuzaga kelishiga va oxir oqibat korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatining izdan chiqib, boqimandalar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda boqimanda qarzdorliklarning mavjudligi va ular miqdorining ortib borishiga quyidagi xolatlarning mavjudligi ham sabab bo'lmoqda:

➤ Byudjetdan qarzdorligi bo'la turib boshqa hisob-varaqlar orqali pul operatsiyalarini amalga oshirish amaliyotining mavjudligi;

➤ Xo'jalik sub'ektlari tomonidan belgilangan muddatlarda byudjet va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlarni amalga oshirmsandan mablag'larini boshqa maqsadlarga yo'naltirish;

- Soliq organlari tomonidan vaqtida inkasso topshiriqnomalarini soliq to'lovchining banklardagi hisobraqamlariga qo'ymaslik;
- Yirik soliq to'lovchilar tomonidan banklardagi hisobraqamlari K-2 bo'lganligi munosabati bilan, qoshida sho''ba korxonalari ohib asosiy oborotini ular orqali amalga oshirish;
- Asosiy hisobraqamidan tashqari boshqa banklarda ikkilamchi hisobraqamlari ohib oborotini amalga oshirish;
- Banklar ishtirokisiz hisob-kitoblarni amalga oshirish (tovar ayriboshlash, qarzini uchinchi shaxs foydasiga kechish) holatlari hisobiga sodir etilishi;
- Soliq va to'lovlari bo'yicha boqimanda qarzdorlikning yuzaga kelishini boshqa sabablari mavjud.

Soliq qarzini majburiy undirishning qo'shimcha chora-tadbirlari:

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik protsessual kodeksining 102-103-moddalari asosida Sud buyrug'i berish bo'yicha ariza kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 21 iyunda 753-raqam bilan ro'yxatga olingan «Hisobvaraqlarida xorijiy valyuta mablag'lari bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjet oldidagi majburiyatlarini to'lash tartibi»ga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobvaraqlarida milliy valyutada mablag'lari bo'lмаган va hisobvaraqlarida chet el valyutasida mablag'lari bo'lган paytda Davlat soliq xizmati organlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga xizmat ko'rsatuvchi banklarga butun qarz summasiga inkasso topshiriqnomalarini qo'yadi.

Vakolatli bank davlat soliq xizmati organining taqdimnomasini olib, xo'jalik yurituvchi sub'ektning chet el valyutasidagi hisobvarag'ini zarur mablag'lar mavjudligini bilish maqsadida tahlil etib, valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasida sotish kunidagi kurs bo'yicha, byudjet oldidagi qarzni to'lash uchun zarur bo'lган hajmlarda sotishni so'zsiz tartibda amalga oshiradi va qarzdor korxonaning milliy valyutadagi talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'iga so'mda o'tkazadi. Bunda pul mablag'larini hisobdan chiqarish Adliya vazirligida 2012 yil 15 martda 2342-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomaga muvofiq o'tkaziladi.

Soliq organlari tomonidan kiritilgan da'vo arizasi sud tomonidan o'z vaqtida ko'rib chiqilmagan, rad etilgan, qisman qanoatlantirilgan yoki qanoatlantirilmagan hollarda belgilangan tartibda yuqori instantsiya sudlariga appelyatsiya va kassatsiya shikoyatlari kiritadi.

Sud qarorlarini ijro qilish bo'limlari tomonidan ijrosiz qaytarilgan ijro hujjatlari soliq organlari tomonidan ularning asosliligi o'rganilib, etarli asosga ega bo'lмаган holatlar bo'yicha qayta ijro uchun yuboradi va bu haqda tegishli sud organiga taqdimnomaga yuboradi.

Soliq kodeksining 66-moddasiga asosan umidsiz soliq qarzini hisobdan chiqarish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamda O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) talablari asosida tahlillarni amalga oshiradi.

Qonunda belgilangan muddatlarda ijro qilinmagan sud ijro hujjatlari bo'yicha Adliya va prokuratura organlariga taqdimnomalar kiritadi.

**Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:**

- 1) u tugatilganida;
- 2) u qo'shib olish (qo'shib olingen yuridik shaxsga nisbatan), qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin.

Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

**Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:**

- 1) vafot etishi bilan;
- 2) vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan;
- 3) Sud tomonidan bedarak yo'qolgan yoki muomilaga layoqatsiz deb topilganda.

Vafot etgan jismoniy shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini, qat'iy belgilangan soliqni va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lash bo'yicha qarzi umidsiz qarz deb e'tirof etiladi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning meros qilingan mol-mulkini qabul qilgan merosxo'ri (merosxo'rlari) tomonidan, meros qilingan mol-mulkning qiymati doirasida va merosdagi ulushga mutanosib ravishda, meros qabul qilib olingen kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmasdan bajariladi. Vafot etgan jismoniy shaxs to'lashi lozim bo'lgan penya va (yoki) jarimalarni to'lash majburiyati merosxo'rga (merosxo'rlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning mol-mulki etarli bo'lman (yo'q bo'lgan) taqdirda, uning soliq qarzining ko'rsatilgan mol-mulk qiymatidan ortiq qismi **umidsiz qarz** deb e'tirof etiladi.

Sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan jismoniy shaxsning soliq qarzi qonun hujjatlariga muvofiq bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning vasiysi tomonidan muomalaga layoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

**Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi:**

- hududiy Davlat soliq inspeksiyasida hisobga turishi;  
soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;

moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni hududiy Davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etishi;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart.

Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi, lekin istisno tariqasida Soliq kodeksiga va boshqa qonunlarga muvofiq soliq majburiyatini bajarish boshqa shaxsga yuklatilishi ham mumkin.

Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda bajariladi.

Soliq solinadigan mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassisi bo'lgan soliq to'lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo'lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin.

Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan Soliq kodeksda nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta'minlash choralarini qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonunida Davlat soliq xizmati organlariga belgilab berilgan asosiy vazifalaridan biri soliqlarni undirish hisoblanadi. Byudjet, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar daromadlarini shakllantirishda asosiy manba hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarining o'z vaqtida undirilishini ta'minlashda soliq xizmati organlarining vazifalari va majburiyatlari ham ushbu qonun va Soliq kodeksida o'z aksini topgan.

Soliq xizmati organlariga birinchi navbatda, soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga riosa etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq hajmda va o'z vaqtida byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga to'lanishini nazoratini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq qarzi, shu jumladan qonunchilikda belgilan tartibda qo'llanilgan jarima summalarini qonun hujjatlariga muvofiq, soliq organlarining inkasso topshiriqnomalari asosida bank muassasalari tomonidan soliq to'lovchining bank hisobvarag'idan so'zsiz to'lanishi nazorati ham soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari bo'lgan soliq to'lovchi o'zining bank hisobvarag'ida pul mablag'lari mavjud bo'lishidan qat'i nazar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash muddatidan kechiktirmay ularni xizmat ko'rsatayotgan bankka to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini taqdim etishi shart.

Yuridik shaxslar, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qismi bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash muddati tugaganidan keyin ***uch ish kunidan kechiktirmasdan*** soliq qarzini o'zish to'g'risidagi talabnomaga yuboriladi.

Soliq qarzi summasini o'tkazish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomalari soliq va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash muddati tugaganidan keyin ***uch ish kunidan***

**kechiktirmay**, yakka tartibdagi tadbirkorlarga esa, ***o'ttiz kundan kechiktirmay*** davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim etiladi.

Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnama yuridik shaxs, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qismi bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan olingan kundan e'tiboran ***o'n kun ichida*** soliq qarzini uzmagan taqdirda va inkasso talabnomasi orqali soliq qarzi uzilmay qolaversa, davlat soliq xizmati organlari undiruvni belgilangan tartibda soliq to'lovchiga uning debitorlari o'tkazishi lozim bo'lgan summalarga qaratadi.

Yuridik shaxs, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qismi bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnomani olgan kundan e'tiboran ***o'ttiz kun ichida soliq qarzini uzmagan*** taqdirda va inkasso talabnomasi hamda debitor qarzi hisobidan mol-mulkka qaratish uchun, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan ko'p bo'lgan summadagi soliq qarzi uzilmay qolsa, davlat soliq xizmati organlari undiruvni belgilangan tartibda soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratadi.

Jismoniy shaxs soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnomani olgan kundan e'tiboran ***o'n kun ichida*** uni bajarmagan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari jismoniy shaxsdan soliq qarzini undirish to'g'risidagi ariza bilan belgilangan tartibda sudga murojaat qiladi, soliq qarzi summasi mol-mulkka qaratish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan oz bo'lgan hollar bundan mustasno.

Soliqlarni undirishda hududiy Davlat soliq inspekteziyasining bank va boshqa kredit muassasalari bilan hamkorligi talab etiladi, o'zaro hamkorlikning asosiy qismi soliqlarni undirish masalalariga to'g'ri keladi.

Birinchidan, soliq to'lovchilarning hisobga olinishini va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hududiy Davlat soliq inspekteziyasa ro'yxatga olinganliklarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirdagina ular uchun hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlari ochishlari mumkinligi belgilangan.

Ikkinchidan, faoliyatini tugatayotganda yoki boshqa sabablarga ko'ra bank muassasidagi asosiy hisob raqamini yopish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan murojaat qilinganda, bu sub'ektlarning byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarganliklari(ya'ni barcha soliq va majburiy to'lovlarini to'laganliklari haqidagi, Davlat byudjeti oldida qarzi yo'qligi haqidagi ma'lumotnomasi) to'g'risida hududiy Davlat soliq inspekteziyasining xulosasi taqdim etilgan taqdirdagina ularning hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlarini yopishlariga ruxsat beriladi.

Uchinchidan, hududiy Davlat soliq inspekteziyasi tomonidan muddatida to'lanmagan soliq va jarimalarni so'zsiz undirish to'g'risidagi farmoyishlari (inkasso topshiriqlari) bank muassasalari tomonidan, mehnatga hak to'lash va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovлага mutanosib ravishda bajarilishi lozim.

**Inkasso topshiriqnomasi** – soliq to'lovchi yuridik shaxsning byudjet va maqsadli jamg'armalardan bo'lgan qarzdorlik summasini Davlat soliq xizmati

organlari tomonidan uning bankdagi hisob raqamidan so'zsiz undirish haqidagi hujjat.

bank muassasalari soliq qarzi mavjud bo'lgan mijozlarining hisob-kitob yoki boshqa hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish operatsiyasi amalga oshirilgan kuni, mijozning soliqlar va majburiy to'lovlar hamda jarima summalarini byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar daromadiga o'tkaziladi.

yuridik shaxslarning so'mdagi mablag'lari etishmagan va valyuta hisobvaragida mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, hududiy Davlat soliq inspeksiyasining taqdimnomasiga ko'ra mazkur valyuta mablag'larini byudjet oldidagi qarzni to'lash uchun zarur bo'lgan hajmda sotuv kunidagi Markaziy bank tomonidan belgilangan kurs bo'yicha valyuta birjasiga sotish va mablag'larni byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalardan bo'lgan soliq qarzini so'ndirishga yo'naltiriladi.

Soliq to'lovchi hisob raqamlariga (debitor korxonasi hisob raqamiga) qo'yilgan to'lov va inkasso topshiriqnomasi quyidagi hollarda soliq organlari tomonidan ijrosiz qaytariladi yoki ijrosi ma'lum muddatga to'xtatiladi:

a) bir vaqtning o'zida, bir soliq to'lovchining bir xil soliq qarziga soliq to'lovchi tomonidan to'lov topshiriqnomasi ham soliq xizmati organi tomonidan inkasso topshiriqnomasi qo'yilganda, bank muassasasiga ikkinchi bo'lib ijroga kelib tushgan to'lov hujjati;

b) byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bo'yicha to'lov majburiyatları vaqtincha yoki butunlay olib tashlanganda (vakolatli organlar qarorlari asosida soliq qarzini to'lashni kechiktirish, hisobdan chiqarish, soliq hisoboti yoki aniqlashtirilgan soliq hisoboti, soliq tekshiruvi natijasida soliq summasi kamaytirishga hisoblanganda);

v) debitor korxonasi hisob raqamiga qo'yilgan inkasso topshiriqnomasi ijrosi bo'yicha soliq qarzi to'langanda (qisman to'langanda, shunga teng qismi);

g) soliq to'lovchi tomonidan debitor korxona bilan o'zaro hisob-kitob qilinganda, soliq to'lovchining yozma murojaati va qarzdorlik qisqarganligini tasdiqlovchi solishtirma dalolatnama taqdim etilgandan so'ng;

d) yuridik manzili o'zgarganligi munosabati bilan yangi ro'yxatdan o'tgan DSI tomonidan soliq to'lovchining bankdagi hisob raqamiga inkasso topshiriqnomalari qo'yilishi munosabati bilan oldingi ro'yxatda turgan DSI tomonidan qo'yilgan inkasso topshiriqnomalari ijrosiz qaytarib olinadi;

e) qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa hollarda.

### **Soliq to'lovchilarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ShHV laridan ko'chirmalar taqdim etish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustdagи «Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

181-sonli qaroriga asosan soliq to'lovchining so'roviga ko'ra byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan o'zaro hisob-kitoblar, ya'ni elektron shakldagi ShHVlar DSQ tomonidan joriy qilingan Interaktiv xizmatlar yordamida internet tarmog'i orqali taqdim etiladi.

**Soliq qarzini to'lash muddatlarini kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkonini berish, hisobdan chiqarish hamda penya hisoblashni to'xtatish**

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlар bo'yicha soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash, hisobdan chiqarish va penya hisoblashni to'xtatish O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Bankrotlik to'g'risidagi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda Adliya vazirligida 2005 yil 14 yanvarda 1442-son bilan ro'yxatga olingan «Byudjet va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlар bo'yicha qarzlarni to'lash muddatini kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkonini berish, penya hisoblashni to'xtatish, shuningdek penya va jarima sanksiyalarini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida»gi Nizom va boshqa qonun hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkonini berish, hisobdan chiqarish va penya hisoblashni to'xtatish vakolatli organlar qarori (sud qarori, Respublika komissiyasining yig'ilish bayonnomasi) asosida yuqori soliq organining yozma ko'rsatmasi bo'yicha amalga oshiriladi. (Ayrim soliq to'lovchilarga joriy qilingan soddallashtirilgan soliq solish tizimi bo'yicha beriladigan imtiyoz bundan mustasno).

Soliq to'lovchi tomonidan topshirilgan soliq hisobotlari (aniqlashtirilgan soliq hisobotlari, ma'lumotnomalar), o'tkazilgan soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlар hamda qo'llanilgan penya va jarimalar bo'yicha soliq qarzi summalarini vakolatli organlar qarorlari asosida hamda amaldagi qonunchilik asosida soddallashtirilgan soliq tizimi joriy qilingan yangi ro'yxatdan o'tgan mikrofirma va kichik korxonalarga berilgan imtiyoz asosida to'lash muddatini uzaytirish, bo'lib-bo'lib to'lash imkonini berish, hisobdan chiqarish va penya hisoblashni to'xtatish – soliq to'lovchining ShKsida «To'lash muddati kechiktirilgan summa» qatorida, muddati tugagandan so'ng, qayta tiklangan summa esa «To'lash muddati tiklangan summa» qatorida, shuningdek hisobdan chiqarilayotgan soliq qarzi esa «Hisobdan chiqarilgan qarz» va «Hisobdan chiqarilgan penya» qatorlarida aks ettiriladi.

Soliq to'lovchiga soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkonini berilgan davrda shu soliq bo'yicha tushgan mablag'lar soliq to'lovchining joriy soliq qarzi hisobiga o'tkaziladi, agarda joriy soliq qarzi mavjud bo'lmasa, Soliq kodeksining 55-moddasiga asosan muddatidan ilgari to'langan summalar sifatida qaralib, soliq to'lovchining roziligi bilan (soliq to'lovchini xabardor qilgan holda), ShKda ushbu summa miqdorida soliq qarzini to'lashni

kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkonini berish muddati belgilangan tugash sanasidan oldin to'lov amalga oshirilgan kun bilan tiklanadi.

To'lash muddati kechiktirilgan davrda soliq to'lovchining muddati kechiktirilgan soliq turi bo'yicha soliq hisoboti yoki aniqlashtirilgan soliq hisoboti asosida ortiqcha to'langan summa hosil bo'lsa, soliq to'lovchini xabardor qilgan holda, ortiqcha to'langan summa miqdorida to'lash muddati kechiktirilgan soliq qarzi summasi tiklanishi natijasida ortiqcha to'langan summasi va muddati kechiktirilgan soliq qarzi miqdori ushbu summaga kamaytiriladi, bunda joriy hisobot davri uchun hisoblangan (hisoblanadigan) soliq yoki majburiy to'lovlar bo'yicha joriy soliq qarzi hosil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

**"Qarz bo'lishdan o'zingni asra – chunki, qarz kunduzi taxqirlanish, kechasi bezovtalanishga olib keladi" (Luqmoni Hakim)**

### **Nazorat uchun savollar**

1. Soliq qarzdorlik mohiyatini tushuntirib bering?
2. Soliq siyosatining qanday shakllari mavjud, ularni izohlab bering.
3. Soliq konsepsiysi nima?
4. Soliq siyosati tasnifi deganda nimani tushunasiz?
5. Soliq siyosati strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. Soliq siyosati taktikasini izohlab bering.
7. Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq organlarining roli?
8. Investitsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq siyosatining o'rni?

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" deb nomlangan kitobi.-T.:O'zbekiston. 2017 yil.

2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi.7 fevral 2017 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2017 yil 15 avgust, F-5024-son.

4. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. (darslik) –T.: "Iqtisod-moliya», 2010 yil.- 540 bet.

5. Vaxobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: Sharq. 2009. - 448 b.

6. Tyutyuryukov N.N. Nalogovie sistemi zarubejnix stran: ucheb. – M.: Dashkov i K, 2010. – 176 s.

7. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qumitasi. Soliq akademiyasi, 2007.-202 b.

8. Azizov O.M. «Xorijiy davlatlar soliq tizimi» (o'quv qo'llanma)- T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005 yil.- 150 bet.

**3-mavzu. AQSH va Kanada davlati soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili (2 soat)**

**Reja:**

**3-mavzu. AQSH va Kanada davlati soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili (2 soat)**

**REJA:**

3. AQSH va Kanada davlatida soliq munosabatlari borasida integratsiyaning vujudga kelishi
4. AQSH va Kanada davlatida soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari
3. Kanada davlati soliq tizimidagi soliq ma'murchiligining tashkil etilishi
4. Kanada davlati soliq tizimida soliq stavkalarining belgilanishi
5. Kanada davlatida soliq tizimining ilg'or tajribalarini O'zbekiston soliq tizimida foydalanish masalalari

AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishining uziga xos xususiyati tug'ri soliqqa tortishning barcha turlarining qullanilishi bilan aniqlanadi. AKSh soliqqa tortish tizimida soliklarning asosiy turlari xokimlik vakolatlarining barcha pogonalari buyicha bir xilda kullaniladi, yani axoli 3 ta daromad soligi, korporatsiyalar 3 ta foya soligi, 2 ta mol-mulkdan olinadigan soliq va xokazo tartibda soliq tulaydilar.

**AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishi**

<b>№</b>	<b>Federal soliqlar</b>	<b>Shtatlar solig'i</b>	<b>Maxalliy soliqlar</b>
1	Daromad solig'i	Daromad solig'i	Daromad solig'i
2	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq
3	Ijtimoiy sug'urta solig'i		
4	Aktsizlar	Aktsizlar	Aktsizlar
5	Bojxona boji		
6	Meros va xadya solig'i	Meros va xadya solig'i	Meros va xadya solig'i
7		Sotuvdan olinadigan soliq	Sotuvdan olinadigan soliq
8		Mol-mulk solig'i	Mol-mulk solig'i
9		Avtotransport egalaridan olinadigan soliq	
10			Ekologiya solig'i

Federal byudjet daromadlarining asosiy qismini axolidan olinadigan daromad solig'i tashkil kiladi. Uning subekti bulib jismoniy shaxslar, yuridik shaxs statusiga ega bulmagan yakka tartibdagi korxonalar va sheriklikka asoslangan korxonalar xisoblanadilar.

Shartli ravishda daromadlar xisobi uch bosqichda amalga oshiriladi:

4. Ish xaqi, pensiyalar, alimentlar, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar, mukofotlar, rentalar va royligi, fermer daromadi, ijtimoiy nafaqalar va ishsizlarga tulanadigan nafaqalar, stipendiyalar, kuchmas mulk daromadlari kabilar yalpi daromadni tashkil etadi.

5. Yalpi daromad ruxsat etilgan xarajatlar va imtiyozlar olib tashlanishi xisobidan qayta kurib chiqiladi. Bularga : savdo yoki ishlab chikarish xarajatlari, sotuvdan yoki qimmatli qog'ozlar almashuvi jarayonlaridan kuriqan zararlar, shaxslarning nafaqa badallari, tulangan alimentlar, avans soliq tulovlari va boshqalar kiradi.

6. Qayta kurib chiqilgan yalpi daromad summasidan tasnif qilingan, yoki qat'iy chegirmalar chiqarib tashlanadi. qolgan summa soliqqa tortiladigan daromad xisoblanadi. Asosiy chegirmalarga quyidagilar kiradi: xar bir qaramokda bulgan odam uchun tulovchiga soliqqa tortilmaydigan minimum, qat'iy chegirmalar, 65 yoshdan katta yoshli shaxslar va nogironlar uchun qushimcha chegirmalar, malakasini oshirish bilan bog'liq yangi yashash joyiga kuchgandagi xarajatlar, xayriya badallari va boshqalar. Kursatilgan chegirmalar qayta kurib chiqilgan yalpi

daromadning 50 foizdan kup bulmagan xajmida amalga oshirilishi mumkin, qolgan 50 foiz esa daromadlardan 5 yil davomida olib tashlanadi.

## **2. AQSH va Kanada davlatida soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari**

AQSH Prezidenti B. Clinton rejasiga asosan kiritilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

### **AQSHda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning tulovchilari.**

<b>Soliqqa tortiladigan daromad (ming \$)</b>	<b>Soliq summasi (ming \$)</b>
<b>1. Yakka soliq tulovchilar</b>	
0-22,1	Daromadning 15%
22,1-53,5	3,315q28%>22,1
53,5-115	12,107q31%>53,5
115-250	31,172q36%>115
250 dan ortiq	79,772q39,6%>25
<b>2.qushma deklaratsiyani tuldiradigan oilaviy soliq tulovchilar</b>	
0-36,9	Daromadning 15%
36,9-89,15	5,535q28%>36,9
89,15-140	20,16q31%>89,15
140-250	5,9q36%>140
250 dan ortiq	75,5q39,6%>250
<b>3.Oila boshliqlari</b>	
0-29,6	Daromadning 15%
29,6-76,4	4,44q28%>29,6
76,4-127,5	17,544q31%>76,4
127,5-250	33,385q36%>127,5
250 dan ortiq	77,485q39,6%>25

Daromadni soliqqa tortish tizimidagi yana bir muxim bosqich – 1980-1990 yillardagi soliq isloxtlari natijasida korporatsiya foydasidan olinadigan soliqni kiritilishi buldi. AqShda korporatsiyalarning soliqqa tortishning asosiy tamoyili bulib, soliqqa tortishning yakuniy obekti bulgan sof foydadan soliq olish xisoblanadi. Ushbu soliqni tulovchilari eng avvalo aktsioner kompaniyalardir. Soliqning taxminan 85 foizi federal darajada, 15 foizi esa shtatlar va maxalliy xukumat organlari darajasida undiriladi. Soliqqa tortish obektlari bir nechta bosqichlarda aniqlanadi:

4. Yalpi sotuvdan va boshqa barcha (sotuvdan tashqari) daromadlar va xarajatlardan tashkil topgan yalpi daromad aniqlanadi.

5. Yalpi daromaddan ishchilarning ish xaqlari, remont xarajatlari, tulash imkonи bulmagan qarzlar, renta tulovlari, tulangan maxalliy shtatli soliqlar, amortizatsiya, kredit foizlari, reklama xarajatlari, nafaqa fondi badallari, tabiiy ofatlardan kuriлgan zararlari, xayriya badallari, kapital ta'mirlash xarajatlari va boshqalar chiqarib tashlanadi. Soliq qonunchiliga korporatsion soliqni aniqlashda ishlab chiqarish xarajatlariga kiritish mumkin bulgan barcha xarajatlar puxta kurib chiqiladi. Ushbu qonunlar asosida yaratilgan xalqaro standartlar liberal xususiyatga egadir. qoidaga kura kompaniyaning kundalik ishlab chiqarish – tijorat faoliyati bilan bog'liq bulgan barcha xarajatlarni inobatga olishga ruxsat beriladi. Cheklashlar uncha katta emas, asosan «xaddan tashqari» vakolatli xarajatlarni chiqimga kiritish man etiladi.

6. Yalpi daromaddan chiqimlar, qushimcha xarajatlar, tulangan soliqlar olib tashlangach, undan soliqqa tortiladigan foyda miqdorini bevosita kamaytirishga yunaltirilgan imtiyozlar xam chegiriladi.

Yakuniy bosqich foydadan dividentlarni tulashga sarflanadigan qismi bilan bog'liq. Soliq imtiyozlariga kuproq fermerlar egadirlar. Ular tufayli bir qator xollarda (asosan qurg'oqchilik yillarida) ayrim kompaniyalar soliq manbasini yuqqa chiqaradilar. «Fermer» imtiyozlaridan sung kichik innovatsion biznesga sarmoyalarni kiritadigan yakka tartibdagi sarmoyachilarni imtiyozli soliqqa tortish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Davlatning ularni qullab quvvatlashdagi manfaatdorligi aniq, chunki daromad solig'i stavkalari 28, 31, 36 va 39,6 foiz bulgan shaxslar uchun kapital usishning xaqiqiy soliqqa tortiladigan stavkasi 14 foiz darajasida buladi. Odattagi stavkasi 15 foiz ga teng bulgan investorlar uchun esa xaqiqatda stavka faqatgina 7,5 foizdan iborat buladi. Korporatsiyaning asosiy soliq stavkasi 34 foiz mikdorida va ular quyidagi kurinish buyicha soliq tulaydi: korporatsiya birinchi soliqqa tortiladigan daromadning 50 ming dollar uchun 15 foiz tulaydi, keyingi 25 ming dollari uchun-25 foiz, 75 ming dollardan yuqori uchun esa 34 foiz tulaydi. Bundan tashqari, 100 ming dollardan 35 ming dollargacha oraliqdagi daromadlarga 5 foiz miqdorida qushimcha yig'im urnatilgan. Bunday pog'onali soliqqa tortish urta va kichik korxonalar uchun juda muxim axamiyatga ega. Ijtimoiy sug'urta badallari tushumini taminlovchi daromadlar esa usish tendentsiyasiga ega. Yollanma ishchilar va ish bilan taminlovchilar uchun aralash stavka 15,3 25 foizni tashkil qiladi. Jismoniy shaxslar meros va xadyadan 18dan 55 foizgacha (agar mulk qiymati 600 ming dollardan oshsa) stavkada soliq tulaydilar. Jami federal soliqlar tushumi xajmida ularni ulushi 1-2 foizni tashkil qiladi va maxalliy darajada ushbu soliq axamiyatining oshishi xisobidan pasayish tendentsiyasiga ega.

Shtatlar solig'i va maxalliy soliqlar, daromad solig'i va uning stavkalari, korporatsiya foyda solig'i tug'risida tushuncha.

AQSHning 50 shtatidagi soliq daromadlari tuzilmasi federaldan jiddiy farq qiladi. Tulig'icha xususiy tushumlar umumiy daromadlarning taxminan 80 foizni tashqil qiladi, qolgan 20 foizi esa – federal subsidiyalardir. Umumiy xajmda sotuvdan olinadigan soliq tushumlari ulushi 30-40 foizga etadi. Uning soliqqa tortish obekti bulib, tovar va xizmatlarning qiymati xisoblanadi. Soliq stavkalari shtatlar tomonidan belgilanadi va 4-8 foiz oraliqda buladi. Axolidan olinadigan daromad solig'i 44

shtatda olinadi, qolganlarida u maxalliy uz-uzini boshqarish tashkilotlariga utadi. Soliq stavkasi 2-10 foizgacha oraliqda buladi; ushbu soliqning soliqqa tortish obektlari farqlanadi. Ammo foydalanishning bir xil va qulay bulishi uchun kupchilik shtatlar uz stavkalarini manbai sifatida, federal soliqning malum foizini asos qilib oladilar. Bunda shtatlarda soliq deklaratsiyasining uz shakli bulib, ularda tulangan soliq summasi subektlarning federal soliq buyicha soliqqa tortish majburiyatlari aniqlanganda chegirib tashlanadi.

Foyda solig'i xam barcha shtatlarda undiriladi va faqat xazinani tuldirish maksadida emas, balki iktisodiy sharoitga tasir qilish usuli sifatida xam qullaniladi. qariyb barcha shtatlarda jismoniy shaxslar qatorida yuridik shaxslardan xam mol-mulk solig'i undiriladi. Soliq stavkalari farqlanadi va 0,5 dan 5 foizgacha oraliqda buladi. Bundan tashqari, shtatlar tomonidan meros solig'i, turli xil aktsizlar, kapital solig'i va maxsus ruxsatnomalar olish uchun undiriladigan yig'implar olinadi, ish beruvchilar esa ishsizlik buyicha nafaqa tulovlar uchun majburiy ajratmalarni amalga oshiradilar. Shtatlar qatorida AqSh ma'muriy tuzilmalar sifatida maxalliy xukumat qaramog'i ostida bulgan qariyb 85000 tumanni uz ichiga oladi. qariyb barcha shtatlar grafliklarga bulingan va ularda taxminan 20 ming munitsipalitetlar mavjud. Grafilklar, munitsipalitetlar, taunshiplar (xususiy xududiy tuzilmalar) uz boshkaruv bulinmalariga ega va uz xizmatlarini tegishli xududlarda olib boradilar. Xar bir uz-uzini boshqarish bulinmasi uz byudjetini tuzishi, yangi soliqlar joriy qilishi va undagi tushumlarni taminlash uchun turli faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin. Maxalliy uz-uzini boshqarish bulinmasi uz ixtiyorida shtatlar soliqlari bilan kup tomonidan uxhash bulgan, uncha kup bulmagan soliq manbalariga ega. Maxalliy soliqlar ichida mol-mulkdan olinadigan soliq muxim axamiyat kasb etadi. Bu soliq mulk egasi bulgan jismoniy va yuridik shaxslardan yiliga bir marta olinadi. Ushbu soliqni aniqlash manbasi bulib, mulkning narx qiymati xisoblanadi. qariyb shtatlarning yarmida sotuvdan olinadigan maxalliy soliq undiriladi. Bu nomdosh shtat solig'iga qushimcha bulib xisoblanadi. Bu soliq daromadlari shtatda yig'iladi, sung qaysi xududda yig'ilgan bulsa, shu maxalliy uz-uzini boshqarish bulinmasiga qaytariladi

### **3. Kanada davlati soliq tizimidagi soliq ma'murchiligining tashkil etilishi**

Kanada daromad solig'i bo'yicha birinchi harbiy qonun 1917 yili kiritilgan edi. Bu soliqni vaqtincha amalda bo'ladigan tadbir deb hisoblab, uning mablag'ini birinchi jahon urushida qatnashganligi uchun harbiy harajatlarni qoplashga yo'naltirilgan. Bu qonun juda ham kichik hajmda bo'lib o'n betlik qog'ozga joylashgan edi. 1948 yili Kanadada daromad solig'i to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. 1962 yili daromad solig'i sohasida yirik islohotlar o'tkazildi. 1971 yili daromad solig'i to'g'risidagi qonunga keng miqyosda o'zgartishlar kiritildi. 1981 yilgi davlat byudjeti to'g'risidagi hujjatda davlat dasturi berilgan va unda soliq solish sohasida yirik islohot o'tkazish ko'rsatilgan edi. 1988 yili parlament tomonidan islohotning birinchi bosqichi ko'rib chiqildi va unda daromad soliqlariga tegishli masalalar muhokama qilindi. Bu islohot o'zining asosiy belgilari bo'yicha asosan AQSHning 1986 yilgi soliq islohotini qaytardi. Islohot davrida soliqning asosiy

bazasi kengaytirildi, soliq stavkasi pasaytirildi va iqtisodning har xil tarmoqlari bo'yicha soliq yuki tartibga solindi.

Kanada hukumati tomonidan soliq tizimi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Davlat byudjetiga moliyaviy resurslarni tushishini ta'minlash;
- ijtimoiy sohani moliyalashtirish;
- daromadlarni qayta taqsimlashni amalga oshirish;
- aholining nochor qismi daromadini o'sishiga ko'maklashish;
- mamlakatda iqtisodiy kon'yukturani barqarorlashtirish;
- iqtisodiy o'sishni yuqori darajasini ta'minlash.

Kanada hukumatining talabiga binoan soliq tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak: birinchidan, soliq tizimi gorizontal bo'yicha tenglikni ta'minlab berishi kerak. Bir xil daromadlar, ularning olinadigan manbaidan qat'iy nazar bir xil stavkada soliqqa tortilishi kerak. Bundan tashqari soliq tizimi vertikal tenglikni ham ta'minlashi kerak. Yuqori daromadlar soliqqa progressiv stavkalar asosida tortilishi ta'kidlandi. Soliq tizimi jamiyatni ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchasiga javob berishi va daromadlarni qayta taqsimlashda hamadolatli bo'lishi kerak. Bundan tashqari soliq tizimi etarli darajada egiluvchan bo'lishi zarur. Soliq tizimi hukumatga iqtisodiy kon'yukturani o'zgarishiga e'tiborini qaratishga imkoniyat tug'dirib berishi kerak va kerak bo'lsa, unga ta'sir ko'rsatishi zarur. Yana soliq tizimi ma'lum darajada oddiy va samarali bo'lmos'h'i kerak. Bu esa o'z navbatida soliq to'lovchi uchun deklaratsiyani to'ldirish ishini va to'lanadigan soliq hisob-kitobini engillashtirishi kerak. Yana hukumat organlarini nazorat qilish vazifalarini osonlashtirishi zarur.

Soliq tizimi barqarorlik va oldindan bashorat qilish imkonini berishi talab qilinadi. Soliq to'lovchilardan qaysi daromadlari soliqqa tortilishi, kimlar uni to'lashi, to'lov muhlatlari kabi ma'lumotlardan ularni to'liq xabardor qilish va boshqa masalalarni echish zarurdir. Erkin iqtisod tizimiga ega bo'lgan Kanada soliq tizimi ayniqsa savdo sheri AQSHe nisbatan raqobatdosh bo'lishi, Kanadaga chet el kapitalini oqib kelishiga imkoniyat yaratishi zarur. Bu hamma maqsadlar va talablar ob'ektiv qarama -qarshi xususiyatlarga ega. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun Kanada hukumati vaqt-vaqt bilan soliq tizimiga o'zgartirishlar kiritib turadi.

Kanada uch pog'onalik, markazlashtirilmagan soliq tizimiga ega. Kanadaning federal hukumati, mahalliy provantsiya (poytaxtdan uzoqdagi joy) va munitsipalitetlarning soliq tizimi mavjud. Shuning uchun har bir soliq to'lovchi federal, provintsial va munitsipial soliq to'laydi. Uch darajadagi soliq tizimida o'zining aniq daromadlari belgilangan. Federal darajada 50% daromadlar, provantsiyalarda 40% va mahalliy byudjetlarda 10% daromadlar to'planadi.

Kanada soliqlarini quyidagi tashkilotlar boshqaradi: Moliya Federal departamenti (vazirlilik) obshina (jamoa) palatasiga byudjet loyihasini topshirib, keyin o'z nuqtai-nazarini vazirning ma'rzasida ifodalab qonunshunoslik faoliyatiga hissa qo'shami.

- Moliya federal departamenti soliq siyosati bo'limi federal soliqlarni kiritishda qonunchilik huquqlarini ishlab beradi va ularni samaradorligini aniqlaydi.
- Tarif va daromadlar bo'yicha federal agentligi soliqlarni yig'ish bilan

shug'ullanadi. Kanadada soliq to'lashda shaxsiy javobgarlik printsipi qo'llanganligi uchun agentlik Soliq to'lovchiga soliq to'lash haqida xabar beradi, deklaratsiyani to'lg'azish bo'yicha yordam beradi. Soliq to'lovchilarni o'zлari byudjetga to'lovni o'tqazadilar. Agar agentlik noto'g'ri ma'lumotlarni topsa soliq to'lovchini adliyaga topshiradi. Federal agentlik daromad solig'i korxonani foydasiga solinadigan soliq federal sotishga solinadigan soliq (Kvebek provantsiyasidagi yig'ilmardan tashqari), pensiyaga ajratma, bandlikka ajratma, aktsiz va bojxona to'lovlari bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari agentlik har xil ijtimoiy nafaqalarni to'laydi. Provantsiyalar bilan kelishilgan holda mahalliy soliqlarni yig'ish uchun javob beradi.

Provantsiyalarni moliya vazirligi quyidagi mahalliy soliqlarni yig'adi: korxonani foydasiga solinadigan soliq, sotishdan olinadigan soliq, aktsizlar (benzin, yoqilg'i, tamaki va spirtli ichimlik mahsulotlari), er solig'i va er osti boyliklaridan olinadigan soliqlar. Bundan tashqari provintsial agentlik ijtimoiy nafaqani tarqatish uchun ham javob beradi.

Soliq solish bo'yicha hamma kelishmovchiliklar soliq adliyasi tomonidan echiladi. Kanadaning konstitutsiyasida uch bosqichni har biri uchun davlat boshqaruv organi undirib oladigan soliqlarni turlari belgilangan. Ushbu hujjatda boshqaruv organlarini har bir bosqichi javob beradigan savollar tarkibi ham berilgan. Kanadani federal hukumati, provantsiya va munitsipialitetlarni hukumati konstitutsiyada belgilangan majburiyatlar va o'zlarining huquqlari chegarasida, bir-biriga bog'liq bo'lмаган holda byudjetini rejalashtiradi va soliq solinadigan daromadlar, tovarlar, soliq stavkalari, o'zlarining soliq imtiyozlari sistemasi bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ijro etuvchi tashkilotlar bu savollar bo'yicha o'zini taklifini tayyorlaydi va mamlakatni parlamentiga (federal hukumat) yoki qonun chiqaruvchi organlarga (davlatni pastki boshqarish organlari) topshiradilar. Muhokama qilingandan keyin qonun chiqaruvchi organlar soliqlar to'g'risida qonun qabul qiladilar. Ushbu me'yoriy aktlar mufassal, keng yoritilgan, batafsil qismlarga ajratilgan hujjat bo'lib, bajaruvchi organlarga amaliy faoliyatlarida o'z tushunchalari bo'yicha tariflashga imkon bermaydi. Har bir davlat hokimiyati organi soliq vakolatidan o'ziga qarashli hududda foydalanadi. Agar firma bir necha provantsiyalarda ish olib borsa, har bir provantsiyani hukumati umumiy daromadni (foyda) shu hududda olingan qisminigina soliqqa tortadi. Davlat hokimiyat organlarini etarli darajada mustaqil bo'lishlariga qaramay federal hukumat, provantsiya va munitsipialitetlarni soliq tizimi o'zaro bog'lik, bir-biriga qaram xususiyatlarga ega. Bu esa Kanada soliq tizimi kompleks va birlik xususiyatiga ega ekanligini ifodalaydi. O'zaro bog'liq va birlik shundan iboratki, birinchi navbatda katta hajmdagi byudjet mablag'i dotatsiya sifatida yuqori byudjetdan pastki byudjetlarga yo'naltiriladi. Bu mablag'ni bir qismi tenglashtirish tizimi bo'yicha beriladi. Federal hukumat iqtisodiy orqada qolgan provantsiyalarga dotatsiya berishdan asosiy maqsad aholi uchun sog'liqni saqlash, talim berish, san'at bo'yicha normal darajada sharoit yaratishdan iborat. To'lovlarni birgalikda amalgalashirilganida federal-provintsial, provintsial-munitsipialitet hukumatlari iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy sohalar dasturi bo'yicha mablag'larni o'zlashtirishadi. Ikkinchidan, federal hukumat bilan ko'pchilik provintsial organlar ictiyoriy bitimlar tuzadilar va bu hujjat asosida federal hukumat provintsial daromad soliqlarini yig'ish

va ularni to'g'ri to'lanishi ustidan nazorat qilishni texnik tomonini o'z zimmasiga oladi. Ushbu bitim federal va munitsipial soliq solinadigan daromadni hisoblash uslubini bir xil qiladi. Uchinchidan, provantsiyalar o'rtasida kapital qo'yilmani hududga keltirish, yuqori malakali kadrlarni jalg qilish bo'yicha o'zaro konkurentsija (raqobatlik), soliqlarni juda ham ko'tarilib ketishiga yo'l qo'ymaydi va bu orqali Kanadada hududlar bo'yicha soliqlarni tenglashtirish amalga oshiriladi. Soliqlarni turlari bo'yicha ko'rib chiqilganda, shunga e'tiborni qaratish zarurki, daromad soliqlari federal hukumati va provantsiya hukumatlari tomonidan olinadi. Daromad soliqlari tarkibida aholi daromadidan olinadigan soliqlar mavjud. Daromad soliqlari Kanadada davlat daromadini asosiy bandi hisoblanadi. Mol-mulk solig'i Kanadani munitsipialitetlari tomonidan yig'iladi. Munitsipialitetlar er mulkini berishga solinadigan soliqni ham undiradilar. Soliq sotib olish vaqtida amalga oshiriladi. Soliq o'tkazib beriladigan mulkn 0,5% dan 1% gacha qiymatini tashkil qiladi, Har bir munitsipialitet o'zining soliq olish tartibiga ega. Sotishga solinadigan soliqqa kelsak, uni Kanadaning federal hukumati, ayrim provantsiyalar hukumati ham oladi. Sotishga solinadigan soliq federal hukumat tomonidan firma-ishlab chiqaruvchi darajasida Kanadada etishtiriladigan hamma tovarlardan olinadi. Hozirgi harakatdagi soliq stavkasi 12% ni tashkil qiladi. Federal darajada aktsiz solig'i ham mavjud bo'lib, har-xil stavkalar bilan bu soliq ayrim bezak buyumlariga nisbatan qo'llanadi. Sotishga solinadigan provintsial solig'i Kanadani Albertidan tashqari hamma provantsiyalarida qo'llanadi. Bu soliq chakana savdo tizimida olinadi. Stavkasi provantsiyalar bo'yicha har-xil hajmda belgilangan. Bu soliqqa, qoida bo'yicha oziq-ovqat, bolalar kiyimi, kitob va dori-darmonlar tortilmaydi. Bundan tashqari, Kanadada benzinni sotish uchun maxsus soliq qo'llanadi va bu soliq federal hukumat miqyosida va provantsiyalarini hukumati tomonidan olinadi (Alberti va Saskachevan bundan mustasno). Bu soliqni fermerlar, baliqchilar, qazib oladigan, qayta ishlaydigan va o'rmonchilik sanoati korxonalari to'lamaydilar.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urtaga yig'imni federal hukumat va provantsiyalarini hukumatlari oladi. Bu soliqlar aholi va korporatsiyalar uchun to'g'ri soliq hisoblanadi. Yig'imni stavkasi va summasi Kanadaning hududlari bo'yicha tabaqalashgan. Masalan, bu soliqni Ontarioda oila bir yilga 714 dollar to'laydi. Daromad solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar moliya organlariga har yili deklaratsiya topshiradilar. Deklaratsiyada daromadlarini hajmi va o'zları hisoblagan soliq hajmi ko'rsatiladi. Aholidan soliqlar asosan ish joyidan olinadigan ish haqidan hisoblanadi. Kanadada yangi qonunga binoan federal darajada daromad solig'ini eski 10ta stavkasi o'miga 3ta stavka va har bir hududda o'zining mahalliy qo'llanadigan stavkalari bo'ladi.

3-jadval

### **Kanada korporatsiyalarini daromad (foyda)siga solinadigan soliqni stavkalari (% hisobida)**

Provantsiya, hududlar	Asosiy stavka		Federal-provintsial stavka	
	Daromad solig'i	Foydaga solinadigan soliq	Daromad solig'i	Foydaga solinadigan soliq

Nyufaundlend	21,0	14,0	52,3	43,12
Yangi Shotlandiya	19,0	16,0	50,3	45,12
Prints Eduard Oroli	19,0	15,0	50,3	44,12
Nyu-Bransunk	20,1	17,0	51,4	46,12
Kvebek	21,6	8,9-16,2	52,0	38,0-45,0
Ontario	21,6	15,5	52,9	44,6
Manitoba	19,1	17,0	50,4	46,1
Saskachevan	20,6	17,0	51,9	46,1
Alberta	14,8	15,5	46,1	44,6
Britaniya Kolumbiyasi	22,9	16,5	54,2	45,6
Yukon	15,3	15,0	46,6	44,1
Shimoliy-g'arbiy xududlar	13,0	14,0	44,4	43,1

Jadvalda Kanadada qo'llaniladigan korporatsiyalar daromad (foydası) dan olinadigan stavkaning eng yuqori chegarasi federal-provintsial stavkalarga tegishlidir. Daromad solig'ini 44,4% ni tashkil etgan eng quyi va 54,2% ni tashkil etgan eng yuqori chegarasi stavkalar asosidan undiriladigan soliqlarni federal-provintsial byudjet daromadlarini katta qismini ta'minlab berishni ko'rsatadi. Yana stavkalarning har-xil kattalikda o'rnatilishi haqida, provantsiya, xududlarda ishlab chiqarish korxonalari korporatsiyalar faoliyat yuritishi va daromad olishi shu joylardagi geografik, ijtimoiy tabiiy va inson omillari (malakali mutaxassislarning mavjudligi) ga bog'liqdir.

#### **4. Kanada davlati soliqtizimida soliq stavkalarining belgilanishi**

Federal byudjetni muhim daromad manbai, huquqiy shaxslarni daromadiga solinadigan soliqlar hisoblanadi. Uning tarkibiga korporatsiyalarni foydasiga solinadigan soliq va yirik korporatsiyalarni kapitaliga solinadigan soliqlar kiradi. Birinchi marta soliq Kvebek provantsiyasida 1875 yili sug'urta kompaniyalarini mukofotiga qo'llash uchun kiritilgan edi. 1882 yili bu soliq temir yo'l, banklar va aloqa tizimlarida qo'llandi. 1912 yilga kelib bu soliq hamma provantsiyalarda ishlatiladigan bo'ldi. Foydaga solinadigan soliq texnik nuqtai-nazaridan daromad solig'iga yaqin bo'lganligi uchun uning rivojlanishi ham o'xshash shaklda bordi, ya'ni soliq stavkasi oshib bordi va provantsiyalar bu soliq «zapaslaridan» siqib chiqarila boshlandi.

Daromad (foyda)ga solinadigan soliqni federal byudjetni va provintsial byudjetlarni umumiy daromadidagi salmog'i nisbatan yuqori emas, federal byudjetda 10% va provintsial byudjetlarda 4% tashkil qiladi.

Daromad (foyda)ga solinadigan soliqni stavkalarini hisobi quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan:

- AQSHni soliq darajasiga qarab, Kanadada korporatsiyalarni soliqqa

tortishda baravar sharoit yaratish Kanadani qayta ishlash sanoatida chet el kapitalini salmog'i 40% ga yaqin va neft qazib olish, hamda neftni qayta ishlash sanoatida 70% dan ko'prog'ini tashkil qilishiga olib keldi.

- Kichik biznesni rivojlanishini rag'batlantirish (katta bo'lmanan firmalar, bir yillik daromadi 200 ming dollargacha va ishda band odamlarining soni 100 kishigacha bo'lgan).

Korporatsiyalarni daromad (foyda)si federal va provintsial darajalarda soliqqa tortiladi.

1988 yilda quyidagi soliq stavkalari soliq solinadigan daromad (foyda)ga nisbatan foiz hisobida belgilandi:

4-jadval

	Yirik biznes	Kichik biznes
federal	28	12
provintsial	15	10
ja'mi	43	22

Korporatsiyani foydasiga solinadigan soliq stavkasini provintsial va federal darajadagi o'zaro nisbat, Kanadani asosiy provantsiyalari –Ontario, Manitoba, Saskachevan, Albertilarda qo'llaniladigan shaxsiy daromadga soliqni o'zaro munosabatlariga o'xshash belgilangan va uning hajmi 46,5-54,0 foizlar qilib belgilangan. Federal soliqni stavkasi Kanada bo'yicha qonunda yagona tarzda belgilangan bo'lib, u 12-28 foizlarni tashkil qiladi.

Provintsial soliqlarni stavkalari provantsiyani qonun chiqaruvchi majlisi tomonidan aniqlanadi va ular bir-biridan farq qiladi. Provintsial soliq stavkalarini o'zgarishi federal soliq stavkasini o'zgarishiga olib kelmaydi. Munitsipialitetlar korporatsiyalarni daromadidan (foyda)sini soliqqa tortish huquqiga ega emaslar.

Umumiy soliq solish tizimidan ajratma belgilangan va buning asosida qayta ishlash sanoatining korxonalarini rivojlanishi va bandlikni ta'minlash uchun soliq stavkasi 23% hajmda o'rnatilgan. Provantsiya darajasida bu imtiyoz bekor qilingan.

Kanada mutaxassislarini fikricha, ularni qayta ishlash sanoati korxonalarini samaradorligi AQSHga nisbatan past. Shuning uchun chet el kapitalini keltirish maqsadida past soliq stavkasini belgilash orqali imtiyozlar beriladi.

Tabiiy resurslarni qazib olishga soliq tushumini provantsiya hukumati belgilaydi. Chunki Kanada qonunchiligiga binoan resurslar provantsiyalarga qarashli hisoblanadi. (Bundan faqat dengiz shelfida neft qazib olish va neftli qumliklarni qayta ishlash va boshqalar mustasno). Erosti boyliklarini qazib olish uchun korporatsiyalar provantsiya hukumatiga arenda to'lovi to'laydilar. Bunda arenda umumiy daromad (foyda)ni holati hisobga olmagan tartibda amalga oshiriladi. Lekin foydaga solinadigan soliq, faqat foyda mavjudligida olinadi. Alberti provantsiyasida, asosiy neft va gaz qazib olinadigan hududda, arenda to'lovi yalpi daromadni 12-13% ni tashkil qiladi (Buni Kanadani Petroleum Assotsieyshn-Kanadian yirik neft-gaz kompaniyasi) amalga oshiradi. Provantsiyani Moliya Vazirligi to'lov stavkasini bosqichini ishlab chiqqan va uni bir barrel neftga, neftning sifati, skvajinani (quduq) debetiga va neft konlariga qarab 0 dan 25% gacha belgilagan.

Korporatsiya daromadiga solinadigan soliqlar bo'yicha qator imtiyozlar

beriladi. Yangi kapital qo'yilmani rag'batlantirish uchun soliq solinadigan daromad kamaytiriladi yoki soliq summasi to'g'ridan to'g'ri kamaytiriladi. Lekin bu shaxsiy daromadlarni va ish haqini ko'paytirishga qaratilmagan.

Yalpi daromaddan ayrim harajatlarni chegirib tashlash va soliq krediti uslublari keng ishlatalidi:

- yangi neft quduqlari ishga tushirilgan joyda arenda to'lovlaridan 3 dan 5 yilgacha ozod qilinadi;
- arenda to'lovini keyingi davrga o'tkazish;
- arenda to'lovi foizini pasaytirish;
- yangi qazilma boyliklarini qazish, o'zlashtirish uchun past stavka bilan yoki foizsiz davlat krediti berish;
- tijorat banklarida kreditni davlat garantiyasini berish;
- ma'lum maqsadga (ilmiy tadqiqot, uskuna, kadrlar tayyorlash) qaytib berishlik, qaytib bermaslik sharti bilan to'g'ridan-to'g'ri davlat subsidiyasini berish yoki kompensatsiya xususida subsidiya berish;
- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarni davlat tomonidan moliyalashtirish;
- kelgusi yillari soliq skidkasini hisobga o'tkazish (agar foyda 0 ga barobar bo'lsa);
- davlat bilan birgalikda mulk shaklini tuzish;
- aktzioner kompaniyada aktsiyasini sotib olish bilan qatnashish;
- boshqalar (vaqtincha preferantsion aktsiyalar, undan olingan daromad soliqqa tortilmaydi. Qisman va to'liq infrastruktura harajatini qoplash);
- eksport qilinadigan mahsulot soliqqa tortilmaydi.

Asosiy kapital (asosiy fondlar)ni tezroq almashtirish uchun Kanadada soliq solinadigan daromad (foyda)ni aniqlashda tezlashtirilgan amortizatsiya qo'llanishi mumkin. Bunda mahsulot tannarxiga amortizatsiya ajratmasi uskunani haqiqiy xizmat qilish muhlatidan kelib chiqib belgilangan normada o'tkaziladi, lekin soliq solinadigan daromadni aniqlashda, kamayib borish uslubi asosida olingan foyda summasi hisoblanadi. Shunday tartibda soliqdan buxgalteriya va soliq amortizatsiyasini farqi hajmidagi summa soliqdan ozod qilinadi.

1988 yilgi soliq islohoti amortizatsiya me'yorini pasaytirdi va amortizatsiya muhlatini sekinlashtirdi. Natijada soliq tushumi ko'paydi.

Shu davr ichida progressiv uskunalar olish va yangi texnologiyani tadbiq qilishni rag'batlantirish maqsadida soliq krediti kiritildi. Soliq summasidan chiqaziladigan kapital qo'yilmani qiymatidan 7-10-20%li investitsion soliq krediti belgilandi. Federal va provantsiyalar darajasida maxsus ITTKI rag'batlantirishni maxsus tizimi qo'llandi.

Har bir provantsiya mustaqil o'zini siyosatini yurg'izadi. Lekin qo'shnisini siyosatini ham hisobga oladi. Federal darajada, qoida bo'yicha, daromaddan soliq olishda ITTKni qiymatini 100% hajmida imtiyozli narxini pasaytirish (skidka) beriladi. Bunga joriy va kapital harajatlar kiradi. Bundan tashqari korporatsiyaga investitsion soliq krediti beriladi. Stavkasi xududlar bo'yicha tabaqlashtiriladi (o'rtacha 20%) investitsion kredit ITTK oldin berilgan kreditni hisobga olgan holda

beriladi. Masalan, yillik ITTK fondi 10 mln.dollar shu summaga daromaddan soliq olishda skidka beriladi. Bu faqat ITTKga ajratilgan mablag' to'liq sarflanib, qoldiq nolga baravar bo'linda amalga oshiriladi.

Agar. ikkinchi yili ITTKI harajatlari 0 ga teng bo'lsa soliq kreditini summasi soliq solinadigan daromadga qo'shiladi va odatdag'i tartibda soliqka tortiladi. Masalan, 2 mln. dollar kredit, daromadga 50% soliq stavkasi bilan qo'shib, 1 mln. dollar soliqqa aylanadi. Bu mexanizm firmalarga katta mablag'larni tejashga yordam beradi. Ushbu misolda firma soliqdan 6 mln. dollar tejab qoladi.

Hisob: ITTKI-10 mln. dollar daromadga soliq solishda kamaytirilgan summa, shu jumladan 2 mln. dollar soliq krediti. Qoldiq 8 mln. dollar harajatlar. 50%li stavka bilan 4 mln. dollar soliq to'lanishi kerak edi. Qolgan 4 mln. dollar soliqdan to'g'ri rejali hisoblanadi va bo'yicha 2 mln. dollar kredit qo'shiladi. Shu yo'l bilan davlat hisobidan 6 mln. dollar tejab qolinadi. Hukumat soliq kreditini ITTKIni 35%gacha qiymatini bajarish uchun beradi. Daromadga ega bo'limgan yangi kompaniyalar ITTKIni amalga oshirish uchun byudjetdan to'g'ridan-to'g'ri dotatsiya oladi. ITTKIni rag'batlantirish uchun qator provantsiyalarda maxsus imtiyozlar berilgan. Soliq solinadigan daromaddan provintsial soliq solish uchun ITTKI qiymatini 100 dan 135%gacha daromaddan skidka chiqazib tashlanadi. Bu esa ITTKIni juda yuqori foydali qiladi.

Mablag'larni o'zlashtirish davrida korporatsiya zarar olsa, uni soliq to'lashdan ozod qilinadi. Ularga ko'rilgan zararni kelgusi yillarni foydasidan qoplash uchun imkoniyat yaratib beradi.

Agar ishlab turgan korporatsiyada zarar paydo bo'lsa, unga zararni oldingi uch yil soliq solingan foydadan chiqazib tashlash tartibi qo'llanadi (Agar foyda olingan bo'lsa) korporatsiyaga bu holatda qaytadan hisob-kitob qilingan soliq summasi qaytariladi yoki zararni kelgusidagi 7 yilga taqsimlanadi. 7 yillik muhlat Kanada sanoatini tajribasidan olingan. Shu muhlatda korxona foyda oladigan darajaga ko'tariladi yoki uni yopish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

### **Sotishga solinadigan soliq**

Federal va provintsial byudjetlarni umumiylar daromadida sotishga solinadigan soliq (oborot solig'ini boshqacha ko'rinishi) muhim rol o'ynaydi. Bu soliq Kanadada federal va provantsiyalar darajasida ishlab chiqariladigan hamma sanoat tovarlari va Kanadaga chetdan keltiriladigan tovarlarga qo'llanadi.

Federal soliqqa yagona stavka - 12% belgilangan (avtomobil, televizor va x.k.) va tovarlar bahosiga bu soliq qo'shilgan. Hashamatli buyumlar bundan mustasno. Ular bo'yicha yuqori stavkalar qo'llanadi. Alkogol, spirt, tamaki - 18%, uy-joy qurish uchun foydalilaniladigan tovarlarga - 8%, aloqa xizmati uchun -10% belgilangan. Boshqa turdag'i xizmatlarga bu soliq solinmaydi. Ushbu federal soliq egri soliq hisoblanadi. Uni ishlab chiqaruvchi firma to'laydi. Haqiqatda ishlab chiqarilgan tovarlarni taxminan 1/3 qismiga soliq solinadi, chunki bu soliq bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan iste'molchi uni to'lamaydi. Moliya Vazirligining hisobiga ko'ra 50%ga yaqin sotishga solinadigan soliq ishlab chiqarish-texnik ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlardan olinadi.

Provintsial sotishga solinadigan soliq har bir provantsiyada mustaqil

belgilangan. Faqat tovarlarni oxirgi iste'molchiga sotishda olinadi (Ontario - 8%, Kvebek - 12%, Alberta -0%).

Turizmni rivojlantirish maqsadida Kvebek va Manitoba provantsiyasi hokimiyatlari Kanadada tovarlarni sotib olish, xizmatlardan foydalanishda, sotishdan olinadigan soliq to'lagan chet el fuqarolariga federal dastur asosida soliqni qaytarib berish tartibiga o'tganlar. 1997 yil 1 apreldan boshlab Nyu-Bransuik, Yangi Shotlandiya va Nyufaundlend provantsiyalari tovarlar va xizmatlar bo'yicha o'zlarining mahalliy soliqlarini qo'shdilar. Qo'shilgan stavka 15% (7% - federal va 8% - provintsial) ni tashkil etdi.

Sotishga solinadigan soliq oziq-ovqat, bolalar kiyimi, oyoq kiyim, kitob va dorilarga qo'llanmaydi. Islohotni ikkinchi bosqichida (1991 yil) sotishga solinadigan soliq qo'shilgan qiymat solig'i bilan almashtirilgan. Alovida provintsial soliqlar va federal soliq yagona qo'shilgan qiymat solig'i bilan almashtirilgan. Qo'shilgan qiymat solig'i deb, oxirgi mahsulot bahosi bilan material va xom ashyolarni qiymati o'rtasidagi farq tushuniladi. Lekin soliq summasi oxirgi mahsulot bahosidan hisoblanadi. Masalan, 100 dollarga material sotib olindi, uni qayta ishlandi va 200 dollarga sotdi. Shunda soliq bahodan protsent hisobida aniqlanib va etkazib beruvchiga to'langan summa chiqazib tashlanadi. Shu summaga soliqdan skidka qilinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini ko'p bosqichli sotishga solinadigan soliq desa ham to'g'ri bo'ladi.

Kelgusi bosqichlarda oradagi bosqichma-boskich soliq to'lovleri chiqarib tashlanadi. Shunday qilib, sekin-asta hamma soliq summasi oxir-oqibatda oxirgi iste'molchi zimmasiga tushadi.

Soliqni to'lovchi-iste'molchi 7%li stavka bilan to'laydi. Tovarlarni sotib olganda yoki mehmonxonada yashaganligi uchun to'lovni berganda, kimyoviy tozalash, sartaroshxona, fotoatele va shunga o'xshashlar, preyskurantda qo'rsatilgan bahoga yana 7%li soliq qo'shadilar. Tovar cheklari yoqi kvitantsiyalarda xizmat uchun soliq alovida qatorda ko'rsatiladi.

Aktsiz soliqlarini olish ham federal hukumat zimmasiga yuklatilgan. Kanadada ushbu soliq eng qadimiy soliqlarga kiradi. Asosiy aktsiz solinadigan tovarlarga benzin, alkogol ichimliklar, chekish mahsulotlari kiradi. Benzinga solinadigan soliq (avtomobilni ro'yhatdan o'tkazishda olinadigan litsenziya yig'imi) provantsiyalarda zaruriyat bo'lgan davrlarda qo'llanildi. 1924-1926 yillarda avtomobil yo'llar etishmadidi. Ikkinchi jahon urushi vaqtida federal hukumat soliqni qo'shimcha stavka bilan qo'tardi. Hamda 1970 yilgi neft taqchilligidan keyin uni tashqi savdoni boshqarish uchun federal hukumat ixtiyoriga topshirildi. 1986 yili neft shov-shuvi tugagandan keyin Ottawa o'zining yoqilgi bozorida qatnashishini saqlab qoldi. Hozirgi vaqtda hukumatni ikkala darajasi ham soliqlarni yig'ishda ishtiroy etadi. Federal hukumat soliqni qat'iy belgilangan bir litrdan 8 tsent hajmida ushlab qoladi.

Tarif boji doim federal hukumatni ixtiyorida bo'lgan. Konfederatsiyani tashkil qilish davrida, savdoni soliqqa tortish daromadni asosiy manbai bo'lgan. Lekin keyinchalik boshqa manbalarni rivojlanishi va shimoliy Amerika va butunjahon savdo tashkilotlarida erkin savdo qilish to'g'risida bitim tuzilgandan keyin tariflarga davlat daromadining asosiy manbai sifatida qiziqish yo'qoldi.

## **Aholiga solinadigan soliqlar**

Aholidan to'g'ri va egri soliqlar undiriladi. To'g'ri soliqlarga daromad solig'i, kapitalni o'sishiga solinadigan soliq, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, xizmatdan foydalanganlik uchun soliq (ko'prikan foydalanganligi uchun soliq), yoqilg'iga solinadigan soliq, tranzit to'lovi (erni o'tqazib berish), sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urtaga solinadigan yig'imlar kiradi.

Egri soliqlarga, birinchi navbatda, sotishga solinadigan soliq kiradi. Ko'rsatilgan soliqlarni ko'pchiligi federal darajasida va provintsial darajalarida to'lanadi. Munitsipialitetlarga ko'chmas mulkka solinadigan soliq, moliya kapitalini o'sishiga solinadigan soliq va xizmatlardan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

### *Aholini daromadiga solinadigan soliq*

1. Soliq solinadigan ob'ektlardan asosiysi biri daromad hisoblanadi. Daromad tushunchasi daromad solig'i to'g'risidagi qonunda ko'rsatilmagan. Amaliyotda yalpi daromaddan, daromad olish bilan bog'liq bo'lган harajatlarni chiqazib tashlanadi. Bunga natural daromadlar ham qo'shiladi (masalan, firmani avtomobilidan foydalanish)

2. Kelib tushish tartibi: Daromad sifatida kelib tushgan pul emas, hisoblangan summa olinadi.

3. Soliqni quyidagilar to'laydi: Kanadada yashovchi, Kanadada ishlovchi, Kanadada biznes bilan shug'ullanuvchi, Kanadadagi mulkka ruxsat beruvchi shaxslar.

4. Mamlakatda yil davomida yashovchini hamma daromadi (chet eldan olgani qo'shib) soliqqa tortiladi. Mamlakatda yilni ma'lum davrida yashaydigan shaxsni umumiyl daromadi soliqqa tortiladi. (Lekin faqat yashagan davriga.) Norezidentlarni faqat Kanadada olgan daromadlari soliqqa tortiladi.

5. Fuqarolarni daromadlarini ikki marta soliqqa tortmaslik uchun, boshqa mamlakatlar bilan bitimlar tuzilgan.

6. Ayrim shaxslar mustaqil ravishda o'zlarining daromadlarini hisoblaydi va har yili daromad to'g'risidagi standart shakldagi deklaratsiya blankasini to'ldiradilar. Ishlayotgan shaxslardan soliq summasi yil davomida ish haqisidan ushlab qolinadi. Yillik soliq summasini aniqlashda, yil davomida to'langan summalarini qaytadan hisob-kitob qilinadi.

Daromadga har xil manbalardan kelgan tushumlar kiradi:

I. Yollanib ishlovchi shaxs daromadi:

ish haqi

II. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs daromadi:

foyda

III. Ijaraga berilgan mulkdan olingan daromad;

IV. Investitsiyadan olingan daromad:

foizlar, dividendlar

V. Kapitalni (sarmoyani) o'sishidan olingan daromad

investitsiyaga mo'ljallangan buyumlarni qaytadan sotishdan olingan foydani 2/3 qismi soliqqa tortiladi.

**VI. Boshqa daromad turlari:**

nafaqa, dotatsiya, kundalik harajatga ajratilgan mablag' va boshqalar.

**7. Soliq solinadigan daromaddan quyidagilar chiqarib tashlanadi:**

I. Nafaqa fondiga ro'yhatga olingan to'lovn berish, qarilik uchun to'plangan mablag'.

II. Kasaba uyushmasiga a'zolik to'lovi va boshqa assotsiatsiyalarga a'zolik uchun to'lovlar;

III. Bolalarni boqish bo'yicha harajatlar (ota-onalar ishlayotgan vaqtida bolalarni boqish bo'yicha harajatlar).

**IV. Investitsiya bilan bog'liq harajatlar**

(kapital qo'yilmaga foydalanilgan kredit bo'yicha foiz to'lovlar).

**V. Boshqa tushumlar.**

ko'rsatilgan summalarini umumiylar daromaddan chiqazib tashlash sofi daromadni ko'rsatadi.

8. Soliq solinadigan daromadni aniqlash uchun qo'shimcha sofi daromaddan chiqarib tashlanadi:

I. Boshqa yillarning zarari.

II. Kapitalni o'sishidan olingan soliq solinmaydigan birinchi 100000 daromad;

III. Boshqa chiqazishlar.

9. Soliq solinadigan daromadlar asosida soliq summasi hisoblanadi:

**5-jadval**

**I. Federal soliq quyidagi stavkalar bilan aniqlanadi:**

Soliq solinadigan daromad	Stavkani chegarasi
0 dan – 27500 CanD gacha	17%
27501 dan – 55000 CanD gacha	26%
55000 CanD dan yuqori	29%

II. Provintsial soliq federal soliqdan foiz hisobida aniqlanadi (Kvebekdan tashqari)

**6-jadval**

**Provintsial soliqlarni stavkalari:**

Nyufaundland	60
Shaxzoda Edvard Aylend oroli	57
Yangi Shotlandiya	56,5
Nyu Brasuik	60
Ontario	51
Manitoba	54
Saskechevan	60
Alberti	46,5
Britaniya Kolumbiyasi	51,5
Shimoliy-G'arbiy hududlar	43
Yukon	45

10. To'lanishi kerak: soliq krediti chiqarib tashlangan summasi:

a) Oilani demografik tavsifi:

- umumiy (1020 dollar. Bu baravar eng kam yashash minimumini tashkil qiladigan 6000 dollar daromaddan olinadigan soliqqa);
  - oilaliklarga (850 dollar ishlamaydigan er yoki xotinga);
  - qaramog' idagilarga (250 dollardan yillik daromadi 2500 dollardan past bo'ladigan shaxslarga);
  - qariyalarga (60-65 yoshdan yuqori bo'lган shaxslarga 550 dollardan);
  - bolalar uchun (65 dollardan birinchi ikkita bola uchun va 130 dollardan har bir keyingi bola uchun).
- b) Dividendga beriladigan kredit;
  - nafaqa fondiga ajratma (20% dan ortiq bo'lmasligi kerak).
  - ishlamaydiganlar uchun
  - talim olish uchun;
  - tibbiy xizmat ko'rsatish harajatlari uchun.

**Kooperativlarga solinadigan soliqlar**

Kooperativ o'zini xodimlariga yoki boshqa fuqarolarga xizmat qilishiga qarab solinadigan daromad solig'i farq qiladi. Kooperativ tovarlarni chakana bahoda oladi. Agar foyda olinsa uni yilni oxirida ikkiga bo'ladilar, ya'ni kooperativ a'zolaridan olingan va kooperativ a'zosi bo'lмагanlardan olingan foydalarga. Kooperativ a'zolariga xizmat qilishdan olingan foyda, ularning sotib olgan tovarlarini salmog'iga qarab taqsimlanadi. Bu o'rnini to'ldirish (kompensatsiya) sifatida qaraladi. Bu to'lovlar soliq solishda kooperativ daromadidan chiqazib tashlanadi. Bu kompensatsiyani bir qismi kooperativning aktsiyasi shaklida berilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida paychilarni kapital qo'yilmalariga tenglashtiriladi. Agar bu to'ldirish iste'mol tovarlari bo'yicha bo'lsa, oluvchi soliq deklaratsiyasida ko'rsatmaydi. Agar sanoat mollari bo'yicha olinsa, bu summa ko'rsatiladi va undan qo'shimcha soliq to'lanadi. Kooperativ foydaga solinadigan soliqni to'ldirish maqsadida taqsimlanmagan foyda yuzasidan to'laydi. Kooperativlarni soliqqa tortishda katta summalaridan hohlaganini oladi:

- a) kooperativ a'zolariga xizmat qilishdan olingan foyda;
- b) to'ldirish uchun taqsimlanmagan foyda.

Umumiyl soliq hohlagan katta summadan 47,5% olinadi. Har bir kooperativ a'zosini shaxsiy raqami mavjud va sotib olishda komp'yuterda u ro'yhatga olinadi. Fermerlar boshqa xususiy shaxslar kabi soliqqa tortiladi. Lekin ularga nisbatan alohida qoida ham bor. Daromad, boshqalarga o'xshab, uni olish huquqi yuzaga kelganda emas, haqiqiy yil davomida kelib tushgan summa hisoblanadi. Bundan tashqari o'g'it sotib olish va boshqa harajatlar soliq solishda sotib olgan yilgi daromaddan chiqaziladi (o'g'itni kelgusi yillari ishlatishi ham mumkin). Soliq solishda fermer daromadi o'rtacha 5 yilga hisoblanishi mumkin. Uskunalar bo'yicha amortizatsiya odatdag'i sxemada yoziladi.

**Munitsipial organlarni soliq sohasidagi ishlari**

Soliq sohasida munitsipialitetlar mutlaqo mustaqildir. Soliqni ko'chmas mol-mulk egalaridan undiradi. Munitsipialitetlar o'zini hududida qurilish qilish uchun yig'im belgilaydi. Yig'imni 5% dan kam bo'lмагan summasini jamoa umumiy

foydalananadigan manzillarini qayta tashkil qilish, bezash ishlariga yuboriladi. Munitsipial byudjetni uzoq muddatli qarzi byudjetni umumiy hajmini 42% dan ortiq bo'lmasligi kerak. Shu bilan bir qatorda bu qarz soliq solinadigan mulkni 1%i dan yuqori bo'lmasligi kerak. Qarz bo'yicha to'lovlar esa munitsipialitetni umumiy joriy harajatlarini 20% dan oshmasligi zarur. Munitsipialitetlar aholidan, biznesdan mablag'ni qarzga olish uchun boj, aktsiya va obligatsiyalar chiqaradi, zayomlar maqsadli bo'lgani uchun, qayta taqsimlash yo'li bilan qarzga olingan mablag'larni bir joydan ikkinchi joyga yo'naltirish mumkin emas. Munitsipial byudjetni taqsimotini Ottava shaharini byudjetini misolida ko'rish mumkin. Joriy byudjet – 100%, ijtimoiy transportga dotatsiya-17%, dam olish va madaniyat sohasi harajatlari - 17%, aholini va mulkni himoya qilish (mirshab, o't o'chiruvchi) - 37%, sog'lijni saqlash va ijtimoiy yordam - 1%, ekologiya - 5%, bepul xizmatlar - 6%, qolgani- boshqa harajatlar. Daromadlar manbai – provantsiyadan beriladigan yordam va subsidiyalarni –10%hajmida tashkil etadi. Ular ikki xil bo'ladi: maqsadli va kompleksli. Maqsadlida: masalan 50-80%i yo'l harajatlarini qoplash; komplekslida shart qo'yilmasdan byudjet defitsitiga umumiy summa tarzida beriladi. Maxsus yig'imlar - 25% (litsenziya berish uchun yig'imlar, renta, xizmatlar) ga teng. Mulkka solinadigan soliq - 29% ni tashkil qiladi.

Provantsiya va federal hukumatlarini ularni ko'chmas mulkiga solinadigan soliq o'rniga beradigan yordamlari - 36% (hukumatlar soliq to'lamaydilar, uning o'rniga munitsipialitetlarga yordam puli jo'natadilar).

Huquqiy va jismoniy shaxslarni ko'chmas mulkiga solinadigan soliq doimo munitsipialitetlarni ixtiyorida bo'lgan va konfederatsiyani tuzilmasdan oldin foydalanilgan. Soliq daromadlari shahar infratuzilmasini, ijtimoiy imoratlarni (maktab, tartibni saqlash organlari va h.k.) saqlab turish uchun sarflangan. Huquqiy shaxslarni, mol-mulkini olinsa, boshlanishida soliq tijorat imoratlari (ofislar), ombor zaxiralari va boshqa joylardan olingan. Buni nohaq deb, savdo xodimlari arz qila boshllagan. Hozirgi vaqtida soliq ko'chmas mulk egalari tomonidan to'lanadi va uni hajmini ularning qiymatidan foiz hisobida aniqlanadi. Shahar kengashini a'zolari, meriya rahbari aybi bilan byudjet defitsiti yuzaga kelsa, udar shaxsiy mulklari bilan javob beradilar va adliya orqali jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Soliq solish uchun mulkni baholash provantsiya hukumatini funktsiyasiga kiradi va provantsiyada soliqdan skidka berishda bir xil yondashishni ta'minlab beradi. Provantsiyalarda bu ishni baholash bo'yicha maxsus bo'lim ish olib boradi. Ontario provantsiyasida 31 bo'lim bo'lib, ularning har birida 100 tadan xodim ishlaydi. Baholashni maqsadi munitsipialitetga soliq bazasi to'g'risida tushuncha berishdir. Er va imoratlar baholanadi, uy jihozlari, asbob-anjomlar va uskunalar baholanmaydi. Asosiy baholash - bozor qiymati asosda bajariladi, ya'ni erkin bozorda shu mulkni sotishdan olinadigan summa hisoblanadi. Hisob qiymatini aniqlash uchun 3 ta ta'sir qiluvchi omil hisobga olinadi. Birinchisi - qiymatni yuzaga keltirish uchun ketadigan harajatlar; ikkinchisi - mulk keltiradigan daromad; uchinchisi - bozor ma'lumotlarini hisobini olib borish yoki solishtirma yondashuv. Baholash mulkdor qatnashmagan tartibda amalga oshiriladi. Mulkdorga mulk qiymati o'zgarganligi va soliq stavkasi to'g'risida xabar qilinadi. O'zaro kelishmovchiliklar provantsiya hukumatiga qarashli

maxsus tribunal (adliya tashkiloti)da echiladi. Tribunal a'zolari hukumat tomonidan tayinlanadi. Sug'urta kompaniyalari qiymatni mustaqil baholaydilar va o'zlarining baholash xizmatiga egalar. Mulkni bir qismini yo'qotish qaytadan baholashga olib keladi.

Ko'chmas mulkdan soliqni mulk qiymatidan 0,5-1,0% hajmida olinadi. Sartaroshxonalaridan – uy qiymatidan 30%, advokatlar idorasi va tibbiyot xonalari – 50%, spirt ishlab chiqarish-14% to'lanadi. Munitsipialitet hamma ob'ektlar bo'yicha hujjatlar to'plar olib boradi. Baholash 11 ta provantsiyaga umumiy apparat (70 ta baholovchilar) tomonidan olib boriladi. Ontario **provantsiyasida** shikoyat (**appellyatsiya**) qilish uchun maxsus tribunal tuzilgan.

Tabiiy resurslarga solinadigan soliq, odatda provantsiyalar ixtiyorida bo'ladi. Tabiiy resurslar (neft, gaz, qazilma boyliklar, o'rmon, boliq va suv zapaslari) provintsial byudjetda muxim o'rinni egallaydi. Lekin xar xil hududlar uchun ularning ahamiyatlari ham har xil. Bu holat tabiiy resurslar mamlakat bo'yicha bir xil taqsimlanmaganligi bilan bog'liq. Masalan, bu soliqlar Alberti provantsiyasida hamma tushumlarni 1/4 qismini tashkil qilsa, Saskachevanda 1/10 iga to'g'ri keladi.

Qazilma boyliklar ijtimoiy va xususiy foydalanish guruuhlariga bo'linadi. Ularga uch xil turdag'i bojlar solinadi: monopol kirish huquqi uchun, ishlab chiqarish (royalti) huquqi uchun va qazib olingan boylikdan ajratma berish. Hususiy egalik qilishda qazib olishni soliqqa tortiladi (shaxtaga solinadigan soliq). XIX asrning oxirigacha qazilma boyliklardan olinadigan soliqlar muhim rol o'ynamagan. Lekin o'rmonda daraxt qirqish katta daromad keltirgan. Hamma hududlarda shaxtalar qurilganidan keyin, ulardan keladigan tushum ham ko'paygan. U davrlarda tabiiy resurslarni soliqqa tortish sinov tartibida olib borilayotgan edi. Masalan, Kvebek provantsiyasida elektroenergiya ishlab chiqarish uchun suv resurslariga soliq solingan.

#### *Munitsipialitet byudjetini ishlab chiqish tartibi.*

Joriy yilini yanvar-mart oylarida iqtisodiy vaziyatni joriy va kelgusi yilga istiqlolini ishlab chiqish boshlanadi. Istiqbol ikki yilga belgilanadi. Munitsipial kengashni bo'limlari (boshqarmalari) istiqbolni shlab chiqadilar. Aprel-may oylarida iqtisodni rivojlantirishni strategik rejasi tayyorlanadi. Bu reja iyun-avgust oylarida munitsipial kengashni hamma bo'limlarida ko'riladi va ular reja to'g'risida o'zlarining memorandumlarini topshiradilar. Oktyabr oyida hamma takliflarni ko'rib chiqilgandan keyin byudjetni asosiy stavkalari belgilanadi. Shuning asosida noyabr-dekabr oylarida operativ byudjet, kapital qo'yilma, uzoq muhlatli dastur va uni moliyalashtirish hajmi tuziladi. Rejalashtiriladigan yilni yanvar-fevral oylarida loyiha ma'muriy muhokamadan o'tadi va munitsipial kengashni doimiy qo'mitalarida ko'rib chiqiladi. Mart oyida kengashda tasdiqlanib va shundan keyin soliq stavkalari ham qonuniy kuchga kiradi. Moliyaviy yil - kalendar yil hisoblanib, birinchi yanvardan boshlanadi. Shuning uchun rejalahtirilayotgan yil davomida soliq stavkasi tasdiqlanganiga qadar, soliqlarni huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan oldingi yil stavkasi asosida to'lanadi va keyin qaytadan hisob-kitob qilinadi. Soliqlar bir yilda 6 marta olinishi kerak.

Deklaratsiyani to'g'ri to'lg'azilganligini davlat tomonidan baholanishi, soliq

organlari xarakatini nazorat qilish va ular ustidan arz qilish tartibi

Soliq deklaratsiyasi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil to'ldiriladi va kelgusi kalendar yilni 30 apreli gacha topshirilishi zarur. Soliq organlari tanlov asosida deklaratsiyani to'g'ri to'ldirganligini tekshiradi va undagi ma'lumotlarni haqiqiyligiga e'tiborni qaratadi. Ular buxgalteriya kitoblarini ko'rish va reviziya o'tqazish huquqlariga ham egalar. Buning natijasida davlat organlari tomonidan hisoblangan soliq summalarini, soliq to'lovchidan olingan ma'lumotlardan farq qilishi mumkin. Shunda kelishmovchilik yuzaga kelsa, soliq to'lovchi huqumatni baholashidan norozi bo'lsa, davlat organlarini baholashini noto'g'riliqini tasdiqlab berishi kerak.

Soliq to'lovchi daromadlar vazirligiga, Kanadani soliq adliyasiga appelyatsiyaga berishi mumkin. Keyin Kanadani federal adliyasiga va nihoyat Kanadani Oliy adliyasiga berishi mumkin. Soliq qonunchiligini buzganligi uchun fuqarolarga nisbatan har xil jazolar qo'llanadi. Deklaratsiyani kechiktirib bersalar, ulardan soliq summasini 5% hajmida jarima olinadi. Bunga yana har bir kechiktirilgan oy uchun 1% dan qo'shib boriladi (shu tartib 12 oygacha davom etadi). Jarima qo'llangandan keyin, uni tasdiqlash Daromadlar vazirligiga yuklatilgan. Federal va provintsial huqumatlari bir-biriga bog'liq bo'limgan holda soliq to'lovchiga jarima solishlari mumkin. Bundan tashqari daromad solig'i bo'yicha qonunni buzganlarni jinoiy javobgarlikka ham tortish mumkin. Jinoyat qonunchiligidagi to'lanmagan soliq summasiga 50 dan 200 foizgacha jarima solinadi yoki jarima solinib, yana 2 yilga qamoqqa yuborish mumkin. Bu choralar soliq deklaratsiyasida noto'g'ri ma'lumotlar berilganligida, moliyaviy hujjatlarni yo'q qilinganida, ularni qalbakilashtirilganida, qonunni buzganida yoki jinoiy kelishuvlarni amalga oshirilganida soliq to'lovchilarga qo'llanadi.

## **5. Kanada davlatida soliq tizimining ilg'or tajribalarini O'zbekiston soliq tizimida foydalanish masalalari**

Kanadani federal hukumati provantsiyalar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlaydi va daromadi past provantsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri dotatsiyalar beradi. Provantsiyani nochor va boy ekanligini aniqlash mezoni ularning potentsial soliq yig'ish imkoniyati orqali hisoblanadi. Aholini ijtimoiy turmush darajasini tenglashtirish uchun maxsus dastur amalga oshiriladi. Provantsiya imkoniyatini hisobi, mamlakatdagi o'rtacha soliq stavkasiga asoslanadi. Moliya Vazirligi tomonidan har yili qaytadan hisob-kitob qilinadi. Tenglashlashtirish - bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad darajasi asosida olib boriladi. Bu farqni hisoblash bo'yicha maxsus qonun mavjuddir. Federal hukumatni provantsiyalar bilan boshqa qator o'zaro aloqalar shakli mavjud:

- to'g'ridan-to'g'ri provantsiyalarga pul to'lovlarini berish (shunday shart bilan provantsiya federatsiyani belgilagan tartiblari asosida ish olib boradi. Masalan, federal hukumat shifoxonada yotish qiymatini 50%ini qoplaydi, lekin provantsiya shifoxonasi ta'minlashni o'rtacha standartini ta'minlay olgan taqdirdagina amal qiladi).

- ijtimoiy yordam dasturi (ishsizlikni yo'qotish, madaniyatni rivojlantirish, talim va boshqalar), birgalikda dasturlar ishlab chiqish, ularni tadbiq qilish va birgalikda moliyalashtirish (federal infrastruktura, transkanada avtostradasi va h.k.).

Federal va provantsiya hukumatlari o'rtasida (har biri bilan alohida) bitim tuziladi va hujjatda yagona soliq inspeksiysi yig'adigan soliq turlari ko'rsatiladi. Soliqlarning ayrim turlari bo'yicha ilgari kelishuvlar bo'lмаган, ular keyinroq tadbiq etildi. Masalan, sotishga solinadigan soliqni chakana savdoga belgilash va yig'ish provintsial hukumatni ishi bo'lib, ishlab chiqarish bo'yicha bu soliqni federal hukumat yig'adi. Bu soliq to'g'risida hukumatlar o'rtasida bitim yo'q. Soliq solishda qonunchilik tashabbusi faqat Moliya Vazirligi va vazirlar Mahkamasiga (federal, provantsiya) zimmasiga yuklatiladi. Tarmoqlar bo'yicha vazirliklar o'z fikrlarini vazirlar mahkamasida izhor qilishlari mumkin, lekin parlamentda bunday huquqqa ega emaslar. Parlamentda vazirlar mahqamasi tasdiqlagan qonunchilik hujjatlari asosida ish yuritadi.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

*Provintsiya, Federal, Federal foyda solig'i, Foyda solig'i, Soliq tavkasi, federal subsidiyalar, Shtatlar solig'i, maxalliy soliqlarkorporatsiya foyda solig'i, divident, Yalpi sotuv, qushma deklaratsiya, Avtotransport egalaridan olinadigan soliq, Aktsizlar, Meros va xadya solig'i, Ijtimoiy sug'urta solig'i, Bojxona boji.*

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

8. AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishi?
9. Federal byudjet daromadlarining asosiy qismini qaysi soliqlar tashkil etadi?
10. AQSHda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning stavkalari va uning tulovchilari?
11. AQSHda soliqqa tortish ob'ektlari nechta bosqichlarda aniklanadi?
12. Kanada soliq tizimi nechta asosiy darajada taqdim etiladi?
13. Kanadadaning asosiy soliq stavkalari qaysilar?
14. Provintsiyalarga beriladigan federal transfertlar qaysi maqsadlarga va tuzilishga ega?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

32. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
33. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
34. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
35. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
36. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

37. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2019. - 336 b
38. Gadoev E. va boshqalar. Bilvosita soliqlar: QQS, Aktsiz solig'i. O'quv qo'llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 bet.
39. Gadoev E. va boshqalar. Foyda solig'i. O'quv qo'llanma. - T.: Norma, 2011.- 408 b.
40. Gadoev E. i dr. Uproshchyonnaya sistema nalogoooblojeniya. Uchebno-prakticheskoe posobie. - T.: Norma, 2011.- 324 str.
41. Gadoev E.F. Nalog na doxodi fizicheskix lits. Uchebnoe posobie -T.: Norma, 2011. - 312 str.
42. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
43. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 447 bet.
44. Ibraymov A.E. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
45. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoleva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
46. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
47. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
48. Obrazovanie v tsifrovyyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
49. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish kontseptsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. [https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)
50. S.Xudoyqulov, Sh.Babaev. Soliq tushumlari hisobi va prognozi. Darslik. T.: Iqtisodiyot. 2019.-305 b.
51. Sanakulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni solikka tortish. O'quv qo'llanma. -T.: Noshir, 2012. - 236 b.
52. Sovremennie obrazovatelnie texnologii: pedagogika i psicho-logiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo TsRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
53. O'zbekiston Soliq tizimi Mustaqillik yillarda. Rasmiy nashr. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2011. – 150 b.
54. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
55. Alimardanov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik.-T.: «Cho'lpon nomidagi NMU», 2014. -218 bet.

56. Djurayeva K. Soliq tizimida dasturiy mahsullar. 2-qism “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi – yuridik shaxslar” dasturiy majmuasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: El\_press, 2013. -141 b.
57. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
58. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
59. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
60. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
61. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
62. Vahobov.A.V, Jo`rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.

**Internet saytlar:**

1. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)
2. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
3. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
4. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

**V. KEYSLAR BANKI**

**BIRINCHI NAMUNA.**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“Soliqlar siyosatining asosiy yo'nalishlari” o'quv kursining  
“Oilaviy tadbirokrlikni rivojalantirishda soliq imtiyozlari va engilliklarni  
tadbiq etilishi” mavzusi bo'yicha tayyorlangan**

**KEYS- STADI**

**Keys: “Mening oilam” oilaviy korxonada faoliyatini rivojalantirishda  
soliq imtiyozlari va engilliklarni tadbiq etilishi o'rganish .**

**Toshkent – 2021**

## I.KEYS

Oilaviy tadbirkorlikni rivojalantirishda soliq imtiyozlari va engilliklarni tadbiq etilishi

### PEDAGOGIK ANNOTATSIYa

**O'quv predmeti:** «Soliqlar va soliqqa tortish».

**Mavzu:** «Oilaviy tadbirkorlikni soliqqa tortish».

**Ushbu keysning maqsadi:** O'zbekiston Respublikasida oilaviy tadbirkorlikka qulay shart-sharoitlar yaratishda soliq imtiyozlari va engilliklarni qo'llash orqali aholining tadbirkorlikka undash masalalari.

Rejalshtiriladigan o'quv natijalari:

- oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga oid soliq me'yoriy hujjatlarni ro'yxatini shakllantiradi va oilaviy tadbirkorlikni tashkil etilish bosqichlarini o'zlashtirish;
- oilaviy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda soliq to'lovlaridan tashqari qo'shimcha berilgan engilliklar oid ma'lumotlarni tahlil qilish va soliq bazasini hisoblash mexanizmini hisob-kitobini amalga oshirishda malakalarini orttirish;
- mustaqil tarzda qaror qabul qilish malakalarini egallash.

Talabalar ushbu keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun oilaviy tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan soliq imtiyoz turlari, ularning qo'llanilishi xususiyatlari va qo'shimcha qulayliklarga oid ma'lumotlarni tahlil qilish va soliq bazasini hisoblash mexanizmini hisob-kitobini amalga oshirishda nisbatan mavjud yondashuvlar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

Ushbu keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettiradi. Keys ob'ekti –

Oilaviy korxona shaklidagi yuridik shaxs yoki yakka tardibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jimoniy shaxs.

### Axborot manbalari:

- O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'RQ-327-son Qonuni, Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-sonli qarori;
- Davlat xizmatlari shaklidagi «Yagona darcha» markazlari ma'lumotlari;
- Oilaviy korxona va yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning 2016-2017 yillardagi ish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari haqidagi yillik hisobotlari.

Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi:

Keys hayotiy, syujetsiz keyslar kategoriyasiga kiradi va statistik materiallar asosida tuziladi. Keys qisqa, tuzilmalangan. Bu keys-topshiriqdir.

Keys didaktik maqsadlariga ko'ra vaziyat sub'ektini rivojlantirishning yangi strategiyalari va yo'llarini ishlab chiqishga rag'batlantiradigan keyslar toifasiga kiradi.

Keys elektron versiyada taqdim etilgan.

Keysdan quyidagi o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin: «Soliqlar va soliqqa tortish», «Soliq ma'murchiligini takomillashtirish», «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» va «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish».

### **3.2.TALABAGA USLUBIY KO'RSATMALAR**

Keys uslubiy pasportining mazkur komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- keysdagi muammo va kichik muammolar ifodasi (agar keys muammoni izlash va hal etishga o'rgatadigan keyslar toifasiga kirmaydigan bo'lsa);
- muammo echimi algoritmi (ushbu elementning bo'lishini o'qituvchi – keysolog belgilaydi);
- o'quv-uslubiy materiallar: hisob-kitoblar qoidalari va formulalari, uslublar va rusumlar bayoni va boshqalar (keysologning fikriga qarab).
- muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilish varag'i yoki muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilishga doir yo'riqnomalar;
- keys bilan individual va guruh bo'lib ishlashni baholash mezonlari va ko'rsatichlari;

### **KEYS STADI**

Imtiyozlar – oilaviy tadbirkorlik uchun madad

Mazkur materialda barcha toifadagi korxonalar, shuningdek ayirim faoliyat sohalari korxonalari uchun belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar keltirilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilanoq, bozor iqtisodiyotining asosiy negizlaridan bo'lган xususiy mulk huquqini mustahkamlash, uning daxlsizligi va ishonchli huquqiy himoyasini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik bazasi yaratildi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "*Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida*"qi, "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, mazkur sohani tartibga solishda, rivojlantirishda va albatta mulkdorlar va tadbirkorlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, mulkdorlar sinfining shakllanishiga, xususiy mulk himoyasi va daxlsizligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yuritishga huquqiy kafolatlar mustahkamlanmoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesning huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni

3-moddasida belgilanganidek, oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanib, o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi hamda yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

*"Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"*qi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilingani tufayli, hech shubhasiz, yurtimizda oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinalarining ochilishiga qulay imkoniyatlar yaratib berilganini alohida ta'kidlash joiz.

Xususan:

- Prezidentimizning 2017 yil 31 yanvarda PQ-2746-sodn "Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko'ra, Toshkent shahrida kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun

mikrokreditlashning yangi sxemasini joriy etildi va o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatdan qaytgan jismoniy shaxslar, mehnat organlarida ro'yxatga olingan band bo'limgan fuqarolar, oilaviy va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan aholi, shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tavsiyanomalari bo'yicha ishga joylashishga ehtiyojmand bo'lgan boshqa shaxslar mikrokreditlash uchun qamrab olinadigan shaxslar orasida ustuvor kontingentlar sifatida e'tirof etildi.

- Prezidentimizning 2017 yil 17 martdagи PQ-2844-son "Tadbirkorlik sub'ektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan tadbirkorlik sub'ektlari va barcha aholi qatlamining imtiyozli mikrokreditlardan keng foydalanishini ta'minlash, shuningdek, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini rag'batlantirish orqali aholi bandligini yanada oshirish maqsadidayangi ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga faoliyatini amalga oshirish uchun olingan tovarlarni garov sifatida hisobga olgan holda eng kam ish haqining 20 barobarigacha miqdorda mikrokreditlar ajratish, yangi davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 60 barobarigacha miqdorda mikrokreditlar kreditlashga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'minot turlari bilan bir qatorda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining kafilligi asosida ajratishni kengaytirish belgilandi.

- O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'RQ-327-sonli Qonunda belgilangan oilaviy korxonalarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bir qator qonun va qonun osti hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, Soliq kodeksining 176 va 179-moddalariga kiritilgan o'zgartirishga asosan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlар to'langanidan keyin oilaviy korxona ishtirokchisi ixtiyorida qoladigan foya summasi jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga kiritiladi va jismoniy shaxslarning daromadi soliqqa tortilmaydi. Shuningdek, 351-moddasiga kiritilgan o'zgartirish bilan oilaviy korxonalar soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqisiz, yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanishi belgilab qo'yildi.

- O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'RQ-327-son qonunining 28-moddasida oilaviy korxona turar joydan bir vaqtning o'zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, kommunal infratuzilma xizmatlari (elektr energiyasi, suv ta'minoti, kanalizatsiya, gaz ta'minoti va issiqlik ta'minoti) haqini to'lash aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha va shartlar asosida amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Oilaviy korxonani tashkil etish va unga soliq solish tartibi

## **YURIDIK SHAXS TASHKIL ETMAGAN HOLDA**

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etiladigan oilaviy tadbirkorlik faoliyati **Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomda** (ro'yxat raqami 216, 2009 yil 29 iyul, keyingi o'rinnarda – Nizom) belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

**Oilaviy tadbirkorlik – er-xotin** tomonidan ularga bиргалидаги умумий мулк huquqi bilan tegishli bo'lган ularning умумий mulki negizida amalga oshirilадиган hamda er-xotinning va ularga yordam beruvchi oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslangan, yuridik shaxs bo'limgan jismoniy shaxslarning birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatidir.

**Oila a'zolari** – er-xotin, ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar hamda 15 yoshdan oshgan, shu jumladan, farzandlikka olingan bolalardir.

Oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda **yakka tartibdagi tadbirkorni** davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi, unda yakka tartibdagi faoliyatning oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshirilishi, shuningdek birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi oila a'zolari ko'rsatiladi (Nizomning 4-bandı).

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishda oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan er-xotindan birlardan bittasining notarial tasdiqlangan roziligidagi ko'ra ish ko'radi.

Nizomning 8-bandiga muvofiq, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan doimiy xodimlar yollashga yo'l qo'yilmaydi. Istisno hollarda oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirishda vaqtincha bir martalik ishlarni amalga oshirish uchun oila a'zolari hisoblanmaydigan fuqarolarning jalb etilishiga yo'l qo'yildi.

### **YuRIDIK ShAXS TAShKIL ETGAN HOLDA**

**Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir.** Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi.

**Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin** (Qonunning 4-moddasi). Oilaviy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'lishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Oilaviy korxona ishtirokchilari korxona mol-mulki etarli bo'lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatları bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjalari muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

**Oilaviy korxona qonun hujjalari muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin.**

Oilaviy korxona ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining qonun hujjalari belgilangan o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak.

Oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to'lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog'a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin. E'tibor bering, bunda **faqat muomalaga layoqatli shaxslar** oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin (Qonunning 5-moddasi).

Davlat organlarining mansabdar shaxslari, shuningdek qonun hujjalarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqilangan boshqa shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin emas.

### **Bir oilaviy korxona ishtirokchisi bir vaqtning o'zida boshqa oilaviy korxona ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas.**

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda oilaviy korxona nomidan uning boshlig'i ish ko'radi.

Oilaviy korxona ishtirokchilaridan biri uning boshlig'i bo'lishi mumkin, unga oilaviy korxonaning barcha ishtirokchilari bir ovozdan ish muomalasida o'z nomlaridan ishtirok etish huquqini beradi (Qonunning 6-moddasi).

Qonunning 16-moddasiga muvofiq, oilaviy korxona ishtirokchilariga mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda tegishli bo'lgan turar joylar va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, shu jumladan, ishlab chiqarish, xo'jalik binolari va boshqa imoratlar oilaviy korxona faoliyati amalga oshiriladigan joydir.

Oilaviy korxona ishtirokchilariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar joylarni ulardan oilaviy korxona faoliyatida foydalanish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan joylarga aylantirish talab qilinmaydi, bundan faoliyatning ayrim turlari uchun qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollar mustasno.

## **OILAVIY KORXONAGA SOLIQ SOLISH**

Oilaviy korxona Qonunning 26-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 351-moddasiga asosan belgilanadigan tartibda yagona soliq to'lovi to'lovchisidir.

Oilaviy korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin uning ishtirokchilari tasarrufiga o'tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Oilaviy korxona mehnat haqi fondidan ijtimoiy fondlarga qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar to'laydi. Oilaviy korxona o'zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan qonun hujjalarda belgilangan tartibda ozod etiladi. Bunday buyumlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 martdagি PF-3588-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan.

Oilaviy korxonaga kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun qonun hujjalarda nazarda tutilgan imtiyozlar, preferentsiyalar va kafolatlar tatbiq etiladi.

## **MOL-MULK SOLIG'I**

Soliq kodeksining 276-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joyidan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtida tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, unga **mol-mulk solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.**

## **ER SOLIG'I**

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona er uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtida tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, **er solig'i jismoniy shaxslar uchun**

**belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi** (Soliq kodeksining 291-moddasi ikkinchi qismi).

Keys stadiga oid savollar:

1. Akamning oilasi bilan birgalikda oilaviy korxonamizni ochmoqchimiz. Oilaviy korxona ochish tartibi qanaqa ?
2. Oilaviy tarbirkorlikda kreditga oid qanday imtiyozlar ko'zda tutilgan?
3. Bundan tashqari yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda ochilgan korxonalarning bir-biridan farqi nimada?
4. Agar faoliyatimizni yo'lga qo'ysak, mol-mulk va er soliqlarini qaysi stavkalar bo'yicha to'lashimiz kerak bo'ladi?
5. Oilaviy tadbirkorlikda boshqa tadbirkorlik faoliyatiga qaraganda qanday qulay shart-sharoitlar belgilangan?

## VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

### **1) Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.**

*Mustaqil ish* – mavjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllaridan biri sanaladi. Shu boisdan, konspektdan farqli o’laroq, mustaqil ish yangi, muallif matn sanaladi. Ushbu holatda yangilik, yangicha taqdim etish, materiallarni tartiblashtirish, har xil nuqtai nazarlarni o’zaro solishtirishda alohida mualliflik yondashuvi tushuniladi.

*Mustaqil ish* - har xil nuqtai nazarlarni o’zaro solishtirish va tahlil qilish ko’nikmasiga ega bo’lishni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o’zida mujassam etadigan g’oyalarni qisqacha yozma ko’rinishidagi taqdimotidir.

#### ***Mustaqil ishning turlari va tizimi:***

1. Ifodalanish to’liqligicha ko’ra:
  - a) informativ (referatlar – konspektlar);
  - b) indikativ (referatlar –rezyume (qisqacha mazmun)

#### **2.Mustaqil ish tarkibi:**

##### **A) bibliografik qayd etilishi:**

- F.I.Sh.ning nomi;
- chop etilgan manzili;
- nashriyot, yil;
- sahifalar soni.

##### **B) Mustaqil ish matni:**

- mavzu, muammo, mustaqil ish qilinadigan ish predmeti, maqsadi va mazmuni;
- tadqiqot usullari;
- aniq natijalari;
- muallif xulosasi;
- ish natijalarini qo’lannish sohasi.

O’quv fani bo’yicha mustaqil ish tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- O’quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo’yicha bilimlarini chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga ushbu olingan nazariy bilimlarni ijodiy ko’nikmasini hosil qilish;
- Tanlangan kasbiy sohada xorij tajribalarini, mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo’llash imkoniyatlari va muammolarini o’zlashtirish;
- Tanlangan mavzu bo’yicha har xil adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o’rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil, hamda bilimdon holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish;
- Yozma ko’rinishdagi ishlarni to’g’ri rasmiylashtirish ko’nikmalarni rivojlantirishdir.

“Real sektor statistikasi” modulidan mustaqil ta’limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalilaniladi: ayrim nazariy mavzularni o’quv adabiyotlari yordamida o’zlashtirish; amaliy mashg’ulotlar uchun topshirilgan mavzuni axborot resurs

manbalaridan foydalangan, rasmiy statistika ma'lumotlarini to'plagan holda bajarish.

*Tinglovchi mustaqil ishni tashkil etishining mazmuni “Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti” modulining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagilarga asoslanib tayyorlanishi tavsija etiladi:*

*- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;*

*- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;*

*- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;*

*- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;*

*-tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.*

### **Mustaqil ta'lim mavzulari.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” deb nomlangan kitobidan keltirilgan soliq va soliqqa tortish tizimiga oid masalalarni o'rganish.

2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bo'yicha o'zgartirishlarni o'rganish.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4848-sun Farmoni qisqacha mazmun-mohiyatini o'rganish.

4. Prezidentimizning 2016 yil 26 oktyabnda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 4853-sun Farmonini o'rganish

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi “Sudhuquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4850-sun Farmonining maqsadi, mazmun-mohiyatini o'rganish.

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-2699-sunli qarori bilan Soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar bo'yicha o'rganish..

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 1 iyuldagagi “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotish tartibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida”gi 225-sunli qarorini o'rganish.

4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 13 iyuldagagi “Ko'chma savdoga ruxsat berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 233-sunli qarorini o'rganish.

5) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 27 sentabrdagi 2268-sun bilan davlat ro'yxatidan Telekommunikatsiya xizmatlaridan olinadigan

daromadlarni shakllantirish va taqsimlash va ularni “O’zbektelekom” aktsiyadorlik kompaniyasining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to’g’risidagi nizomini o’rganish.

6) O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 31 iyulda 2127-son bilan davlat ro’yxatidan elektr energiyasini sotishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to’g’risidagi nizomini o’rganish.

7) Tijorat banklari, shu jumladan boshqa investorlar ishtirokida bankrot korxonalar negizida tashkil etilgan korxonalarning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari bo’yicha amortizatsiya ajratmalarini o’rnatilgan me’yordan kamroq hisoblash tartibi to’g’risidagi vaqtinchalik nizom

8) O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 15 martda 2086-son bilan davlat ro’yxatidan Qayta ishlashga berilgan xomashyo bilan bog’liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to’g’risidagi nizomini o’rganish.

1. Soliq siyosati va uni makroiqtisodiy siyosat bilan o’zaro uyg’unligi
2. Soliq siyosatining strategik yo’nalishlari.Evropa Ittifoqi mamlakatlarida soliq siyosatining xususiyatlari.
3. Inqirozning navbatdagi to’lqini sharoitida AQSHda soliq siyosatining xususiyatlari.
4. Yaponiyada soliq siyosati va uning o’ziga os xususiyatdari
5. Xitoy davlati soliq siyosati
6. MDH mamlakatlarida soliq siyosati.
7. Rossiya federatsiyasi soliq siyosati v uning strategik yo’nalishlari
8. O’zbekistonda mustaqillik yillarda olib borilgan soliq siyosati
9. Soliqlar haqidagi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari

## VII. GLOSSARY

<b>TERMIN</b>	<b>Rus tilida</b>	<b>Ingliz tilida</b>	<b>o'zbek tilidagi sharhi</b>
<b>Asosiy vositalar</b>	Osnovnie sredstva	fixed assets	deb, korxonada ko'p yil foydalilaniladigan mehnat qurollari: ya'ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar.
<b>Asosiy vositalar bilan ta'minlanish</b>	Obespechenoost osnovnimi sredstvami	Provision of fixed assets	korxonaning biznes-rejasiga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi.
<b>Aktiv (faol) asosiy fondlar</b>	Aktivnie osnovnie sredstva	Active fixed assets	kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari.
<b>Asosiy fondlarni yangilash koeffitsienti</b>	Koeffitsient obnovleniya osnovnih fondov	The coefficient of fixed assets renewal	yangi kelgan asosiy fondlar so'mmasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak.
<b>Asosiy (operatsion) faoliyat bo'yicha pul oqimlari</b>	Denejnie potoki ot osnovnoy deyatelnosti	Cash flows from operating activities	xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariiga, foyda miqdoriga tasirini ifodalaydi.
<b>Aylanma mablag'lar</b>	Oborotnie sredstva	current assets	aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'lari.

<b>Boshqaruv tamoyillari</b>	Printsipi upravleniya	principles of management	iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida.
<b>Boshqaruv tizimi</b>	Sistemi upravleniya	Control systems	boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo'lib, ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o'zgaradi.
<b>Balansni likvidligi</b>	Likvidnost balansa	balance Liquidity	balansdagi likvid bo'lgan mablag'larning majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi.
<b>Brak mahsulot</b>	Braknaya produktsiya	bar producs	tasdiqlangan andoza va texnika shartlarga mos kelmaydigan mahsulot.
<b>“Balans”</b>	Balans	Balance	lotincha bis – ikki marta, band – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topib, tom ma'noda ikki palla degan ma'noni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlataladi.
<b>Bir so'mlik tovar ketgan xarajat</b>	Zatrati na odin sum tovaronoy produktsii	The cost of one sum of commodity producs	ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbatli tariqasida aniqlanadi.

<b>Debitor qarzlari</b>	Debitorskaya zadoljennost	Receivables	aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanma mablag'larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi.
<b>Debitorlik qarzlarining aylanish kuni</b>	Oborachivaemost debitorskoy zadoljnosti v dnyax	Accounts receivable turnover in days	debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendar kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.
<b>Induktsiya</b>	Induktsiya	Induction	tadqiqotni yoki biror ob'ektni (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylik sari o'tilishi tushuniladi.
<b>Ichki xo'jalik rezervlar (imkoniyatlari)</b>	Vnutrixozyaystvennie rezervi	Intra reserves	xo'jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta'sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta'sirini tugatish tushuniladi.
<b>Iqtisodiy-matematik usullar</b>	Ekonomiko-matematicheskie metodi	Economic-mathematical methods	integral, korrelyatsiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy

			o'yin kabilar.
<b>Investitsiya faoliyati</b>	Investitsionnaya deyatelnost	Investment activities	nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar sotib olish uchun etkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks ettiriladi.
<b>Ijtimoiy unumdorligi mehnat</b>	Sotsialnaya proizvoditelnost truda	Social productivity	moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o'lchanadi
<b>Individual unumdorligi mehnat</b>	Individualnaya proizvoditelnost truda	Individual productivity	individual (yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, tsexdagi, korxona, tarmoqdagi) ishlovchining ishlab chiqargan mahsuloti.
<b>Kreditor qarzlari</b>	Kreditorskaya zadoljennost	Accounts payable	o'zga korxonalarning aylanma mablag'larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

<b>Kreditorlik qarzlarining kuni aylanish</b>	Oborachivaemost kreditorskoy zadoljennosti v dnyax	Accounts payable turnover in days	kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendar kuniga ko'paytirish va sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.
<b>Leveraj</b>	Liveraj	Leverazh	xususiy kapitalning o'sgan qismi bo'lib, ko'rsatib xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsienti olinadi.
<b>Metod(usul)</b>	Metod (sposob)	The method (method)	yunon tilidan olingen bo'lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o'rganish usuli.
<b>Metodologiya(uslubiyat)</b>	Metodologiya	Methodology	muayyan fanning predmetini o'rgatish usuli, unda qo'llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi.
<b>Materiallar samarasi</b>	Materialotdacha	Materialootdacha	moddiy xarajatlarning bir so'mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini

			ko'rsatadi.
<b>Material sig'imi</b>	Materialoemkost	consumption of materials	bir so'm tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to'g'ri kelishini ko'rsatadi.
<b>Moliyaviy natija</b>	Finansoviy rezultat	Financial results	korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanaigan yakunidir.
<b>Muddatli koeffitsienti</b>	<b>likvidlik</b>	Koeffitsient srochnoy likvidnosti	Quick ratio u pul mablag'lari, sof debitorlik qarzlari summasini joriy majburiyatlarga bo'lish orqali aniqlanadi.
<b>Mutlaq koeffitsienti</b>	<b>likvidlik</b>	Koeffitsient absolyutnoy likvidnosti	Absolute liquidity ratio u pul mablag'larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi.
<b>Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti</b>		Koeffitsient finansovoy nezavisimosti	The financial independence u korxonaning o'z mablag'larining xo'jalik mablag'lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi.
<b>Mehnat omillari</b>	Faktori truda	labor Factors	korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumдорлиги darajasini

			ifodalovchi ko'rsatkichlar.	
<b>Mehnat omillari</b>	<b>vositalari</b>	Faktori sredstv truda	Factors labor funds	korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
<b>Mehnat omillari</b>	<b>predmetlari</b>	Faktori predmetov truda	Factors objects of labor	korxonaning xom ashyo va asosiy materiallar bilan ta'minlanganligini hamda ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
<b>Mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish</b>	Ritmichnaya proizvodstva produktsii	Rhythmic production	mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga muvofiq etkazib berish va sotishni o'z vaqtida ta'minlanishi.	
<b>Mahsulot sifati</b>	Kachestva produktsii	quality products	uning barcha mo'ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi.	
<b>Mehnat unumdorligi</b>	Proizvoditelnost truda	productivity	moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori	

			bilan o'lchanadi
<b>Moddiy resurslar</b>	Materialnie resursi	Material resources	ishlab chiqarishning muayyan tsiklida foydalanishda bo'lgan va shu tsiklda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxiga o'z qiymatini to'liq o'tkazib boruvchi buyumlar.
<b>Maxsulot tannarxi</b>	Sebestoimost produktsii	product cost	maxsulotni ishlab chiqarish, sotish va korxona moliyaviy faoliyati bo'qyicha barcha xarajatlarning pul orqali ifodalanishi.
<b>Moliyaviy faoliyat</b>	Finansovaya deyatelnost	Financial activities	bo'limida aktsiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni kelib tushishi va chiqimlar aks etadi.
<b>Moddiy tekshiruvlar</b>	Materialnaya proverka	Material inspection	moddiy boyliklar, pul mablag'lari xaqiqiy qoldig'ini buxgalteriya xisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.
<b>Omilli tahlil</b>	Faktorniy analiz	Factor analysis	natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir doirasini hisoblash

			usullari majmuasini o'zida ifoda ettirgan tahlildir.
<b>Omillar</b>	Faktori	factors	u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tushuniladi.
<b>Operatsion foyda(asosiy faoliyati foydasi)</b>	Operatsionnaya pribil (pribil ot osnovnoy deyatelnosti)	Operating profit (operating profit)	yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan foyda.
<b>Pul oqimlari</b>	Denejnie potoki	monetary flows	pul va pul mablag'larining hamda so'm va o'zga ekvivalentlarining kirimi va chiqimi.
<b>Pul ekvivalentlari</b>	Denejnie ekvivalenti	Cash equivalens	erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o'zgarishi xatariga kamroq moyil bo'lgan investitsiyalar.
<b>Pul mablag'lari</b>	Denejnie sredstva	Cash	kassadagi nakd pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob. valyuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag'lar.

<b>Passiv (nofaol) asosiy vositalar</b>	Passivnie sredstva	osnovnie Passive assets	fixed	binolar, inshootlar va transport vositalari.
<b>Retrospektiv(joriy) tahlil</b>	Retrospektivniy (tekushchiy) analiz	Retrospective (current) analysis	hisobot hisobotlar hisobdan axborot manbalariga o'tkaziladigan tahlil.	davri bilan statistik va tezkor hamda tashqari
<b>Rentabellik</b>	Rentabelnost	Profitability	jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korhonaning iqtisodiy moliyaviy samaradorligini ifodolovchi ko'rsatkich.	korxonalar
<b>Raqobat</b>	Konkurentsija	Competition	lotincha so'zdan olingan bulib, maqsadga erishish uchun kurash, o'rtaсидаги sof kurashni bildiradi.	korxonalar
<b>Sotilgan mahsulot</b>	Realizovannaya produktsiya	products sold	tovarlar iste'molchilarga jo'natilib uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob - kitob raqamiga o'tkazilishi tushuniladi.	uni
<b>Sof mahsulot</b>	Chistaya produktsiya	Net output	tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar va asosiy vositalar va nomoddiy	ishlab chiqarishga

			faollarning amortizatsiyasi summasi o'rtasidagi farq.
<b>Soliq to'lagunga qadar foyda</b>	Pribil do uplati nalogov	Profit before tax	umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydani qo'shilishi va favquloddagi zararni chegirish orqali hosil bo'lган foyda.
<b>Sof foyda</b>	Chistaya pribil	Net profit	soliq to'lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig'i va foydadan boshqa soliqlar va yig'imlarni chegirilishi orqali aniqlangan foyda.
<b>Taqqoslanadigan mahsulot</b>	Sravnivaemaya produktsiya	comparable producs	shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari.
<b>Taqqoslanmaydigan mahsulot</b>	Nesrvnivaemaya produktsiya	comparable producs	joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir.
<b>Tovar mahsuloti</b>	Tovarnaya produktsiya	commercial producs	barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tgan, to'la butlangan, texnika nazorati bo'limidan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot.
<b>Taqsimlanmagan foyda</b>	Neraspredelennaya pribil	retained earnings	korxonaning hisobida turgan sof foydasi.

<b>Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda(hisobot foydasi)</b>	Pribil ot obshchexozyaystvennoy deyatelnosti	Profit from general economic activity	operatsion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo'shilishi va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo'lgan foyda.
<b>Ustav kapitali</b>	Ustavniy kapital	Authorized capital	o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi.

## **VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Me'yoriy-huquqiy xujjatlar.**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1-jild. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O’zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. 3-jild.– T.: “O’zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O’zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Maxsus adabiyotlar.**

1. Toby Stock. Advanced in Taxation. Copyright @ 2010 y. Emerald Group Publishing limited.
2. Schanz, Deborah, Schanz, Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. © 2011
3. Alan Melville. Taxation Finance Act 2015 21th edition Aug 2015, Paperback, 624 pages
4. Abdraxmanova G.I., Vishnevskiy K.O., Goxberg L.M. i dr.; Tsifrovaya ekonomika: 2019: kratkiy statisticheskiy sbornik / Nats. issled. un-t «Vissayha shkola ekonomiki». – M.: NIU VShE, 2019. – 96 s
5. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKs Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
6. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. -T.: O’zbekiston, 2019. - 336 b
7. Gadoev E. va boshqalar. Bilvosita soliqlar: QQS, Aktsiz solig’i. O’quv qo’llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 bet.
8. Gadoev E. va boshqalar. Foyda solig’i. O’quv qo’llanma. - T.: Norma, 2011.- 408 b.
9. Gadoev E. i dr. Uproshchyonnaya sistema nalogoooblojeniya. Uchebno-prakticheskoe posobie. - T.: Norma, 2011.- 324 str.
10. Gadoev E.F. Nalog na doxodi fizicheskix lits. Uchebnoe posobie -T.: Norma, 2011. - 312 str.
11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

12. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 447 bet.
13. Ibraymov A.E. Masofaviy o’qitishning didaktik tizimi. metodik qo’llanma/tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
14. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O’quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
15. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O’quv qo’llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
16. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
17. Obrazovanie v tsifrovuyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
18. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish kontseptsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko’magida. [https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)
19. S.Xudoyqulov, Sh.Babaev. Soliq tushumlari hisobi va prognozi. Darslik. T.: Iqtisodiyot. 2019.-305 b.
20. Sanakulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni solikka tortish. O’quv qo’llanma. -T.: Noshir, 2012. - 236 b.
21. Sovremennie obrazovatelnie texnologii: pedagogika i psicho-logiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo TsRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
22. O’zbekiston Soliq tizimi Mustaqillik yillarda. Rasmiy nashr. O’quv qo’llanma. – T.: Sharq, 2011. – 150 b.
23. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o’quv yurtlarida o’quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O’quv qo’llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
24. Alimardanov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik.-T.: «Cho’lpon nomidagi NMIU», 2014. -218 bet.
25. Djurayeva K. Soliq tizimida dasturiy mahsullar. 2-qism “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi – yuridik shaxslar” dasturiy majmuasi. O’quv qo’llanma. -T.: El\_press, 2013. -141 b.
26. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
27. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
28. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
29. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
30. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
31. Vahobov.A.V, Jo`rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.

### **III. Internet saytlari**

1. [www.lex.uz-](http://www.lex.uz) O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. [www.edu.uz-](http://www.edu.uz) O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi.
3. [www.aci.uz-](http://www.aci.uz) O’zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo’mitasi.
4. [www.ictcouncil.gov.uz-](http://www.ictcouncil.gov.uz) Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash.
5. [www.bimm.uz-](http://www.bimm.uz) O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz.
6. [www.ziyonet.uz-](http://www.ziyonet.uz) ta’lim portali.
7. [www.infocom.uz-](http://www.infocom.uz) Infocom.uz elektron jurnali.
8. www.mfer.uz – O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti.
9. www.aza.uz – O’zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.
10. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali.
11. www.soliq.uz - O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasining rasmiy sayti.
12. www.mf.uz - O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti.
13. [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz) – Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining sayti.